D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

20. *O'z tilingni hurmat qil, u senga keng imkoniyatlar ochib beradi.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
- B) bog'langan qo'shma gap
- C) ergashgan qo'shma gap
- D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

21. Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlar, -u(-yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar qanday gaplar hisoblanadi?

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
- B) bog'langan qo'shma gap
- C) ergashgan qo'shma gap
- D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap

22. Bog'langan qo'shma gaplarning qaysi turida payt munosabati ifodalanadi?

- A) biriktiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda
- B) zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda
- C) bo'lsa, esa so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda
- D) ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

23. Sabab-natija munosabatiga ega bo'lgan bog'langan qo'shma gapni toping.

A) U har uch qadamda bir to'xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu, muvozanatni saqlay olmay o'tirib oldi.

B) Gulchehra «piq» etib kuldii-da, cho'zilib tugunni oldi.

C) Inobat qizishib ketib pisandaga o'tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi.

D) Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirkini xirmondag'i bolalarga tutqazdi-da,

dabdurstdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.

24. Payt munosabatiga ega bo'lgan bog'langan qo'shma gapni toping.

A) Anor so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltitar.

B) To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi.

C) Ro'paradagi g'orming bag'ridan qora tutun ko'tarildi va u yerdan yo'tal tovushi eshitildi.

D) hammasida payt munosabati mavjud

25. Sabab-natija munosabati bog'langan qo'shma gaplarning qaysi turida ifodalanadi?

A) birkiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

B) zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

C) bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

D) ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

26. Bog'langan qo'shma gaplarning qaysi tur(lar)ida zidlash munosabati ifodalanadi?

1) birkiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda;

2) zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda;

3) bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplarda;

4) ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda.

A) 2 B) 3

C) 2, 3 D) 2, 4

27. Qaysi bog'lovchi vositalar bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'tasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi?

A) va, hamda bog'lovchilar

B) ammo, lekin, biroq bog'lovchilar

C) bo'lsa, esa so'zlari

D) -u(-vu), -da yuklamalari

28. Zidlov bog'lovchisi gaplarni bog'lamagan qatorni toping

A) Xonaga semiz, ammo chaqqon oshpaz ayol kirib keldi.

B) Dilimizda orzu balandroq ko'klam biroz noqulay keldi.

C) Gut to'g'risida yo'zganini ko'ryot yo'q, lekin paxta haqida ko'p yozadi

D) Yo'lning ikki chetidagi g'allu lanardi, ammo ular o'tgan yillardagi kaland emas edi.

29. Qaysi bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ulardan ifodalangan voqe-hodisaning galma-qal ro'y berishini bildiradi?

1) ammo; 2) yoki; 3) bir..., bir; 4) y... ud; 5) hamda; 6) goh..., goh; 7) dam..., dam

A) 2, 3, 4, 6, 7 B) 2, 4

C) 3, 6, 7 D) 2, 3, 6, 7

30. Qaysi bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ulardan foydalanishning yuzaga chiqishini ta'kidlaydi?

1) va; 2) goh..., goh; 3) lekin; 4) yo... yo; 5) dam..., dam; 6) yoki..., yoki.

A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 4, 6 D) 4, 6

31. Ayiruv bog'lovchilar bilan bog'liq tinish belgilari haqidagi to'g'ri fikr(lar)ni aniqlang.

1) ayiruv bog'lovchilar yakka qo'llanganda ulardan oldin ham, keyin ham vergul qo'yilmaydi;

2) ayiruv bog'lovchilar takror qo'llanganda vergul takror qo'llangan bog'lovchidan keyin qo'yildi;

3) ikki xil ayiruv bog'lovchisi qo'llanganda ulardan oldin ham, keyin ham vergul qo'yilmaydi.

A) 1, 2, 3 B) 1, 3

C) 1 D) 1, 2

32. Galma-gal ro'y berayotgan voqe-hodisalarini bildirgan qo'shma gapni toping.

- A) Yu'niz keling, yo men boray.
 B) Dam jahlim chiqadi, dam kulgim
 C) Mashinaning nuqsoni bo'lsa,
 dili yo yana yaxshirog'i yasaladi.
 D) Ba'zan hech narsani eshitgim
 y qoladi, qizim.
 E) Voqe-hodisalardan faqat bini
 chiqadigan qo'shma gapni toping.
 A) Goh osmonni tutib ashula
 ydydi, goh allaqayerdan garmon
 eshitiladi.
 B) Ba'zan qurbaqlarning qurillashi
 chalinib, kishiga rohat beradi,
 itlarning vovullashi bu ovozlarni
 ketadi.
 C) Tansiq goh shap-shup suv kechib
 yurdil, goh uning oyoqlari yelimday suvgi
 buladi.
 D) Yo zardo'zi to'ning to'zibmi qoldi,
 yoki so'kildimi suvsar telpaging?
34. Qaysi vositalar qo'shma gap
 qismilarini bog'lash bilan birga ular
 ortasida qiyoslash va zidlash munosabati
 mavjudligini ifodalaydi?
- 1) ammo; 2) lekin; 3) bo'lsa so'zi;
 - 4) biroq; 5) esa so'zi; 6) balki.
- A) 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 6
35. Bo'lsa, esa so'zlar qo'shma
 gaplarning qaysi qismida keladi?
- A) qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng
 B) qiyoslanuvchi bo'lakdan oldin
 C) istalgan joyda
 D) birinchi sodda gap tarkibida
36. *Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik bo'lsa uni saodatga boshlaydi.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
 B) bog'langan qo'shma gap
 C) ergashgan qo'shma gap
 D) bu gap qo'shma gap emas, sodda
 gap

37. Qaysi gapda qiyoslash ma'nosi ifodalangan?
- A) Jahl – dushman, aql esa do'stdir.
 B) Aql ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa
 insonni ko'kka ko'taradi.
 C) Yaxshilik qilmoqlik ulug' fazilatdir,
 buning qadriga yetmaslik esa illatdir.
 D) Dono aybni o'zidan axtaradi,
 ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.
38. Qaysi gapda zidlash ma'nosi mavjud?
- A) Tovus o'zining chiroli patlarini
 ehtiyoq qiladi, vijdonli odam esa o'zining
 sharaf-u shonini asraydi.
 B) Oy tunda kerak, aql esa kunda
 kerak.
 C) Aql – eskirmas kiyim, bilim esa
 tuganmas buloqdir.
 D) Rostgo'ylik odamni kamolotga
 yetkazadi, yolg'onchilik esa uni halokatga
 olib boradi.
39. Berilgan nechta gaplarda qo'shma
 gap qismilari orasida zidlash ma'nosi
 mavjud?
1. Aql ko'pga yetkazadi, hunar esa
 insonni ko'kka ko'taradi.
 2. Dunyoda gullar ko'p, ammo menga
 rayhon yoqadi.
 3. Donolarning aqli – yuragida,
 ahmoqlarning aqli esa tilidadir.
 4. Gap ko'p-u, ko'mir oz.
 A) bittasida B) ikkitasida
 C) uchtasida D) to'rttasida
40. Berilgan qo'shma gaplardan
 nechtasining qismilari o'zaro tobe
 munosabatda bog'langan?
1. Fikr tiniq bo'lsa, nutq ham ravon
 bo'ladi.
 2. Olim bo'lsang, olam seniki.
 3. Qaniydi, hamma ham sizga o'xshasa.
 4. Arava bo'lsa almiqsoqdan qolgan,
 yana sinibdi.
 5. Chiroli kiyim insonning ko'rki,
 chiroli nutq bo'lsa uning ziynatidir.

- A) bittasida B) ikkitasida
 C) uchtasida D) to'rttasida
41. Ergashgan qo'shma gaplar haqidagi to'g'ri fikrlarni toping.
- 1) ergash gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga o'xshaydi;
 - 2) ergashgan qo'shma gaplarda mazmuni izohlanayotgan gap ergash gap hisoblanadi;
 - 3) so'z birikmasida tobe va hokim qismning tartibi qat'iy;
 - 4) ergashgan qo'shma gaplarda tobe qism va hokim qismning tartibi qat'iy emas;
 - 5) ergashgan qo'shma gaplar tobe va hokim qismdan tuziladi.
- A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 4, 5-
42. Ergash gap qismi bosh gap qismidan oldin kelgan ergashuvchi bog'lovchi yordamida ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Uyda hamma mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning erkatoyiman.
 B) Ilm insonni yuksaklikka yetaklaydi, shu sababli ilm olish payida bo'l.
 C) Agar qaldirgo'ch yer yuzasi yoqalab uchsa, yomg'ir yog'adi.
 D) Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.
43. Bosh gap qismi ergash gap qismidan oldin kelgan havola bo'lakli ergashgan qo'shma gap qaysi javobda berilgan?
- A) Bu she'mi yozib olaman, toki esdan chiqib ketmasin.
 B) Hammamiz ham umid bilan mehnat qildik, shu sababli mehnatimizning rohatini ko'rishdan umidvormiz.
 C) Kimning libosi hayo bo'lsa, uning ishlari doimo o'ngidan keladi.
 D) Shuni sezdimki, oila a'zolari juda ahil ekan.
44. Qismlari nisbiy so'z yordamida ergashgan qo'shma gap qaysi javobda keltirilgan?
- A) Bamo qarasa, yonida mushugl yo'q.
 B) Mehmon kelsa eshikdan, rizq teshikdan.
 C) Agar men bormasam, siz o'zim konsert dasturini olib borasiz.
 D) Siz Hindistonda neniki ko'nib bo'lsangiz, shularning hammasini yozing.
45. Ergash gap qismlari o'tasida ma'no munosabatining ifodalanishi haqidagi to'g'ri fikrlarni toping.
- 1) ergash gap qismlari ergashuvchi bog'lovchilar yordamida bog'lansa, ular o'tasida sabab, maqsad, shart, o'xshatish chog'ishtirish ma'holari mavjud bo'ladi;
 - 2) ergash gap qismlari ko'makchili qurilmalar yordamida bog'lansa, ular o'tasida sabab mazmuni mavjud bo'ladi;
 - 3) ergash gap qismlari deb so'zi yordamida bog'lansa, ular o'tasida faqat maqsad mazmuni ifodalanadi;
 - 4) ergash gap qismlari -sa shart mayli vositasida bog'lansa, ular o'tasida shart va payt munosabati mavjud bo'ladi.
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
 C) 1, 2, 3 D) 1, 2
46. «Mabodo» bog'lovchining qaysi turiga mansub?
- A) sabab bog'lovchisi
 B) maqsad bog'lovchisi
 C) shart bog'lovchisi
 D) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
47. «Toki» bog'lovchining qaysi turiga mansub?
- A) sabab bog'lovchisi
 B) maqsad bog'lovchisi
 C) shart bog'lovchisi
 D) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
48. «Basharti» bog'lovchining qaysi turiga mansub?
- A) sabab bog'lovchisi
 B) maqsad bog'lovchisi

40. shart bog'lovchisi
 A) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
 B) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
 C) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
 D) shart mayli toping.
 41. go'yo B) go'yoki
 42. muddi C) muddi D) negaki
 43. Qaysi bog'lovchilar ergash gap
 in qo'llanadi?
 1) sabab bog'lovchilar;
 2) maqsad bog'lovchilar;
 3) shart bog'lovchilar;
 4) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilar.
 A) 1, 2 B) 1, 2, 3, 4
 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4
 44. Qaysi bog'lovchilar bilan bog'langan
 qishgan qo'shma gaplarda ergash gap
 lini gapdan so'ng keladi?
 A) sabab bog'lovchisi
 B) maqsad bog'lovchisi
 C) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
 D) hammasi
 45. Qaysi bog'lovchilar bilan
 bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda
 ergash gap bosh gapdan oldin keladi?
 A) sabab bog'lovchisi
 B) maqsad bog'lovchisi
 C) shart bog'lovchisi
 D) qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi
 53. *Vijdonni asrangiz har nedan
 ortiq,*
*Bobolardan qolgan bu noyob
 ortiq*
Toki avlodlarga yetolsin omon.
 Ushbu parchada ergashgan qo'shma
 gap qismarini bog'lagan vositani toping.
 A) ergashtiruvchi bog'lovchi
 B) ko'makchili qurilma
 C) yuklama
 D) shart mayli shakli
 54. *Misralarda so'zlar gavhar
 kabi yonadi, go'yo yangi ranglar,
 yangi jilvalar bilan porlaydi.* Ushbu
 gapda ergashgan qo'shma gap qismarini
 bog'lagan vositani toping.

- A) ergashtiruvchi bog'lovchi
 B) ko'makchili qurilma
 C) yuklama
 D) shart mayli shakli
 55. Sabab bog'lovchisi qatnashmagan
 gapni toping.
 A) Ozgina hovliqib turishsa ham,
 cho'chishsa ham mayliga, negaki keyin
 yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan
 shodiklari ham shunga yarasha bo'ladi.
 B) Soliqni bermang demayman,
 chunki sizning itoatingiz menga bundog'
 to'nlar berur.
 C) Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik,
 shu sababli mo'l hosil oldik.
 D) hammasida sabab bog'lovchisi
 qatnashgan
 56. Qaysi gapda maqsad bog'lovchisi
 qatnashgan?
 A) Bu masalani sinfda keng muhokama
 qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.
 B) Gul barglari uchishadi, tushmayin
 deb qo'llingga.
 C) Tuzumlar o'zgarsa ham, Inson
 o'zgarmas ekan, Shul boisdan payg'ambar
 Ummat g'amin yeganlar.
 D) hammasida qatnashgan.
 57. Bosh gapda ifodalangan
 mazmunning sababini bildiruvchi ergash
 gaplar bosh gapga qanday vositalar
 yordamida bog'lanadi?
 1) sabab bog'lovchilar; 2) ko'makchili
 qurilmalar; 3) deb so'zi; 4) yuklama.
 A) 1, 2 B) 1, 4
 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3
 58. Bosh gap tarkibida keluvchi
 bog'lovchi vositalarni toping.
 1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'-
 makchili qurilmalar; 3) deb so'zi; 4) -ki
 yuklamasi.
 A) 1, 2 B) 2, 4
 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4
 59. Bosh gapning oxirida bog'lovchi
 vositalarni toping.

1) ergashtiruvchi bog'lovchilar;
2) ko'makchili qurilmalar; 3) deb so'zi; 4) -ki yuklamasi.

- A) 1, 3 B) 2, 4
C) faqat 2 D) faqat 4

*60. Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan,
Piyolani shuning-chun inson
O'par doim peshonasidan.*

Ushbu parchada ergashgan qo'shma gap qismalarini bog'lagan vositani toping.

- A) ergashtiruvchi bog'lovchi
B) ko'makchili qurilma
C) yuklama
D) shart mayli shakli

61. Ergashgan qo'shma gap qismalarini bog'lovchi «deb» so'zini qaysi ko'makchi bilan erkin almashtirish mumkin?

- A) uchun ko'makchisi bilan
B) sababli ko'makchisi bilan
C) tufayli ko'makchisi bilan
D) bois ko'makchisi bilan

62. Qaysi bog'lovchi vositadan keyin vergul ishlatalidi?

1) -ki yuklamasi; 2) deb so'zi; 3) ko'makchili qurilmalar; 4) -u(-yu) yuklamasi.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2
C) 1, 2, 4 D) 1, 4

63. Qaysi bog'lovchi vositadan oldin vergul ishlatalidi?

1) sabab bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar; 3) deb so'zi; 4) -ki yuklamasi;

5) maqsad bog'lovchisi; 6) shart bog'lovchilar; 7) zidlov bog'lovchilar.

- A) 1, 2, 5, 7
B) 1, 2, 4, 5, 7
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
D) 1, 2, 4, 7

64. Ergash gapning oxirida keluvchi vositani toping.

- A) -ki yuklamasi
B) deb so'zi
C) nisbiy so'z tarkibidagi so'roq olmoshi
D) sabab bog'lovchilar

65. Shart mayli vositasida bog'lergash gapning payt ma'nosini bildirish qaysi qatorda aks etgan?

- A) Seni hurmat qilishlarini istash o'zingni hurmat qil.

B) Ichlari achimasa, menga o'sha gapni gapirmas edilar.

C) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

D) Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kira teshikdan.

66. *Kasalni yashirsang, isitnun oshkor qiladi.* Ushbu gapda qanday ma'no munosabati mavjud?

- A) shart B) to'siqsizlik
C) payt D) zidlik

67. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapni qaysi vosita yordamida bog'lanadi?

- A) -ki yuklamasi
B) -sa shart mayli
C) nisbiy so'zlar
D) nisbiy so'zlar va -ki yuklamasi

68. *Odam borki, odamlarning naqshidir, odam borki, hayvon undan yaxshidir.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
B) kesim ergash gap
C) aniqlovchi ergash gap
D) hol ergash gap

69. Qaysi bog'lovchi vosita bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi?

- A) -ki yuklamasi
B) -sa shart mayli
C) deb so'zi
D) nisbiy so'zlar

70. *Aybingiz shuki, juda ko'ngilchansiz.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
B) kesim ergash gap
C) aniqlovchi ergash gap

D) hol ergash gap

71. *Kim chaqqon va tez harakat ilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi.* Ushbu gapning qaysi turiga mansub?

A) ega ergash gap

B) kesim ergash gap

C) aniqlovchi ergash gap

D) hol ergash gap

72. *Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'sangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmog'ingiz darkor.* Ushbu gapning qaysi turiga mansub?

A) ega ergash gap

B) kesim ergash gap

C) aniqlovchi ergash gap

D) hol ergash gap

73. Qaysi ergash gapli qo'shma gap lirida ergash gaplar tarkibida «kim» so'roq olmoshi ishtiroy etadi? 1) ega ergash gap; 2) kesim ergash gap; 3) aniqlovchi ergash gap; 4) hol ergash gap; 5) to'ldiruvchi ergash gap.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5

C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 5

74. Nisbiy so'zlar yordamida bog'langan hol ergash gap qaysi qatorda?

A) Qalandarov yugurdagini «Eshon, hoy!» deb chaqirganda Saida qanchalik xursand bo'lgan bo'lsa, hujrani ko'rib shunchalik ta'bi tirriq bo'ldi.

B) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

C) Yovlar yakson bo'lsin deb, Yigitlar jang boshladi.

D) Ilmsiz – inson mevasiz daraxt, shuning uchun har doim ilmlilar safida bo'lishga intil.

75. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap qaysi qatorda keltirilgan?

A) Kim harakat qilsa, u baraka topadi.

B) Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, uning el o'tasidagi martabasi ulug' bo'ladi.

C) Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda yutuq bo'ladi.

D) Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi.

76. Qanday ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'la oladi?

A) tarkibida ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lgan gaplar

B) tarkibida -ki yuklamasi, «deb» so'zi mavjud bo'lgan gaplar

C) tarkibida ergashtiruvchi bog'lovchilar mavjud bo'lgan gaplar

D) tarkibida ko'makchili qurilma mavjud bo'lgan gaplar

77. Qaysi qatorda ergash gap bilan sodda gapning ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi – Ko'p o'qigan ko'p biladi.

B) Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga torligini biling.

C) Eshidimki, kecha kelibsiz – Kecha kelganiningizni eshidim.

D) Yaxshi odatingiz shuki, barvaqt turasiz – Barvaqt turish yaxshi odatingizdir.

78. Qaysi qatorda ergash gap bilan sodda gapning ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) Qachon so'rasangiz, darrov javob beradi – So'ragan narsangizga darrov javob beradi.

B) Kim testni bir daqiqada yechsa, 5 ball oladi – Testni bir daqiqada yechganlar 5 ball oladi.

C) Shunday ish qilingki, pushaymonlik keltirmasini – Pushaymonlik keltirmaydigan ish qiling.

D) Shuni sezdimki, oila a'zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan – Oila a'zolari bir-biri bilan ittifoq ekanligini sezdim.

79. Qaysi qatorda ergash gap bilan sodda gapning ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin – Men siz ishonch bildirgan kishini sherik qilib olishim mumkin.

B) Shunga xursandmizki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi – Bolalar o'z yo'lini topib ketishganiga xursandmiz.

C) Kim ko'p bilsa, u kamgap bo'ladi – Ko'p bilgan kamgap bo'ladi.

D) Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo'linglar – Hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo'lishingiz tilagimizdir.

80. *Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
- B) kesim ergash gap
- C) aniqlovchi ergash gap
- D) hol ergash gap

81. *G'uncha guldan ham go'zal-roq, chunki uning bag'rida ikki hayot // o'z hayoti va yana gul hayoti ham bor.* Ushbu gapda // belgisi o'rniqa qaysi tinish belgisi ishlatalidi?

- A) vergul
- B) ikki nuqta
- C) tire
- D) nuqtali vergul

82. Qaysi gaplarda esa, bo'lsa bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gap qismlarini zidlov bog'lovchilari vositasida bog'lash mumkin?

A) Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyoq qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi.

B) Ahmoqning yuragi og'zida, aqllining tili esa yuragida bo'ladi.

C) Sabming boshi achchiq, cxiri esa shirindir.

- D) B va C

83. *Bo'lsa, esa bog'lovchilarini qaysi bog'lovchilar bilan almashtirish mumkin?*

- A) biriktruv bog'lovchilar
- B) ayiruv bog'lovchilar

C) zidlov bog'lovchilar
D) hech bir bog'lovchi bilan almashtirish bo'lmaydi

84. Qaysi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar ma'nodosh?

1) *bo'lsa, esa so'zlari;* 2) *amma, lekin, biroq;* 3) *goh..., goh; dam..., dam;* yoki...; 4) *-u(-yu), -d-* yuklamalar.

- A) 2, 4
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 2, 4
- D) 1, 4

85. *Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayur.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
- B) kesim ergash gap
- C) to'ldiruvchi ergash gap
- D) aniqlovchi ergash gap
- 86. *Agar sen siringni saqlasang, u sening asiringdir // agar oshkor bo'lsa, sen siringning asiri bo'lasan.* Ushbu gapda // belgisi o'rniqa qaysi tinish belgisi ishlatalidi?

- A) vergul
- B) ikki nuqta
- C) tire
- D) nuqtali vergul

87. *Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) hol ergash gap
- B) kesim ergash gap
- C) to'ldiruvchi ergash gap
- D) aniqlovchi ergash gap

88. *Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) hol ergash gap
- B) kesim ergash gap
- C) to'ldiruvchi ergash gap
- D) aniqlovchi ergash gap

89. Ergashgan qo'shma gaplar qaysi vositalar orqali bog'langanda ergash gapning kesimi nomustaqlil kesimlik shakllari bo'ladi?

- 1) ergashtiruvchi bog'lovchilar;
2) ko'makchili qurilmalar; 3) yuklamalar;
4) nisbiy so'zlar; 5) deb so'zi.

- A) faqat 1 B) 1, 4
C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

90. Ergashgan qo'shma gaplar qaysi bog'lovchi vositalar orqali bog'lansa, ergash gapning kesimi buyruq-istik maylida bo'ladi?

- 1) deb so'zi; 2) nisbiy so'zlar;
3) maqsad bog'lovchisi; 4) shart bog'lovchilar; 5) sabab bog'lovchilar.

- A) faqat 1 B) 1, 2, 4
C) 1, 3 D) 1, 2, 3, 5

91. Ergashgan qo'shma gaplar qaysi bog'lovchi vositalar orqali bog'lansa, ergash gapning kesimi buyruq-istik maylida bo'ladi?

- 1) deb so'zi; 2) nisbiy so'zlar;
3) maqsad bog'lovchisi; 4) shart bog'lovchilar; 5) sabab bog'lovchilar.

- A) faqat 1 B) 1, 2, 4
C) 1, 3 D) 1, 2, 3, 4

92. Nisbiy so'z yordamida birikkan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A) Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi.

B) Unga kim yaxshi gapisra, o'sha yaxshi odam bo'lib ko'rindari.

C) Kim odamlarga yaxshilik qilsa, yaxshi inson deyishadi.

D) Kimning ko'ngli tog' bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.

93. Ergashgan qo'shma gaplarning qaysi turida shart mayli qo'shimchasi gaplarni bog'lovchi vosita sifatida ishtiroy etishi mumkin?

- 1) kesim ergash gapli qo'shma gap;
2) ega ergash gapli qo'shma gap;
3) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;
4) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap;
5) hol ergash gapli qo'shma gap.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5
C) 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5

94. Ergashgan qo'shma gaplarning qaysi turida ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanganadi?

- A) ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplarda

B) deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplarda

C) ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarda

D) nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda

95. Qaysi bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gap qismlarida ifodalangan voqe-hodisalarining faqat bittasi yuzaga chiqishi ta'kidlanishi mumkin?

- A) zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

B) ayiruv bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

C) bo'lsa, esa so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

D) ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplarda

96. Mabodo bog'lovchisi yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap qanday ma'nio ifodalaydi?

- A) sabab

- B) shart

- C) maqsad

- D) qiyoslash-chog'ishtiruv

97. Bog'langan qo'shma gapning sabab-natiya munosabatlarda bo'lgan qismalarini qaysi bog'lovchilar bog'lab keladi?

- A) biriktiruv bog'lovchilar

- B) zidlov bog'lovchilar

- C) ayiruv bog'lovchilar
 D) ergashtiruvchi bog'lovchilar
 98. Bog'langan qo'shma gapning payt munosabatida bo'lgan qismlarini qaysi bog'lovchilar bog'lab keladi?
 A) biriktiruv bog'lovchilar
 B) zidlov bog'lovchilar
 C) ayiruv bog'lovchilar
 D) ergashtiruvchi bog'lovchilar
99. *Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondag'i bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi.* Mazkur qo'shma gap qismlari orasida qanday munosabat ifodalangan?
 A) sabab-natiya munosabati
 B) payt munosabati
 C) zidlik munosabati
 D) qiyoslash munosabati
100. Bog'lovchi vositalardan qaysi biri qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular orasida qiyoslash munosabati mavjudligini ifodalaydi?
 A) bo'lsa, esa so'zlar
 B) nisbiy so'zlar
 C) biriktiruv bog'lovchilar
 D) ayiruv bog'lovchilar
101. *Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatlarini sira qo'idan boy berma.* Ushbu qo'shma gap qismlari o'zaro qaysi bog'lovchi vositasida bog'langan?
 A) ergashtiruvchi bog'lovchi
 B) nisbiy so'zlar
 C) ko'makchili qurilma
 D) ohang
102. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gap(lar)da ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi?
 1) sabab ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
- 2) maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
 3) shart ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
 4) qiyoslash-chog'ishtiruv ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda.
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2
 C) 3, 4 D) 3
- *103. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgaplarda qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi?
 A) chunki, negaki
 B) toki
 C) go'yoki, xuddi
 D) basharti, mabodo
104. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgaplarda qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi?
 1) sabab ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
 2) maqsad ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
 3) shart ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda;
 4) qiyoslash-chog'ishtiruv ergashtiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langanda.
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
 C) 2, 3 D) 3, 4
105. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi?
 A) toki B) agarda
 C) basharti D) mabodo
106. Qismlari bog'lovchi vazifasidagi bo'lsa so'zi yordamida bog'langan qo'shma gapni aniqlang.
 A) Ilm bir daraxt bo'lsa, odob uning mevasidir.
 B) Kitob bir bog' bo'lsa, yozuvlar uning gullaridir.

- 6) Aqil oskirmas kiyim, bilim bo'lsa
buлоqdir.
- (b) Burcha javoblar to'g'ri
107. 1. Aql qancha oz bo'lsa,
parastlik shuncha kuchayadi.
2. Kimda aql oz bo'lsa, undagi
parastlik shunchalik kuchayadi.
3. Kimda aql oz bo'lsa, unda
parastlik shuncha kuchayadi.
4. Berilgan gaplar ergashgan qo'shma
qaynidan qaysi turga mansub?
A) 1, 2, 3 – miqdor-daraja ergash gapli
qo'shma gaplar
B) 1 – miqdor-daraja, 2, 3 – to'ldiruvchi
gapli qo'shma gaplar
C) 1 – miqdor-daraja, 2 – aniqlovchi,
3 – to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
D) 1, 2 – miqdor-daraja, 3 – to'ldiruvchi
ergash gapli qo'shma gap
108. Polvonlar epchillikkida bir
biridan o'tadi, kurashda goh unisi,
goh bunisi yutadi. Ushbu gapdag'i
ayiruv bog'lovchisi nimaga xizmat qilgan?
A) qo'shma gap qismlarini bog'lash
uchun
B) uyushgan bo'laklarni bog'lash uchun
C) qo'shma gap qismlari va uyushiq
bo'laklarni bog'lash uchun
D) o'zaro tobe bo'laklami bog'lash
uchun
109. Nisbiy so'zlar ishtirokida qanday
qo'shma gaplar hosil bo'ladi?
1) bog'langan qo'shma gaplar;
2) ergashgan qo'shma gaplar;
3) bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
A) 1, 3 B) 2
C) 3 D) 1, 2
110. Quyidagi vositalardan qaysi biri
ergash gapni bosh gapga bog'lovchi
vosita hisoblanmaydi?
A) ergashtiruvchi bog'lovchilar
B) nisbiy so'zlar
C) yuklamalar
D) teng bog'lovchilar
111. Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish
olmoshi ma'nosini izohlash uchun
qo'llangan ergash gaplar bosh gapga
qanday vosita yordamida bog'lanadi?
A) -ki yuklamasi
B) shart mayli qo'shimchasi
C) teng bog'lovchilar
D) ko'makchili qurilma
112. Sevgi shunday navbahorki,
u tikondan gul qilur.
Bosh gap tarkibidagi aniqlovchi qaysi
bo'lakka tobelangan?
A) egaga
B) fe'l-kesimga
C) ot-kesimga
D) to'ldiruvchiga
113. Qaysi qatorda uyushiq bo'lakli
gap va qo'shma gap juftligi berilgan?
A) Tig' yarasi tuzaladi, lekin til yarasi
tuzalmaydi. Hamma chuqur xo'rsindi,
Anorxon piq-piq yig'ladi.
B) Pulemyot, miltiqlarning ovoziga
xotin-xalaj, bola chaqalarning yig'isi, dod-
voyi qo'shilib ketdi. Turg'unoy birinchi
tovushni eshitganda seskandi, so'nggilar
esa uni vahimaga soldi.
C) Bu yerning ob-havosi, iqlimi va
sharoiti yaxshi edi. Biz harbiy uchuvchi va
Vatan posbonlari bo'lamiz.
D) Bog'chada yosh-yosh qizchalar va
o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda.
Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar
edi.
114. Qo'shma gap berilgan qatomi toping.
A) Bahrom kanizagiga ko'z tashlaydi,
ammo uning hayratlanmaganligi Bahromni
darg'azab etadi.
B) Bir kuni sarkarda ovdan qaytayotib
Bahromni o'z oromgohiga taklif qiladi.
C) Haqiqatan, bu kelajakka dadil
intilayotgan qalbning o'z hayotidan
mannunligi, xolos.
D) Har bir inson fikr yuritish qobiliyatiga
ega.

115. Qaysi gapda ham bog'lovchisi uyushiq kesimlarni bog'lagan?

- A) Qalam ham daftар bo'lсin yo'ldoshing.
- B) Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilмparvar emishlar.
- C) Haftalar o'tdi ham tugadi savdo.
- D) Ishim to'g'rlanib ketdi ham yerim o'zimga qoldi.

116. *Hosilimiz mo'l bo'lsa, uyimiz donga to'lsa, turmush bo'lar farovon.* Berilgan gapdagi birinchi va ikkinchi gaplar qanday gaplar hisoblanadi?

- A) aniqlovchi ergash gap
- B) to'ldiruvchi ergash gap
- C) hol ergash gap
- D) bosh gap

117. *Shu payt boshimiz ustida chaqmoq yarq etdi va momaqaldoiroq gumburladi.* Ushbu qo'shma gap qismilari qanday munosabatni ifodalayapti?

- A) payt munosabatini
- B) sabab-natiya munosabatini
- C) zidlik munosabatini
- D) birinchi gap mazmuni ikkinchi gap orqali izohlanmoqda

118. Ergash gapning qaysi turi bosh gapga ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi?

- A) to'ldiruvchi ergash gap
- B) sabab ergash gap
- C) maqsad ergash gap
- D) miqdor-daraja ergash gap

119. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

1. Ba'zan qurbaqalaming qurillashi quloqqa chalinib, kishiga rohat beradi.
2. Kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.
3. Dasturxon ustida dam o'zbek kuylari, dam hind qo'shiqlari ijro qilinardi.
4. Mahsulot aynigan yoki agrotexnika qoidalari buzilgan.

- A) 3 va 4
- B) faqat 4
- C) 1 va 3
- D) 1, 2, 3, 4

120. *Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkazub olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan.* Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) bog'langan qo'shma gap
- B) ergashgan qo'shma gap
- C) bog'lovchisiz qo'shma gap
- D) murakkab qo'shma gap

121. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?

- A) Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.
- B) G'ayratining yuragi qaynar, G'ayratsizning yuragi o'ynar.

C) So'zning yumshogi g'azabni so'ndiradi, So'zning qattig'i odamni o'ldiradi.

D) Berilgan barcha gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanadi.

122. Ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalaming qaysilari bosh gap tarkibida bo'ladi?

- 1) chunki; 2) shuning uchun; 3) go'yo;
- 4) negaki; 5) -ki; 6) toki.

- A) 1, 2
- B) 4, 5, 6
- C) 3, 5, 6
- D) 2, 5

123. Ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladigan quyidagi vositalaming qaysilari bosh gap boshida keladi?

- A) chunki, negaki
- B) shuning uchun, shu bois
- C) go'yo, bamisol
- D) -ki, toki

124. Quyidagi vositalaming qaysi biri bilan bog'langanda qo'shma gap «ergash gap + bosh gap» shaklida bo'ladi?

- 1) chunki; 2) shuning uchun; 3) negaki;
- 4) deb; 5) mabodo; 6) -ki.

- A) 2, 4, 5
- B) 1, 2, 3
- C) 4, 5, 6
- D) 4, 6

125. Quyidagi vositalarning qaysi biri bilan bog'langanda qo'shma gap «bosh gap + ergash gap» shaklida bo'ladi?

- 1) maqsad bog'lovchilar; 2) sabab bog'lovchilar; 3) ko'makchili qurilmalar; 4) deb yordamchi so'zi; 5) nisbiy so'zlar; 6) -ki yuklamasi.

- A) 1, 2, 6 B) 3, 4, 5
C) faqat 6 D) 1, 2, 3, 4

126. Ergashtiruvchi bog'lovchilari ergashgan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

1. Vijdronni asrangiz har neçan ortiq, Bobolardan qolgan noyob bu tortiq Toki avlodlarga yetolsin emon.

2. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.

3. Mabodo boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir.

4. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib bir kitob yozmoq darkor.

- A) 1, 2 B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

127. Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gap qaysi javobda berilgan?

A) Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.

B) Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni quvadi.

C) Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.

D) Ishonchim komilki, qasd qilganlar, albatta, past bo'ladi.

128. Qaysi vositalar bilan bog'langanda ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadi yoki sababini bildiradi?

A) shuning uchun, shu sababli ko'makchili qurilmalari yordamida

B) chunki, negaki sabab bog'lovchilar yordamida

C) deb bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida

D) toki maqsad bog'lovchisi yordamida

129. Qaysi vosita bilan bog'langanda ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'sratish olmoshi ma'nosini izohlab keladi?

A) -sa shart mayli qo'shimchasi yordamida

B) -ki yuklamasi yordamida

C) deb bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida

D) shu bois ko'makchili qurilma yordamida

130. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib babra olasan.

B) Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.

C) Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, uning el o'rtasidagi martabasi ulug' bo'ladi.

D) Berilgan gaplarning barchasi nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap sanaladi.

131. Ega ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

1. Kim ko'p o'qisa, dunyoqarashi keng bo'ladi.

2. Kim alam chekmaydi umrida bir bor, U meni anglamas, anglamas aslo.

3. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.

4. Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan.

A) faqat 2 B) 2, 4

C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

132. O'rın ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

1. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo'ldan yuradi.

2. Qayerda ish to'g'ri yo'ilga qo'yilgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi.

3. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi.

4. Ahillik bor yerda temir suvgan cho'kmaydi.

- A) 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

133. Kesim ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

1. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganing qanshariga must shushti.

2. Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati gaphishida emas, balki eshitishdadir.

3. Qiziq'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi.

4. Umidim uldurkim, so'zim martabasi avjdan quyi inmagay.

- A) 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

134. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

1. Saxylikni odad qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin uning.

2. Bu suvni ichgandan so'ng kim yolg'on gapirsa, oqulog'i o'sib ketarmish.

3. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.

4. Vaziyat shundayki, hamma og'irlik bizga tushgan.

- A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 4
C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

135. -sa shart mayli qo'shimchasi yordamida bosh gapga bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. O'simlikni qancha parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan.

2. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda boradi.

3. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding.

- A) 1 va 2 B) 3 va 4
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 3, 4

136. Saxylikni odad qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin

uning. Ushbu qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qilayotgan vositalini ko'rsating.

A) bog'lovchi vazifasidagi bo'lsa so'z yordamida

B) nisbiy so'zlar yordamida
C) -sa shart mayli qo'shimchasi yordamida

D) grammatic vositalarsiz, ohang yordamida

137. Qiyo slash-zid lash munosabatlari bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Yigitning so'zi singuncha, ho'kizning shoxi sinsin.

B) Yaxshilik qilmoqlik ulug' fazilatdir, buning qadriga yetmaslik esa illatdir.

C) Kasalning kelishi oson, lekin ketishi ancha qiyindir.

D) Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog' qolar.

138. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Aql – eskirmas kiyim, bilim bo'lsa tunganmas buloqdir.

B) Manzuraning yuziga dam issiq, dam oqshom shabadasi uriladi.

C) Dugonalar ish bilan band bo'lishdi, suhabat negadir qovushmadni.

D) Vali yana ertasiga saharlab uyg'onganda, G'ulomjon hujrasida yo'q edi.

139. Qaysi qatordagi ergashgan qo'shma gap tarkibida bosh gap ergash gapdan oldin qo'llangan?

A) Kamtar bo'l, chunki kamtarlik insонни kamolotga boshlaydi.

B) Men bilgan yovuz kishilar u yerda bor, shuning uchun men bormayman.

C) Olim bo'lsang, olam seniki.

D) Qo'rroq keta turib maqtansa, jasur qaytib kelib maqtanadi.

140. Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ulurga hurmat bilan qarash lozim.

B) Shamol qay tarafga essa, maysalar him o'sha tomonga egiladi.

C) Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.

D) Kimda aql oz bo'lsa; undagi huhratparastlik shunchalar kuchayar.

141. Maqsad bog'lovchisi qo'llangan ergashgan qo'shma gapni toping.

A) Odamlar yaxshi yashasin deb, mahallamizni obod qildik.

B) Ona yerimizni asrang, toki bu meros avlodlarga sog'-omon yeta olsin.

C) Hosil mo'l bo'lishi uchun bahordan ter to'kdik.

D) Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman.

142. Ergash gap bosh gapga deb so'zi yordamida birikkanda qanday qo'shma gap hosil bo'ladi?

A) maqsad ergash gapli qo'shma gap

B) sabab ergash gapli qo'shma gap

C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

D) barcha javoblar to'g'ri

143. Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A) Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.

B) Kim harakat qilsa, u baraka topadi.

C) Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi.

D) Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shunchalik e'zozlaydi.

144. Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) Shuni bilingki, kengga keng dunyo, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga torligini bilib oling.

B) Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson egib oladi – Mustaqil

fikrlamagan odamning egilishi oson bo'ladi.

C) Saxylikni odat qilgan bo'lsa, qo'lidan davlati ketmasin uning – Saxylikni odat qilgan odamning qo'lidan davlati ketmasin.

D) Shunday oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi – Tarbiyaga e'tibor bermaydigan oilalar bor.

145. *Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi.*
Ushbu gap ...

A) kesim ergash gapli qo'shma gap

B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

C) ega ergash gapli qo'shma gap

D) kiritma gapli sodda gap

146. Nisbiy so'z yordamida birikkan ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Shunisi qiziqliki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.

B) Kimki ilm urug'inii sepsa, u ulug'lik mevasini teradi.

C) Bu savollardan ma'lum bo'ldiki, aybynom uydurma emas.

D) Eng yaxshi yo'l shuki, yaxshi do'st yor-diyordan ayrilikni ixtiyor etmaydi.

147. *Kim nisbiy so'zi qaysi ergashgan qo'shma gap tarkibida qo'llanishi mumkin?*

A) ega ergash gapli qo'shma gap

B) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

D) barcha javoblar to'g'ri

148. *Qismlari o'tasida qiyoslash va zidlash munosabati bo'lgan qo'shma gap qaysi javobda keltirilgan?*

A) Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanboy qo'yaman, agar o'g'il bo'lsang, Kimsanboy qo'yaman.

B) Aqil ko'pga yetkazadi, hunar bo'lsa insonni ko'kkva ko'taradi.

C) To'g'ri so'z tosh yoradi, egrisi so'z bosh yoradi.

- D) Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.
149. Qismlari o'ttasida zidlash munosabati bo'limgan qo'shma gap qaysi javobda berilgan?
- A) Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog' qoladi.
- B) Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak.
- C) Jahl – dushman, aql esa do'stdir.
- D) Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik bo'lsa insonni saodatga boshlaydi.
150. *Odam borki, odamlarning naqshidir.* (A.Navoiy)
- Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
- B) shart ergash gapli qo'shma gap
- C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
- D) o'xshatish ergash gapli qo'shma gap
151. Bog'langan qo'shma gapning payt, sabab-natiya munosabati ifodalangan qismlarini qaysi bog'lovchilar bog'lab keladi?
- A) biriktiruv bog'lovchilar
- B) zidlov bog'lovchilar
- C) ayiruv bog'lovchilar
- D) inkor bog'lovchilar
152. Bosh gapda ifodalangan mazmunning qaysi belgisini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi?
- A) maqsadini B) shartini
- C) natijasini D) sababini
153. Qaysi gapda ergash gap bosh gapdan oldin kelgan?
- A) Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon kishining gapi ko'p bo'ladi.
- B) Saxylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin uning.
- C) Bobolardan qolgan noyob bu tortiq Toki avlodlarga yetolsin omon.
- D) Kitob mening do'stim, chunki u – bilim manbai.
154. Qaysi ergashgan qo'shma gapdag'i bosh gap ergash gapga ergashtiruvchi bog'lovchi bilan bog'lanmagan?
- A) Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porflaydi.
- B) Bu masalani sinfdagi keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.
- C) Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nilar berar.
- D) Ikkovi ham men bilan qadrdonlardek so'rashdi, shuning uchun darrov suhbatiimizga jon kirdi.
155. Teng bog'lovchi qaysi gapda qo'shma gaplarni bog'lamagan?
- A) Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi.
- B) U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadni, balki yolg'on gapirish odobi bolaning ishi emasligini aytidi.
- C) Oy goh eshik tirkishidan mo'ralar, goh bulutlar orasida g'oyib bo'lardi.
- D) U chiroqni o'chirib sandal chetiga yotди-ю, ko'nglidagi g'ulg'ula kuchayib ketaverdi.
156. Qoshma gaplarning qaysi turida shart mayli qo'shimchasi bog'lovchi vosita sifatida ishtirok etmaydi?
- 1) ergashgan qo'shma gap;
 - 2) bog'langan qo'shma gap;
 - 3) aralash murakkab qo'shma gap;
 - 4) bog'lovchisiz qo'shma gap.
- A) 1, 2 B) 1, 3, 4
 - C) 1, 3 D) 2, 4
157. Qaysi javobda nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gap bor?
- A) Mana, bahor nishonasi, hidla, sog'ingansan.
- B) Yo siz keling, yo men boray.
- C) Kimki ajoddolar yaratgan boyliklarni bilmasa, demak, u nafosatdan yiroq yashagan.
- D) Binafsha qo'ldan qo'lga o'tdi.
158. Ergashgan qo'shma gaplarda hokim gap boshida keladigan vositani toping.

- A) mabodo B) agar
C) shu sababli D) negaki

159. Ergashgan qo'shma gapda ergash gap bosh gapga nisbatan o'rmini almashtirgan qatorni toping.

A) Yovlar yakson bo'lsin deb, yigitlar jang boshladi.

B) Kamalakdek rango-rang bo'lsin deb san'at, tillar, asrlarcha qildim jang.

C) Shu mo'jaz uyingda yonsin deb chiroq, ne aziz zotlarga yondashdim gohi.

D) Sen otash ichida urasan javlon, dushman qolmasin deb sevgan elingda.

160. Qaysi qatorda berilgan ergashgan qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi noto'g'ri berilgan?

A) Kimki mustaqil fikr yuritmasa, uni boshqalar oson yengib oladi – Mustaqil fikrlamagan odamning egilishi oson bo'ladi.

B) Shuni bilingki, kengga keng dunyo, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga torligini bilib oling.

C) Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, qo'lidan davlati ketmasin uning – Saxiylikni odat qilgan odamning qo'lidan davlati ketmasin.

D) Shunday oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi – Tarbiyaga e'tibor bermaydigan oilalar bor.

161. Qaysi qatorda ega ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A) Hayot qaysi biriga qattiq tegib ketsa, o'shanisi kuchliroq tovush beradi.

B) Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi.

C) Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi.

D) Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini biladi va uni vijdonan bajaradi.

162. Qaysi vosita orqali birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning kesimi buyruq-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalananadi?

- A) deb so'zi
B) bo'lsa, esa so'zлari
C) -sa shart mayli
D) nisbiy so'zlar

163. Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.

A) shu, o'sha, shuncha, shunday kabi olmoshlar bosh gap tarkibida bo'ladi

B) nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'lada oladi

C) kim, nima, gancha, ganday kabi so'roq olmoshlari ergash gap tarkibida bo'ladi

D) nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdan keyin keladi

164. Hokim gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

- A) agar B) deb
C) shuning uchun D) -ki

165. Bog'langan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) G'ayratlining yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar.

B) So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i odamni o'ldiradi.

C) Aql eskirmas kiyim, bilim tunganmas buloqdir.

D) Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.

166. Ergash gapli qo'shma gaplarning qaysi turida ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin kelishi mumkin?

- 1) kesim ergash gap;
2) ega ergash gap;

3) to'ldiruvchi ergash gap;

4) aniqlovchi ergash gap.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 2

- C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

167. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap boshida keluvchi bog'lovchilarni toping.

- A) chunki, agar
 B) shuning uchun, shu tufayli
 C) deb, -ki
 D) shu sababli, toki
168. *Balki so'zi o'zaro gaplarni bog'lasa, qanday gap hosil bo'ladi?*
 A) ergashgan qo'shma gap
 B) bog'lovchisiz qo'shma gap
 C) bog'langan qo'shma gap
 D) bir necha bosh gapli qo'shma gap
169. *Qaysi qatordagi gapda sababnatija munosabati mavjud?*
 A) Dalasida o'smas tikonlar, cho'llarida chopmas ilonlar.
 B) Ko'prikniz biz qurdik, dushmanlar o'tdi.
 C) Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltilar.
 D) Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi.
170. *Jahonda hammadan to'g'rilik a'llo, Egrilikdan ortiq yo'qdir hech balo.* Ushbu qo'shma gap tarkibidagi kesimlarni toping.
 A) a'llo, hech balo
 B) to'g'rilik, yo'qdir
 C) a'llo, yo'qdir
 D) a'llo, ortiq
171. 1. *Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsang faqat dam olaylik deysan.*
 2. *U kim bo'lsa bo'lsin, men esa arxitektor bo'laman.*
- Berilgan gaplar uchun umumiy bo'lgan belgilarni aniqlang.
- 1) zidlik munosabati mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gap;
 - 2) zidlik munosabati mavjud bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap;
 - 3) zidlik munosabati mavjud bo'lgan ergashgan qo'shma gap;
 - 4) ohang yordamida bog'langan;
- 5) -sa shart mayli qo'shimchasi yordamida bog'langan.
 A) 1 B) 2, 4
 C) 3, 5 D) 3
172. *To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.
- 1) hol ergash gapli qo'shma gap;
 - 2) ko'makchili qurilma vositasida bog'langan;
 - 3) ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan;
 - 4) sodda gap kesimlari yasama so'zlar bilan ifodalangan;
 - 5) bosh gap kesimi ot-kesim, ergash gap kesimi fe'l-kesimdan iborat;
 - 6) ergash gap + bosh gap qolipida tuzilgan.
- A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6
 C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 2, 4, 5
173. 1. *Hunar ado bo'limas boylikdir, shu sababli yoshlik chog'ingdan boshlab biron-bir hunarni o'rganish payida bo'l.*
 2. *To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.*
- Berilgan gaplar uchun umumiy bo'lgan belgilarni ko'rsating.
- 1) hol ergash gapli qo'shma gap;
 - 2) ko'makchili qurilma vositasida bog'langan;
 - 3) ergash gap kesimi ot-kesimdan iborat;
 - 4) ergash gap kesimi yasama so'zdan iborat;
 - 5) bosh gap + ergash gap qolipidan tuzilgan;
 - 6) ergash gap bosh gapdan oldin kelgan.
- A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6
 C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 2, 4, 5

174. Qismlari faqat bosh bo'laklardan iborat bo'lgan hol ergash gaplarni aniqlang.

1. *Jahl – dushman, aql esa do'stdir.*

2. *Ot xo'rsinsa, falokat yuz beradi.*

3. *Fikr tiniq bo'lsa, nutq ravon va chiroyli bo'ladi.*

4. *E'tiqod susaysa, imon ham unutilgai.*

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 2, 3, 4 D) 2, 4

175. *Til tinch bo'lsa, bosh salomat bo'ladi.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukm(lar)ni toping.

- 1) hol ergash gapli qo'shma gap;
2) qismlari faqat bosh bo'laklardan tuzilgan;
3) qismlari ega + hol + kesim bo'laklaridan iborat;
4) qismlari ega + aniqlovchi + kesim bo'laklaridan iborat.

- A) 1, 3 B) 1, 4
C) 1 D) 1, 2

176. *Kim yaxshilikni o'ylasa, u baxt topadi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
B) ega ergash gapli qo'shma gap
C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

177. Quyidagi berilganlardan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplami aniqlang.

1. Saxylikni odad qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan ketmasin davlati uning.

2. Bu suvni ichgandan so'ng kim yolg'on gapisra, qulog'i o'sib ketarmish.

3. Haqiqat shunday jonki, pardoz uning husnini buzadi.

4. Vaziyat shundayki, hamma og'irlik bizga tushgan.

- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3, 4

178. Ergashgan qo'shma gaplarda hokim gap tarkibida keladigan bog'lovchi vositani toping.

- A) negaki B) deb
C) -ki D) toki

179. Balki so'zi o'zaro gaplarni bog'lasa, qanday gap hosil bo'ladi?

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
B) bog'langan qo'shma gap
C) ergashgan qo'shma gap
D) bir necha bosh gapli qo'shma gap

180. Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas balki es-hushi va hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. Gapda qaysi so'zlardan so'ng vergul qo'yilishi kerak?

- A) do'stlar, emas
B) do'stlar, emas, balki
C) do'stlar, emas, bo'lmagan
D) aziz, do'stlar, balki

181. Qaysi qatorda ega ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A) Shoirning tovushi shunday qahrli ediki, navkarlar qo'rqqanidan duduqlanib qoldilar.

B) U qarshilik ko'rsatgan edi, Xolidni ko'makka chaqirdim.

C) Foydasi shuki, odamlar adolat borligiga ishonishadi.

D) Shunisi ayonki, kitobsiz inson hayoti bo'm-bo'sh.

182. Hol ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar.

B) Men senga shunday narsalar keltirayki, sen ularni tushingda ham ko'magansan.

C) Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin.

D) Barchasi aniqlovchi ergash gap hisoblanadi.

183. Ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

127. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati bo'lganda ular orasida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) tire
C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

128. Qo'shma gap qismlari mazmunan unchailik yaqin bo'lмаган voqealarni bildirsa, ular orasida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) tire
C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

129. *G'animlar duch kelar // jang bo'l'lar puxta.* Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) tire
C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

130. Qaysi qatordagi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ikki nuqta qo'yiladi?

A) Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi // yiqtidi kishini

B) To't mashina o'g'it yubordik // fermerlarga vaqtida taqsimlansin

C) Yuragida qanday dard bor // mana bu menga sir

D) Mening bir jaydari falsafamdir shu // hargiz iltimosga kuning qolmasin

130. Tinish belgilari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nuqta, tire, uch nuqta, qavs
B) so'roq belgisi, undov belgisi, nuqta,

tutuq belgisi
C) nuqta, vergul, qavs, qo'shtirnoq
D) nuqta, ikki nuqta, uch nuqta,

chiziqcha

131. *Qiz avval qo'rqli uning Sidiqjon bilan so'zlashib turganini emas bog'ga tushganini bilsa ham terisiga somon tiqadi bu xususida otasining qamchisidan qon tomar edi keyin yangi olamga kirib otasining qamchisini ham jingul*

ostida pisib yotgan kurk tovuqni ham unutdi Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) vergul, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta

B) vergul, vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, vergul, nuqta

C) vergul, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, vergul, nuqta

D) vergul, vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, nuqta

132. *Birov sening aybingni yuzingga aytsa so'zini qaytarma chunki u sening uchun ko'zgudir ko'zgu xira bo'lib qolsa boshqa aybingni ko'rsatadimi* Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so'roq belgisi

B) vergul, vergul, tire, nuqtali vergul, vergul, so'roq va undov belgilari

C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so'roq belgisi

D) vergul, vergul, nuqtali vergul, tire, so'roq belgisi

133. *She'r shuning uchun muqaddaksi uning bir vazni ilohiy bir vazni insoniydir uning bir satri osmoniy bir satri zaminiydir.* (A.Oripov) Gapda qo'llash lozim bo'lgan vergullar miqdori nechta?

- A) 2 ta B) 3 ta
C) 4 ta D) 1 ta

134. *Yaxshi xislatlari bor oppoq soqoli bilan farzandlarini ham neveralarini ham qo'shni ko'chadagi begona bolalarni ham xullas barchani sizlab gapirardi* Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, ikki nuqta, tire, nuqta
 B) tire, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta
 C) ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, vergul, vergul, vergul, nuqta
 D) ikki nuqta, vergul, vergul, vergul, tire, vergul, nuqta

135. Quyidagi hukmlarning qaysi biri to'g'ri?

- A) Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi, muallif qaysi ichida yoziladi
 B) Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi

C) Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallif qaysi ichida yozilmaydi

D) Insho uchun yozilgan epigraf matnidan so'ng nuqta, so'roq yoki undov belgilardan biri qo'yiladi, muallifi qaysi ichida yozilib, qavsdan keyin nuqta qo'yiladi

136. Yosh do'stim o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon ulug' otadek bog'bon mehnatkash ularni hurmat qil Berilgan gapda qo'yilishi kerak bo'lgan tinish belgilari va ularning tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) vergul, vergul, tire, ikki nuqta, vergul, ikki nuqta, undov belgisi
 B) vergul, vergul, tire, vergul, tire, undov belgisi

C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi
 D) vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, ikki nuqta, undov belgisi

137. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqanining go'shti ekanligini aytgani uchun

ta'qibga uchragan emish. Berilgan gapdag'i vergullarning qo'yilishini quyidagi qaysi qoidalar bilan izohlash mumkin?

- A) uyushiq bo'laklar ohang orqali bog'lansa, ular orasiga vergul qo'yiladi

B) aniqlov bog'lovchisidan oldin doimo vergul qo'yiladi; uyushiq bo'laklar sanash ohangi orqali bog'langanda ular orasiga vergul qo'yiladi

C) ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan vergul bilan ajratiladi; zidlash munosabati ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasiga vergul qo'yiladi

D) ya'ni bog'lovchisi aniqlov bog'lovchisi sanaladi; inson va qurbaqa so'zlarini uyushiq bo'lak hisoblanadi

138. Qaysi ergashgan qo'shma gapdag'i bosh va ergash gap tarkibida ega qo'llangan?

A) Odamning shunday do'stlari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe'liga qarab gaplashishga to'g'ri keladi

B) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlama, aybni o'zingizdan qidiring

C) Har kishi el uchun topsa agar ranj, Oqibat tuyassar bo'lar unga ganj

D) Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik kerak, o'tinni ozgina o't kuydiradi

139. Lekin me'morning avvalo ra'iyat qolaversa sultanat oldidagi mavqeyi Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. (Mirmuhsin) Berilgan gapda qo'yildigan vergullar nima bilan bog'liq?

- A) modal so'z, kiritma

B) kiritma, uyushiq bo'lak

C) kiritma, ajratilgan bo'lak

D) kiritma, qo'shma gap

140. Lekin me'morning avvalo ra'iyat qolaversa sultanat oldidagi mavqeyi Xuroson-u

Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. (Mirmuhsin) Berilgan gapda nechta vergul qo'yilishi kerak?

- A) 4 ta B) 6 ta
 C) 5 ta D) 3 ta

141. Quyida berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Yuragida qanday dard bor mana bu menga sir.

2. Mening bir jaydari falsafam shu hargiz iltimosga kuning qolmasin.

3. To'rt mashina o'g'it yubordik fermerlarga vaqtida to'g'ri taqsimlansin.

- A) ikki nuqta, tire, ikki nuqta
 B) vergul, ikki nuqta, tire
 C) tire, ikki nuqta, vergul
 D) tire, ikki nuqta, tire

142. *Yo'q faqat meni bilishmaydi lekin boshqalarni jumladan seni ham yaxshi bilishadi.* Gapda qaysi so'zlardan keyin vergul qo'yilishi kerak?

A) yo'q, bilishmaydi, lekin, ham
 B) yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan
 C) yo'q, bilishmaydi, boshqalarni, jumladan, ham

D) yo'q, meni, bilishmaydi, jumladan

143. Quyidagi gaplarning qaysisiniida tinish belgilari to'g'ri qo'yilmagan?

- A) Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!
 B) O'n yill! O'n yildan beri kasal ekanmi?

C) Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi

D) Assalomu alaykum, hormang, ota!

144. Qaysi bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?

- A) biroq, chunki, agar, gar, toki, goh... goh
 B) lekin, ya'ni, balki, chunki, negaki, takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari
 C) ammo, lekin, agar, gar, takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari

D) ammo, lekin, biroq, agar, gar, toki, basharti

145. Qaysi gapda tinish belgilari bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

- A) - Yoz, - deydi, - azizam, ma, qalam, daftar!

B) Balki, kutar meni bir qiz, ko'z yoshlari oqizoq

C) Mevani gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish san'atdir

D) Ishqilib, ilmli yo hunarli bo'lish payida bo'linglar

146. Qaysi so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan keyin yozuvda vergul qo'yiladi?

- A) maqsad bog'lovchisi, modal so'zlar, yuklamalar

B) sabab bog'lovchisi, undov so'zlar, modal so'zlar

C) undov so'zlar, modal so'zlar, yuklama bog'lovchilar

D) undov so'zlar, modal so'zlar

147. Qaysi bog'lovchilardan oldin yozuvda vergul qo'yiladi?

- A) biriktiruv bog'lovchilar, inkor bog'lovchisi, sabab bog'lovchilar

B) sabab bog'lovchilar, takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilar, aniqlov bog'lovchisi

C) sabab bog'lovchilar, biriktiruv bog'lovchilar, shart bog'lovchilar, inkor bog'lovchisi

D) biriktiruv bog'lovchilaridan tashqari hamma bog'lovchilar

148. *Yuragida qanday dard bor // mana bu menga sir.* Ushbu gapda «//» belgisi o'miga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) tire
 C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

149. *Kampirning jig'ibiyroni chiqli // ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib // vaysaganicha // uyiga*

144. *kotdi*. Ushbu gapda // belgisi ming'i qanday tinish belgilari qo'yiladi?

A) ikki nuqta, tire, vergul

B) tire, vergul, vergul

C) ikki nuqta, vergul, vergul

D) nuqtali vergul, vergul, vergul

150. *O'zbekiston Respublikasi*ning davlat ramzları // davlat bayrog'i, davlat gerbi va davlat madhiyasi milliyiftixorimiz, sharaftoshonimiz sanaladi. Ushbu gapda // belgisi o'rniда qanday tinish belgisi ishlatalishi kerak?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

151. *Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham Yomonni yuxshi dema, yaqining bo'lsa ham.*

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

152. *Ish kuchini yelga bermaga yerga ber jamg'armani selga bermaga elga ber*. Ushbu gapda qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari nomi va tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) vergul, vergul, undov

B) vergul, vergul, vergul, undov

C) tire, vergul, tire, undov

D) vergul, nuqtali vergul, vergul, undov

153. *Birov sening aybingni yuzingga aytsa so'zini qaytarma chunki u sening uchun ko'zgudir ko'zgu xira bo'lib qolsa boshqa aybingni ko'rsatadimi*. Ushbu gapda ishlatalishi zarur bo'lgan tinish belgilarinining nomi va tartibi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) vergul, vergul, vergul, vergul, so'roq belgisi

B) vergul, nuqtali vergul, vergul, vergul, so'roq belgisi

C) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul, so'roq belgisi

D) vergul, vergul, ikki nuqta, vergul, so'roq belgisi

154. Berilgan gapda qaysi o'rinnlarda vergul qo'yiladi?

Lekin (1) me'morning (2) avvalo (3) ra'iyat (4) qolaversa (5) sultanat oldidagi mavqeyi (6) Xuroson-u (7) Mavarounnahrdagi shuhrat (8) unga qarshi keskin chora ko'rishga (9) yo'i qo'ymas edi. (Mirmuhsin)

A) 1, 2, 4, 6, 8, 9 B) 4, 6, 8

C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 2, 3, 6, 8

155. Yozuvda qaysi bog'lovchilardan oldin doim vergul qo'yiladi?

1) sabab bog'lovchilari; 2) aniqlow bog'lovchilari; 3) shart bog'lovchilari; 4) biriktiruv bog'lovchilari; 5) zidlov bog'lovchilari.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 2, 5 D) 2, 3, 5

156. *Istiqlol davri bolalari g'ayratli* (1) *shijoatli* (2) *ko'zida chaqini* (3) *ko'ksida yolqini bor*. Ushbu gapda qaysi raqamlar o'rniда vergul qo'yiladi?

A) 1, 2, 3 B) 1, 3

C) 2, 3 D) 1, 2

157. *Istiqlol davri bolalari g'ayratli shijoatli ko'zida chaqini ko'ksida yolqini bor*. Ushbu gapda shijoatli so'zidan so'ng qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

A) vergul

B) tire

C) nuqtali vergul

D) tinish belgisi qo'yilmaydi

158. Quyidagi gaplarning qaysi birida ikki nuqta qo'yiladi?

A) Saida bunga juda suyundi demak hisob yuzasidan bo'ladigan muzokara qizg'in tus oladi

B) Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi past-balandni ajratib ohshadi

C) Kimki mehnatning zo'rini qidiribdi odamning sarasi ana shu

D) El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat

159. Qaysi gapda qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga tire qo'yildi?

A) El senga etsa nadomat dunyoda turolmassan salomat

B) Uriłmoq ham foya pishiç bo'lasiz tajriba hosil qilasiz

C) Shu fe'llari yaxshi hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar

D) Maqtanchoq bo'lmanq xijolat tortmaysiz

160. *Fe'l // atvorning o'zgarmas darajada qat'iyligi // ayol tabiatiga yotdir //* Ushbu gapda «» belgisi o'mida qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilari tartibi va ularning nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) chiziqcha, tire, nuqta

B) chiziqcha, ikki nuqta, nuqta

C) chiziqcha, vergul, nuqta

D) tire, nuqta

161. *Vaqt xuftondan o'tgan; juvozxonada chirog' ko'rindi.* (Oybek) Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga nima uchun nuqtali vergul qo'yilgan?

A) Qo'shma gap qismlari bir paytda sodir bo'lgan voqeа-hodisalami ifodalaganligi uchun

B) Qo'shma gap qismlari orasida sabab munosabati ifodalanganligi uchun

C) Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganligi uchun

D) Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'lmaganligi uchun

162. *Ruboinyi ichida o'qidi // yuzini tabassum qopladi.* Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yildi?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

163. *Mening bilishimcha, Qalandarov toshqin suv tegirmomni buzishi ham mumkin, yurgizishi ham mumkin.* (A.Qahhor) Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yilishi kerak?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

164. *Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz.* (A.Oripov) Ushbu gapda nima uchun tire ishlataligan?

A) bog'lovchisiz qo'shma gapdag'i ikkinchi gapning kesimi tushirilgani uchun

B) bog'lamasiz qo'llangan ot-kesim bilan ega orasida

C) tenglik, taqqoslash ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bo'lganligi uchun ular orasida

D) izohlovchi o'xshatish ma'nosini bildirgani uchun izohlovchi bilan izohlanmish o'tasida

165. *Eyinson, harbir so'znio'y lab gapir tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi.* Ushbu bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yildi?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtali vergul

166. *Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga o'xshatish munosabati ifodalanganda tire qo'yildi.* Qaysi gaplarda ushbu qoida asosida tire qo'yilgan?

1) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si; 2) Otalar so'zi – aqlining ko'zi; 3) Vaqtin ketdi – baxting ketdi; 4) Rejasiz ish – qolipsiz g'isht; 5) Suv keldi – nur keldi.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 3, 5

C) 2, 3, 4, 5 D) 2, 4, 5

167. *Turnalar arg'imchog'i g'ira-shira osmon ortiga // bulutlar*

hay'riga singiydi. Ushbu gapda «//» belgisi o'mida qanday tinish belgisi qo'llanadi?

A) vergul

B) tire

C) ikki nuqta

D) hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi

168. *Odam bolasi borki u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi butun taqdirini tarjimayi holini orzu-umidlarini va nihoyat olamni shu rang orqali ko'radi.* Ushbu gapda nochta vergul ishlatalishi lozim?

A) 4 ta B) 5 ta

C) 6 ta D) 7 ta

169. *Sekin unga yaqin bordim bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da qadron* Gapda qanday tinish belgilari qo'yilishi kerak?

A) tire, vergul, undov belgisi

B) ikki nuqta, vergul, undov belgisi

C) nuqtalı vergul, vergul, nuqta

D) tire, vergul, nuqta

170. *Halimaxonni ko'rdim sira o'zgarmabdi hamon o'sha-o'sha* Gapda qanday tinish belgilari qo'yilishi kerak?

A) vergul, ikki nuqta, nuqta

B) tire, ikki nuqta, undov belgisi

C) tire, nuqtalı vergul, nuqta

D) vergul, vergul, nuqta

171. *Bog'dan chiqish uchun bir necha odim yurgach ishkom ichida suyanib turgan qizga ko'zi tushdi uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi ketmonga tikilib qadamini tezlatdi.* Gapda nechta vergul qo'llanishi kerak?

A) I ta B) 3 ta

C) 2 ta D) 4 ta

172. *Men u yil dehqonchilikdan hech narsa ololmadim // kuzgi bug'doyning boshoglari shira olayotgan vaqtida ola bulut paydo*

bo'lib, boshoglari kuyib, qovjirab ketdi. (S.Ahmad) Ushbu gapda «//» belgisi o'rniqa qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

A) vergul B) tire

C) ikki nuqta D) nuqtalı vergul

173. *O'zim injenerman O'zbekistonning, sizning yurtingizning ta'rifini eshitganman.* Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'tasida qanday tinish belgisi ishlataladi, nima uchun?

A) ikki nuqta; izohlash munosabati bo'lgani uchun

B) nuqtalı vergul; mazmunan unchalik yaqin bo'lmagani uchun

C) tire; ziddlik munosabati bo'lgani uchun

D) vergul; bir paytda sodir bo'lgani uchun

174. *Orzum shul o'chmasin yongan chirog'ing.* Mazkur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'tasida qanday tinish belgisi ishlataladi, nima uchun?

A) nuqtalı vergul; mazmunan uzoq bo'lgani uchun

B) tire; sababini ifodalagani uchun

C) ikki nuqta; izohlash munosabati ifodalangani uchun

D) vergul; voqe-hodisa ketma-ket ro'y bergani uchun

175. *Bog'langan qo'shma gap qismlari zidlov bog'lovchisi yordamida bog'lansa, ular orasida qanday tinish belgisi ishlataladi?*

A) hech qanday belgi ishlatalmaydi

B) vergul

C) ikki nuqta

D) tire

176. Tinish belgilaringning ishlatalishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

1) ot-kesim sifat turkumiga oid so'z bilan ifodalansa, ega va kesim o'tasida tire ishlataladi;

2) ot-kesim va ega o'tasida ham yordamchisi bo'lsa, tire qo'yilmaydi;

3) ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa, tire qo'yiladi;

4) kesim tartib son bilan ifodalansa, tire qo'yiladi.

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3
C) 2, 3, 4 D) 1, 4

177. Tinish belgilarning ishlatalishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

- 1) undalmalar gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi;
2) kirimtalar ikki nuqta bilan ajratiladi;
3) ajratilgan bo'laklar ko'p nuqta bilan ajratiladi;

4) gapning kesimi harakat nomi bilan ifodalaniib, bog'lamasiz qo'llanganda ega va kesim o'rasisiga tire qo'yiladi.

- A) 1, 2 B) 1, 2, 4
C) 2, 3 D) 2, 3, 4

178. Tinish belgilarning ishlatalishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida to'g'ri?

- 1) ko'chirma gaplar qo'shtimoqqa olinadi;
2) istak gaplar oxirida undov belgisi qo'yiladi;
3) umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin tire qo'yiladi;

4) undalma alohida ohang bilan aytilsa, undan keyin undov belgisi qo'yiladi.

- A) 1, 4 B) 2, 3, 4
C) 3, 4 D) 1, 2, 4

179. Tinish belgilarning ishlatalishi bilan bog'liq quyidagi qaysi qoida noto'g'ri?

- 1) undov gap so'roq gapdan hosil bo'lsa, oldin so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi;

2) buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi;

3) kesim ergash gap va bosh gap o'rasisida ikki nuqta ishlataladi;

4) kiritma gaplar qo'shtimoq bilan ajratiladi.

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 3, 4 D) 1, 4

180. Shubha yo'qli inson qaysi millat dingga qaysi xalq - elatga

mansub bo'lmasin u avvalambor tabiat farzandidir. (I.Karimov) Berilgan gapda nechta vergul qo'yilishi kerak?

- A) 4 ta B) 7 ta
C) 6 ta D) 5 ta

181. *Kimki tashlandiq yerni obod qilsa, bu yer o'shaniki bo'ladi.* Berilgan gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
B) ega ergash gapli qo'shma gap
C) kesim ergash gapli qo'shma gap
D) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

182. *Siz (1) o'z millatingizning ko'z qaroqlarisiz (2) ammo unutmang (3) tanbal (4) daqqi (5) bezori kishi ma'naviy nogiron (6) degan so'z.* Berilgan gapda qaysi o'rnlarda tinish belgilari ishlataladi?

- A) 1, 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 5

183. *Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak // qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi.* Berilgan gapda «//» belgisi o'rniiga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta
C) tire D) vergul

184. *Xullas, o'zaro «muhokama» bir necha daqqa davom etdi-da, keyin qaldirg'ochlar birpasda qayergadir g'oyib bo'lishdi, xonadonga jimlik cho'kib, hamma-yoq suv quygandek huvillab qoldi.* Ushbu gap turini aniqlang.

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
B) bog'langan qo'shma gap
C) ergashgan qo'shma gap
D) murakkab qo'shma gap

185. *Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bo'sqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat o'rniiga aql-idrok, fikr, ilgo'r texnologiyalar ahamiyat*

kasb etadi. Berilgan gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) hol ergash gapli qo'shma gap
- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
- C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
- D) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

186. *Sulton Abu Said otasining ketidan quvmadi // uch kun Sherozda qolib ketdi.* Berilgan gapda // belgisi o'miga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul
- B) ikki nuqta
- C) tire
- D) vergul

187. Qaysi gatorda kesimlari murakkab bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan?

- A) Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar
- B) Sharmol turdi, hammayoqni to'zon qopladи
- C) Bugun tadbir bo'ladi, men qo'shiq aytishim kerak
- D) O'zingga ehtiyyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma

188. *Bunday sultanat yalang'och odamga o'xsharki, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi.* Mazkur gap turini aniqlang.

- A) shaxsi umumlashgan sodda yoyiq gap
- B) ergashgan qo'shma gap
- C) sodda yoyiq gap
- D) egasi yashiringan sodda yoyiq gap

189. Qaysi murakkab qo'shma gap tarkibida ega va to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap qatnashgan?

- A) Shu narsa esingizda bo'lsinki, shuni unutmangki, bilimli kishi hamisha boshqalardan oldinda yuradi

B) Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, kim qilayotgan ishidan bir nima chiqishiga ishonsa, o'sha zarbdor bo'ladi

- C) Kim hayotga xo'mrayib boqsqa, unga hayot zarda bilan qaraydi

D) Kim ko'p kitob o'qisa, o'sha ko'p biladi, el ichida obro'si bo'ladi

190. Qaysi gapda tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?

- A) Ilm bir daryo – ichi to'lmish dur-u gavhar bilan
- B) Bora-bora shunga odatlanib qoldim – hamma darsdan a'luchi bo'ldim
- C) Bu – tanlovg'a taqdim etilgan yagona loyiha

D) Temur, Damir, Sardor – hammamiz darrov to'plandik

191. *Respublikamiz hayotida muhim bir voqeа yuz bersa biz sabrsizlik bilan Abdulla Qahhor nima der ekan deb kutardik ustoz yozuvchi albatta hammani hayratga soladigan ko'pchilikka ma'qul bo'ladi*gan bir gapni aytardi.

Berilgan gapda necha o'rinda vergul ishlatalishi kerak?

- A) 6
- B) 4
- C) 5
- D) 3

192. *Senga ola qarabdi kim, ko'r bo'lmay qolmas.* Ushbu gap ...

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
- C) ega ergash gapli qo'shma gap
- D) hol ergash gapli qo'shma gap

193. *Turkiston o'lkamiz vodiyilar // sahrolari // keng // tog'lari buyuk // aholisi turk // o'zbekdir.*

«//» belgisi o'miga ishlatalidigan tinish belgilarni toping.

- A) vergul, vergul, vergul, tire
- B) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul
- C) vergul, vergul, nuqtali vergul, tire
- D) vergul, vergul, vergul, vergul

194. *Adovat kishiga uch kishidan yetar // avval kishiga mol-dunyo tama qilmoq bo'lsa, ikkinchi xaloyiqdan izzat va ikrom tama qilmoq, shuningdek, xalq o'tasida ma'qul bo'lmoqni tama qilmoqdir.*

Berilgan gapda «//» belgisi o'miga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta
C) tire D) vergul

195. *Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlar dumaloq shakl olgan edi.* Ushbu gapda qatnashgan sodda gaplar sonini aniqlang.

- A) 5 ta B) 4 ta
C) 2 ta D) 3 ta

196. *Yoshligidan tabiiy fanlarga shunday mehr qo'ydiki, bu fanlarning sirlari olami uning butun borlig'ini chulg'ab oldi.* Ergash gapning turini toping.

- A) to'diruvchi ergash gapli qo'shma gap
B) kesim ergash gapli qo'shma gap
C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

197. Havola bo'lak ishtirok etgan hol ergash gapli qo'shma gap berilgan qatomni toping.

- A) Sevgi shunday navbahorki, uitikondan gul qilar
B) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan
C) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvondi
D) Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik

198. *Ma'lumki, koinotdag'i barcha narsa muayyan va ma'lum qonunga bo'ysunadi.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'diruvchi ergash gapli qo'shma gap
B) kesim ergash gapli qo'shma gap
C) ega ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

199. *Kimki qisqa so'zda deydi ko'p ma'no, Ravonlik bobida ul kishi a'lo.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

A) to'diruvchi ergash gapli qo'shma gap

- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
C) ega ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

200. *Hech o'ylaysanmi qishloqda shuncha voqealar bo'lli o'tdi.* Berilgan gapda «//» belgisi o'miga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta
C) tire D) vergul

201. *Eh, bu yerning nimasini aytasan // xayoldagi jannatning xuddi o'zi.* Berilgan gapda «//» belgisi o'miga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta
C) tire D) vergul

202. *Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'yan ekan, san'atkoring tomog'idan hech narsa o'tmadi // ikki piyola choy ichdi, xolos.* Berilgan gapda «//» belgisi o'rniiga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) nuqtali vergul B) ikki nuqta
C) tire D) vergul

203. *Non shunday qizarib pishganki, ko'rgandayoq tamshani kishi.* Ushbu gap ...

- A) to'diruvchi ergash gapli qo'shma gap
B) kesim ergash gapli qo'shma gap
C) ega ergash gapli qo'shma gap
D) hol ergash gapli qo'shma gap

204. *Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'limgan odam kambag'al emas balki es-hushi va kasb-hunari bo'limgan kishi kambag'aldir.* Gapda qaysi so'zlardan so'ng vergul qo'yilishi kerak?

- A) do'stlar, emas, balki
B) do'stlar, emas, bo'limgan
C) aziz, do'stlar, balki
D) do'stlar, emas

205. Qo'shma gaplardagi sabab munosabati qanday gaplar bilan ifodalanishi mumkin?

- A) bog'lovchisiz, bog'langan va qonshma gaplar bilan
 B) Inqat sabab bog'lovchisi bilan bog'langan ergash gapli qo'shma gaplar
 C) Inqat bog'lovchisiz qo'shma gaplar
 D) Inqat hol ergash gapli qo'shma gaplar bilan
206. *Kim insonlikni o'zida sinab formagan bo'lsa, hech qachon nafumlarni chuqur bilmaydi.* Qo'shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdag'i qaysi gap bog'lagining ma'nosini izohlab kelgan?

- A) egani B) kesimni
 C) holni D) to'ldiruvchini
 207. Ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

- A) Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi
 B) O'qish davrida Mavlonqulov qayerda bo'lsa, Mutualov ham shu yerdaboldi
 C) Yo siz keling, yo men boray
 D) Bu bo'stonda do'star bermasa ko'mak, Nasib bo'lmas maqsad gulini termak

208. Qaysi qatorda menimcha, likrimgacha, avtishlaricha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan?

- A) fikrning tartibini ko'rsatadi
 B) fikrning kimga qarashli ekanligini ko'rsatadi
 C) fikrni shakkantirishga xizmat qiladi
 D) his-hayajonni ifodalaydi

209. Berilgan qo'shma gaplarning qaysi birida ergash gapning kesimi qo'shma fe'lidan iborat?

- A) Agar shu ko'rganlarini hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar

- B) Aravalor bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin

- C) Bolaga hech kim qaramagan, shuning uchun uni olib ketishdi

- D) Sen yig'lasang, men ham qo'shilib yig'lab yuboraman

210. Qaysi bog'lovchi tobe gap tarkibida keladi?

- A) agar B) shuning uchun
 C) shu sababli D) -ki (-kim)

211. Zidlik munosabati ifodalangan bog'langan qo'shma gapni toping.

- A) Burgut yalqovgina, lekin viqor bilan qanotlarini yoyib uchib ketdi

- B) Uydagilar xursand edi, ammo bu xursandchilik unga tativadi

- C) Na hamdard kishisi, na ovuntiradigan mashg'ulot bor

- D) Kuz tushdi, tog' cho'qqilarini qor bosdi

212. *Navbahor (1) ochildi gullar (2) sabza bo'ldi bog'lar (3) Suhbat aylaylik (4) kelinglel (5) jo'ralar (6) o'tog'lar (7) (Muqimiy).* Ushbu parchada qavs ichidagi raqamlar o'nriga qaysi tinish belgilari qo'llanishi lozim?

- A) 1 – ikki nuqta, 2 – vergul, 3 – vergul, 4 – vergul, 5 – vergul, 6 – vergul, 7 – nuqta

- B) 1 – tire, 2 – vergul, 3 – ikki nuqta, 4 – vergul, 5 – vergul, 6 – vergul, 7 – nuqta

- C) 1 – ko'p nuqta, 2 – vergul, 3 – ikki nuqta, 4 – vergul, 5 – vergul, 6 – vergul, 7 – nuqta

- D) 1 – ikki nuqta, 2 – vergul, 3 – tire, 4 – vergul, 5 – vergul, 6 – vergul, 7 – undov belgisi

213. Quyidagi gaplarning qaysi birida yasama sifat to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan?

- A) Bilim, ma'rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim

- B) Sening nigohlaringda ajdodlaringning keskin nigohlari jamuljam bo'lsin

- C) Dorilomon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z, O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat

- D) Qandoq bardosh berib yashayman keyin Baxtsiz kimsalarning nigohlari

214. *Makrlar kitobin har kim qilsa fosh, uni olqishlaydi butun koinot.* Ushbu gap ...

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

215. ... *havo quyosh botgandan keyin ham uning nurlarini aks ettirib turadi. Oyda esa butunlay boshqa manzarani ko'rish mumkin // bir-pasda qorong'ulik tushadi.* Ushbu gapda qanday tinish belgisi ishlatalidi?

- A) vergul B) ikki nuqta
 C) nuqtali vergul D) tire

216. *Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi // nur yo'qolibdi.* Ushbu gapda «//» belgisi o'miga qanday tinish belgisi qo'yilishi lozim?

- A) vergul B) ikki nuqta
 C) tire D) nuqtali vergul

217. *Har kimning turmush ke-masi bu ayb dengizining to'foni po'rtanasiga duchor bo'lsa, shub-hasiz, g'arq bo'lib, yo'qlik dunyo-siga ketadi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

218. *ilm ikki xil bo'ladi biri qalbagagi ilm ikkinchisi tildag'i ilm.* Ushbu gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang.

- A) 1 o'rinda ikki nuqta, 1 o'rinda vergul, 2 o'rinda tire
 B) 2 o'rinda vergul, 2 o'rinda tire
 C) 1 o'rinda ikki nuqta, 2 o'rinda vergul
 D) 2 o'rinda vergul

219. *Kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa, bu quvvat uni tark etadi.* Ushbu qo'shma gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

220. *Odami ersang, demagil odami Onikim, yo'q xalq g'amidan g'ami.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

221. *Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nas-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

222. *Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

223. *Nimaiki ko'nglingda bo'lsa, tilga keltirma.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

224. *Fikr ravshan bo'lsa, albafta, uning shakli ham ravshan bo'ladi.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
 C) bu gap bog'langan qo'shma gap hisoblanadi

D) hol ergash gapli qo'shma gap

225. *Ayol tig' toshlarini mumdek tilguvchi*

Ayol nur qalblami yoqib ketguvchi

Quyoshga bas kelar bitta kulgichi

Ayol omon bo'sa dunyo go'zaldir.

Ushbu parchada nechta vergul ishlatalidi?

A) 8 ta B) 5 ta

C) 6 ta D) 7 ta

226. *Ayol tig' toshlarini mumdek tilguvchi*

Ayol nur qalblami yoqib ketguvchi

Quyoshga bas kelar bitta

kulgichi

Ayol omon bo'sa dunyo go'zaldir.

Ushbu parchada qanday tinish belgilari ishlatalidi?

A) vergul, nuqta

B) vergul, tire, nuqta

C) vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, nuqta

D) vergul, tire, nuqtali vergul, nuqta

227. *Ot xo'rsinsa, bir falokat ro'y beradi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismilari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

228. *Piyoladan bug' chiqib turmasa, choy ichganday bo'lmayman.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismilari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

229. *Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro'y i bir pul bo'ladi.*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismilari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) aniqlovchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

230. *Shunday o'zgarishlar bo'lmoqdaki, aqling bovar qilmaydi.*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismilari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) aniqlovchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

231. *Oraga shunday jumlilik cho'kdiki, yuragi gupullab urayot-gani aniq eshitila boshladi.*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismilari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'sratish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

232. Quyida berilgan gaplarning qayシリ qo'shma gap sanaladi?

1. Bularning bari tush bo'lsa kerak: nima bo'lganini anglay olmay goldim.

2. Astoydil harakat qilinsa, yiroq yer ham yaqin bo'ladi.

3. Bir so'z bilan aytganimizda, O'zbekistonimiz jannatmakon o'lkaga aylanib bormoqda.

4. Farzandlarimiz shaharda o'qisin deb, Buxoroga ko'chib kelishibdi.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4

C) 2, 4 D) 1, 3, 4

233. Ergash gap qismida uyushgan to'ldiruvchi ishtirot etgan ergashgan qo'shma gapni toping.

A) Sa'diy Sheroziy xalq donish-mandligining nodir namunalariga o'z Iste'dodi bilan sayqal berib, "Guliston" va "Bo'ston"ni yaratdi.

B) Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.

C) Xalqimiz o'tmishda ko'plab hokimliklar, xohlik va amirliklar tuzgan, shuning uchun uning ko'plab poytaxtlari bo'lishi tabiiyidir.

D) Quyosh bosh ko'tarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar, borliqni uyg'otib yuboradi.

234. Inson qanchalik kamtar bo'lsa, u shunchalik maqtovga loyiqlir. Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'sratish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

235. *Til tinch bo'lsa, bosh salomat bo'ladi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'sratish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

236. *Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmag'ingiz darkor.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'sratish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

237. *Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lp'on, hozir o', Kimki qasd etsa anga, kiysisin pushaymondin kafan!*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish ulmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

238. *Qaysi narsaga o'z mehnating bilan erishsang, o'sha narsa sen uchun qadrlidir.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

239. *Kimki boshqalarga rahm-shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-u shafqat qilmaydi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

240. *Farzandni kiydiradigan, yediradigan, voyaga yetkazadigan va kelajagini porloq qilish uchun qayg'uradiganlar ota-onas, opa-aka va yaqin qarindoshlaridir, yo'g'ini yashiradigan, borini oshiradigan va obro'-e'tiborli qiladigan insonlar mahalladoshlari, tengdoshlari va*

do'stlaridir. Ushbu qo'shma gapdagi gap bo'laklari haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.

A) qo'shma gap tarkibidagi ikkala sodda gapda ham uyushiq egalar otlashgan so'z bilan ifodalangan

B) qo'shma gap tarkibidagi ikkala sodda gapda ham sodda ot kesim uyushgan

C) qo'shma gap tarkibidagi birinchi sodda gapda otlashgan so'z bilan ifodalangan ega uyushgan

D) qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi sodda gapda uyushiq aniqlovchi qatnashgan

241. *Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari ko'p bo'ladi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

242. *Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

243. *Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do'stlashmaydi.*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

244. *Shu narsa ayonki, tabiat ham ana shu ranglar ta'siriga tushib qoladi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

245. *Anvarga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) ega ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

246. *Kim mehnatni qadrlay olmasa, bu mehnat unga huzur bag'ishlay olmaydi.* Ushbu gap turini aniqlang.

A) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

B) ega ergash gapli qo'shma gap

C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

D) hol ergash gapli qo'shma gap

247. Hol ergash gapli qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.

A) Har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.

B) Hol ergash gapli qo'shma gaplar sabab va maqsad ma'nosini anglatganda ergashtiruvchi bog'lovchilar va deb so'zi yordamida bog'lanishi mumkin.

C) Hol ergash gapli qo'shma gap nisbiy so'zlar vositasida bog'lana oladi.

D) Hol ergash gapli qo'shma gap qismlari bog'lovchi vazifasidagi so'z bilan bog'lana oladi.

248. *Boshingga tashvish tushima, qaytib kelmasding.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

249. *Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergen noningiz harom bo'lgay.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismlari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan

B) hol ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan

C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan

D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

250. *Eshidimki, bir podshoh bir usirni o'ldirishga farmon beribdi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismalari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

- A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan
- B) to'ldiruvchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan
- C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan
- D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

251. *Masalaning mohiyati shu ekanki, bosh vrach qabulxonasiga kichkina telefonogramma tushibdi.*

Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismalari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

- A) kesim ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan
- B) to'ldiruvchi ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan
- C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan
- D) ega ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

252. *Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi.* Ushbu gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga mansub, qo'shma gap qismalari qaysi bog'lovchi vosita orqali bog'langan?

- A) hol ergash gap, -sa shart mayli vositasida bog'langan
- B) hol ergash gap, ergash tiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan
- C) aniqlovchi ergash gap, ko'rsatish olmoshi vositasida bog'langan
- D) hol ergash gap, nisbiy so'z vositasida bog'langan

253. *Bu dunyoda uning qo'lidan kelmaydiganish yo'q//duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik – hammasini eplaydi.* Ushbu gapda // belgisi o'miga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul
- B) ikki nuqta
- C) nuqtali vergul
- D) tire

254. *Kel o'zbek qardoshim, kel mening aziz qo'nog'im bo'l, qalbing huzurli o'sun – dedi u o'nidan turib.* Ushbu gapda nechta vergul qo'llaniladi?

- A) 6 ta
- B) 7 ta
- C) 5 ta
- D) 8 ta

255. Havola bo'lak ishtirotk etgan aniqlovchi ergash gapni toping.

- A) Ko'ziga nima ko'rinsa, o'sha uni qiziqtira boshladi
- B) Sevgi shunday navbahorki, u tikondin gul qilur
- C) Shunday yashaginki, hamma havas qilsin
- D) Katta arava qayerdan yursa, kichik arava ham o'sha yerdan yuradi

256. *Yana ikki ko'z ham berdim, yov kelganda ko'sin deb.* Ushbu gap hol ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) sabab
- B) maqsad
- C) shart
- D) to'siqsizlik

257. Havola bo'lakli qo'shma gaplar haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.

- A) Havola bo'lakli gaplarni doimo sodda gaplarga aylantirish mumkin
- B) Havola bo'lakli gapni sodda gapga aylantirganda ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasida keladi
- C) Havola bo'lakli qo'shma gaplarda havola bo'lak ergash gap tarkibida bo'ladi
- D) Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos

258. Hol ergash gapli qo'shma gap haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

1. Hol ergash gaplardagi deb so'zi uchun ko'makchisi bilan erkin almasha oladi.

2. Hol ergash gapli qo'shma gaplarda har doim oldin ergash gap, keyin bosh gap keladi.

3. Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yordamida bog'lana oladi.

4. Hol ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan sinonim bo'la olmaydi.

- A) 1, 3 B) 1, 2

- C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3

259. Havola bo'laklı qo'shma gaplarni belgilang.

1. Kimki o'z ma'naviy quvvatidan foydalana olmasa, bu quvvat unj tark etadi.

2. Hunar shunday o'tdirki, uni mingan kishini yuksakka olib chiqadi.

3. Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni humrat qil.

4. Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi.

- A) 1, 3 B) 1, 2

- C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 3

260. Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladi. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmnini toping.

1) havola bo'laklı gap; 2) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap; 3) tobe-hokim munosabatlì gap; 4) darak gap.

- A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4

- C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 2, 3

261. Ega ergash gapli qo'shma gaplarni toping.

1. Barchamizga shunisi ma'lumki, inson o'zligini anglagani sari, naslasabini anglagani sari ona Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib boradi.

2. Kimning qalbi pok bo'lsa, baxtli va to'g'ri hayot kechiradi.

3. Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi.

4. Vatanni sevishimning boisi shuki, mening kindik qonim to'kilgan joydir.

- A) 1, 2, 3

- B) 1, 2, 3, 4

- C) 2, 3

- D) 1, 2

262. Kimki el uchun chekkay ranj,

Oqibat tuyassar o'lar unga ranj.

Ergash gapning turini aniqlang.

- A) Kesim ergash gapli qo'shma gap

- B) Hol ergash gapli qo'shma gap

- C) To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

- D) Ega ergash gapli qo'shma gap

263. Tilagim shu: hamma bilan yaxshi muomalada bo'ling. Ushbu gap grammatik asoslar miqdoriga ko'ra qanday gap?

- A) darak gap

- B) his-hayajonsiz gap

- C) egali va egasi yashiringan gap

- D) bog'lovchisiz qo'shma gap

264. Sodda va havola bo'laklı qo'shma gaplarning uslubiy jihatdan farqi ...

A) Sodda va havola bo'laklı qo'shma gaplar uslubiy jihatdan farqlanmaydi

B) Havola bo'laklı gaplar uslubiy betaraf, sodda gaplar uslubiy xoslangan

C) Sodda gaplar ham, havola bo'laklı gaplar ham uslubiy xoslangan

D) Sodda gaplar uslubiy betaraf, havola bo'laklı gaplar uslubiy xoslangan

265. Ergash gapi egasi nomalum gap bo'lgan qo'shma gapni aniqlang.

A) Odamning shunday do'stilari bo'ladiki, ularning har biri bilan fe'liga qarab gaplashishga to'g'ri keladi

B) Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlamasa, aybni o'zingizdan qidiring

C) Har kishi el uchun topsa agar ranj, Oqibat tuyassar bo'lar unga ganj

D) Dushman oz deb g'ofil bo'limaslik kerak, o'tinni ozgina o't kuydiradi

266. Tinish belgilarinining ketma-ket qo'yilish holati har doim kuzatiladigan gap tur(lar)ini aniqlang.

- 1) Ko'chirma gapli qo'shma gap;
 2) bir necha bosh gapli murakkab
 shma gap;
 3) bir necha ergash gapli murakkab
 shma gap;
 4) qismalari uyushgan murakkab
 shma gap.
- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4
 C) 1, 3, 4 D) faqat 1
267. Qo'shma gapning ikkinchi qismida
 kanadigan bog'lovchilar qatorini aniqlang.
 A) chunki, negaki, balki, ammo, lekin,
 bosh, yu'nin
 B) chunki, negaki, goh ..., goh, balki,
 shaxsho
 C) ammo, lekin, agar, chunki, negaki
 D) toki, shuning uchun, bilan, hamda,
 hamda
268. San'atkor tajang edi //
Innaffus vaqtida zalga chiqqan
edi, bir traktorist uni savodsizlikda
aytlidi. Ushbu gapda «//» belgisi o'miga
 qaynilish belgisi qo'yiladi?
- A) vergul B) ikki nuqta
 C) nuqtali vergul D) tire
269. Kim birovga chuqur qazisa,
 unga o'zi tushadi. Ushbu gap haqidagi
 lo'q'lari fikrlarni aniqlang.
- 1) to'ldiruvchergash gapli qo'shma gap;
 2) ega ergash gapli qo'shma gap;
 3) unga olmoshi ergash gapga ishora
 qilg'an;
 4) unga olmoshi ergash gapdagi
 bo'ldiruvchiga ishora qilgan;
 5) havola bo'lak ega bo'lib kelgan.
- A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 4
 C) 1, 4, 5 D) 1, 3
270. Bir joyda turganimda
 doyarli fikr qilolmayman tanam
 humma vaqt harakatda bo'lishi
 korak, ana o'shanda aqlim ham
 harakatga keladi. Ushbu gapda qaysi
 linish belgi tushirib qoldirilgan?
- A) vergul B) ikki nuqta

- C) nuqtali vergul D) tire
271. Qaysi gapda tinish belgilarining
 ishlatalishi bo'yicha qoidalarga roya
 qilingan?
- A) Mard bir o'lar, nomard ming
 B) Do'sting mingta bo'lsa ham oz:
 dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p
 C) O'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik
 - barchamiz bitta yurning farzandlarimiz
 D) Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday,
 qanaqa, qaysi so'rroqlariga javob bo'ladi
272. Maqsad ma'nosidagi qo'shma
 gap berilgan javobni aniqlang.
- A) Sizni gaplarimga tushundi deb
 o'yabman
 B) Bu jasoratga sizni deb qo'l urdim
 C) Gul barglari uchishadi, tushmayin
 deb qo'llingga
 D) «Barchangizga omad!» – deb tilak
 bildirishdi
273. Bahor osmonida chaqnasa
 chaqin,
- Ko'ksingdan otilar olovli nafas.*
 Ushbu gap turini aniqlang.
- A) Bir necha ergash gapli murakkab
 qo'shma gap
- B) Ega ergash gapli qo'shma gap
 C) Hol ergash gapli qo'shma gap
 D) Aralash murakkab qo'shma gap
274. Falak ishiga boq: bir haftada
 gul
- Chiqdi, g'unchaladi, kuldii,*
to'kildi...
- Ushbu she'riy parchada ikki nuqtaning
 qo'yilish sababini izohlang.
- A) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga
 kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-
 biriga qiyoslangani uchun
- B) bog'lovchisiz qo'shma gap
 tarkibidagi sodda gaplar mazmun
 jihatidan tugal fikri anglatib, bir-biriga
 yaqin bo'limgani uchun
- C) bog'lovchisiz qo'shma gap qismalari
 shaklan tugallangan, lekin mazmunan

keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalganligi uchun

D) gapdag'i uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun

275. *Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin.* Ushbu gap ...

- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
- B) hol ergash gapli qo'shma gap
- C) aniqloch'i ergash gapli qo'shma gap
- D) ega ergash gapli qo'shma gap

276. *Kim ei uchun ranj cheksa, ganja tuyassar bo'ladi.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
- B) hol ergash gapli qo'shma gap
- C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- D) ega ergash gapli qo'shma gap

277. Qaysi javobdag'i gapda tinish belgilarning ishlatalishi bo'yicha qoidalarga roya qilinmagan?

A) O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz

B) Quyoshning uyg'onishi sen ta'riflagandan ham antiqa: tong niroyatda go'zal bo'ladi

C) Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi

D) Uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik – hammasini eplaydi

278. *Faqat bir narsani aytmoq joizki, savob ishlar, shu jumladan, Vatan ravnaqi yo'lidagi yumushlar hech qachon avvaldan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha qilinmaydi.* Keltirilgan gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) ergashgan qo'shma gap
- B) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
- C) aralash murakkab qo'shma gap

D) qo'shma gap emas, kengaygan birikmali sodda gap

279. *Usta Turdining gapi o'rinli edi // modomiki hamma «qilko'prikl»dan o'tar ekan, yo jan-natga o'tib ketadi, yo do'zaxga yi-qiladi.* Ushbu gapda «//» belgisi o'mniga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul
- B) ikki nuqta
- C) nuqtali vergul
- D) tire

280. Qaysi gapda «//» belgisi o'mniga ikki nuqta ishlatalmaydi?

A) Abror qizni darrov tanidi // u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi

B) Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining ko'zlarini darrov ko'rdi // poygakda bir kishi eshikni gavdasi bilan to'sib, qaqqayib turar edi

C) Oltmishta kirib bildim // umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman

D) Qor yog'di // izlar bosildi

281. Qo'shma gap berilmagan javobni aniqlang.

A) Bularning bari tushimmidi, bilolmadim

B) Ota-onasi shaharda o'qisin deb,

Buxoroga ko'chib kelishibdi

C) Bir so'z bilan aytganimizda,

O'zbekiston Amir Temur orzu qilgan yurt-

ga aylanib bormoqda

D) Tilak bilan yurilsa, yiroq yer ham

yaqin bo'ladi

282. *Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi – yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi.* Ushbu gapda sodda gaplar orasiga nima sababdan tire ishlatalilgan?

A) qo'shma gap qismi orasida shart munosabati ifodalangani uchun

B) qo'shma gap qismi orasida o'xshatish munosabati ifodalangani uchun

C) qo'shma gap qismi orasida zidlash munosabati ifodalangani uchun

D) qo'shma gap qismi orasida izoh munosabati ifodalangani uchun

283. *Ilm ikki xil bo'ladi // biri qulbdagi ilm, ikkinchisi tildagi ilm.* Ushbu gapdagi «//» belgisi o'miga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tire

284. *Bahor osmonida chaqnasa chiqin,*

Ko'ksingdan otilar olovli nafas.

Ushbu gap turini aniqlang.

A) ega ergash gapli ergashgan qo'shma gap

B) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
C) aralash murakkab qo'shma gap
D) hol ergash gapli ergashgan qo'shma gap

285. *Aniqlovchi ergash gapli ergashgan qo'shma gapni toping.*

A) O'simlikni qancha ko'p parvarish qilsang, shuncha ko'p hosil olasan

B) Fikr tiniq bo'lsa, nutq ravon va chiroyli bo'ladi

C) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan odam qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi

D) So'z shunday quroqli, u bilan eng yuksak cho'qqilarni zabit etish mumkin

286. *Qiz avval qo'rqi, otasi uning Siddiqjon bilan so'zlashib turganini emas, bog'ga tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi – bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi; keyin yangi bir olamga kirib, otasining qamchisini ham, kurk tovuqni ham unutdi.* Ushbu gapda vergul niromaning talabi bilan qo'yilgan?

A) sodda gaplar, uyushiq bo'laklar orasiga
B) kiritma, ajratilgan bo'lak orasiga
C) uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak orasiga
D) faqat sodda gaplar orasiga

287. *Bunday sultanat yalang'och odamga o'xsharki, uni ko'rgan kimsa nazarini olib gochadi.* Berilgan gap turini aniqlang.

- A) ergashgan qo'shma gap
B) sodda yoyiq gap
C) egasi yashiringan sodda yoyiq gap
D) shaxsi umumlashgan sodda yoyiq gap

288. *Kesimi yasama so'z bilan ifodalangan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.*

A) Mehnatni hurmatlasak, u bizni e'zozlaydi

B) Odam bahosizdir, ammo uni mehnat baholaydi

C) Mehnat orom berib uxlatadi, kamchilik esa chimchilab uyg'otadi

D) Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi

289. *Men hovlimga bordim, bolaligimda ko'rganlarimdan yolg'iz shu jiyya qolibdi.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

- 1) yuushgan bo'lagi bor; 2) ajratilgan bo'lagi bor; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap;
4) bitta yuklama bor; 5) gap tarkibida otkesim mavjud.

- A) 2, 3 B) 1, 2, 3, 4
C) 2, 3, 4, 5 D) 3, 4

290. *Ona borki, olam bor // ona borki, odam bor.* Bu yerda qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) vergul B) nuqtali vergul
C) ikki nuqta D) tire

291. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'satilgan so'zlardan keyin qavs ichida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

- A) hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi
B) undov
C) so'roq
D) so'roq va undov

292. *Erkaklarning biri – markaziy gazetaning muxbiri, ikkinchisi –*

injener; (Mavlonbekov uni Feodor Makarovich der edi) qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo'lida tajriba ko'rib yurgan ekan. Ushbu gapda qaysi tinish belgisi noto'g'ri qo'llangan?

- A) ikkinchi tire B) birinchi tire
C) nuqtali vergul D) birinchi vergul

293. Hol ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A) Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar
B) Men senga shunday narsalar keltirayki, ulami tushingda ham ko'magansan
C) Berilgan gaplarning barchasi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar
D) Shunday yashaylikki, haamma havas qilsin

294. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A) Ayrim shunday ishyoqmas odamlar bo'ladi, ularning hech qachon biri ikki bo'lmaydi

B) Amir Temur aytganidek, qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi

- C) Iltimos qilamanki, pastga tushsangiz
D) Demokratik-huquqiy davlatni shakkantirish qonunning ustuvorligi, uning so'zsiz bajarilishini taqozo etadi

295. Qaysi gapda tire bog'lovchisiz qo'shma gap orasida qo'llangan?

- A) Vaqtin ketdi – baxting ketdi
B) Mehнатинг – boyliging
C) Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra
D) Ilm – yorug'lilik, jaholat – zulmat

296. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt shartga ega bo'lgan kishillardan bo'lishi lozim. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
B) hol ergash gapli qo'shma gap
C) to'diruvchi ergash gapli qo'shma gap
D) ega ergash gapli qo'shma gap

297. Qo'shma gaplarning qaysi turida shart mayli qo'shimchasi bog'lovchi sifatida ishtirok etmaydi?

- 1) ergashgan qo'shma gap; 2) bog'langan qo'shma gap; 3) aralash murakkab qo'shma gap; 4) bog'lovchisiz qo'shma gap.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 2
C) 2, 4 D) 1, 3

298. Qaysi javobda kesim ergash gapli qo'shma gap berilgan?

- A) Shunisi quvonarlik, sinfdagi o'quvchilarning hammasi bir-biri bilan juda ahil

B) Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi

- C) Shuni bilingki, dunyoda tinchlikdan ulug'roq ne'mat yo'q

D) Shunga xursandmanki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi

299. Ergash gap bosh gapdan oldin kelgan javobni toping.

- A) Kimning ichi nog'ora singari bo'sh bo'lса, uning behuda so'zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi

B) Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal

- C) Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin

D) Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlar berar

300. Bora-bora shunga odatlanib qoldim // hamma darsdan a'lochi bo'ldim. Ushbu gapda «//» belgisi o'rniда qanday tinish belgilatiladi?

- A) tire B) nuqtali vergul
C) vergul D) ikki nuqta

301. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat o'rniqa aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar ahamiyat kasb etadi. Berilgan gap turini belgilang.

- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
 B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 C) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap
 D) hol ergash gapli qo'shma gap

302. *Siz (1) o'z millatingizning ko'z qaroqlarisiz (2) ammo unutmang (3) tanbal (4) daqqi (5) bezori kishi ma'naviy nogiron (6) degan so'z.* Berilgan gapda qaysi o'rinnalarda tinish belgilari ishlatalidi?

- A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
 C) 1, 2, 4, 5, 6 D) 2, 3, 4, 6

303. Qaysi gapda yo..., yo qolipli qo'shma gap berilgan?

- A) Yo siz, yo men bu ishni amalga oshirishimiz kerak
 B) Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o'zini bilmaganlikka soladi
 C) Urug' aynigan yo agrotexnika qoidalari buzilgan
 D) Yo kitobni, yo gazetani qo'ltiqlab ketib qoladi

304. Ergashgan qo'shma gaplardagi ergash gap bosh gapga nisbatan o'rin almashgan qatorni toping.

- A) Bilmaysizki, mehr, muhabbat, sadoqat qon bilan kiradi inson ruhiga
 B) Sen otash ichida urasan javlon, dushman qolmasin deb sevgan elimga
 C) Kimki pok muhabbat, mehri daryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol
 D) Jahonda nimaiki oq va pokiza bo'lsa, unga ona suti timsol

305. Qaysi javobda nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gap bor?

- A) Mana, bahor nishonasi, hidla, sog'ingandirsan
 B) Yo siz keling, yo men boray
 C) Kimki ajodolar yaratgan boyliklami bilmasa, demak, u nafosatdan bebahra yashagan
 D) Binafsha qo'ldan qo'lga o'tdi

306. *Nodon aytur// g'olib chiqdim// dono aytur// yo'l berdim*
 Tinish belgilarini qo'ying.

- A) ikki nuqta, vergul, ikki nuqta
 B) tire, nuqtali vergul, nuqta
 C) nuqtali vergul, tire, ko'p nuqta
 D) vergul, ikki nuqta, nuqta

307. Qaysi vosita orqali birikkan ergash gapli qo'shma gapning kesimi buyruq-istik maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi?

- A) -sa shart mayli
 B) deb so'zi
 C) nisbiy so'zlar
 D) bo'lsa, esa so'zlar

308. *Polvonlar epchillikda bir-biridan o'zadi, kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.* Ushbu gap turini aniqlang.

- A) bog'lovchisiz qo'shma gap
 B) bog'langan qo'shma gap
 C) ergashgan qo'shma gap
 D) qo'shma gap emas, murakkablashgan sodda gap

309. Qaysi qatordagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda uyushgan to'ldiruvchi mayjud?

- A) Bilmaysizki, mehr, muhabbat, sadoqat qon bilan kiradi inson ruhiga
 B) Jahonda nimaiki oq va pokiza bo'lsa, unga ona suti timsol
 C) Kimki pok muhabbat, mehri daryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol
 D) Nimaiki chidamli, sabr-toqatlilbo'lsa, ona irodasi timsol

310. *Kimki tashlandiq yerni obod qilsa, bu yer o'shaniki bo'ladi.* Berilgan gap ergashgan qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

- A) kesim ergash gapli qo'shma gap
 B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 C) ega ergash gapli qo'shma gap
 D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

311. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Naql qiladilarki, bir kishi sahroda borayotgan ekan

B) Kimki harakatchan bo'lsa, u maqsadiga erishadi

C) Kim o'zi harakat qilmasa, o'zidan ko'rsin

D) Hunar shunday otdirki, mingan kishini rohat va e'tibor manziliga yetkazadi

312. Qaysi javobda ega ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A) Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib, bi kitob yozmog'ingiz darkor

B) Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari ko'p bo'ladi

C) Shunisi quvenarlik, sinfdagi o'quvchilarining hammasi bir-biri bilan juda ahil

D) Shuri sezdimki, oila a'zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan

313. Ikkinchisi masala anche jiddiy, shuning uchun u maxsus o'rganishni talab qiladi. Berilgan gapda ergash gap bosh gapga qaysi grammatik vosita orqali bog'langan?

A) nisbiy so'z

B) yuklama

C) ohang

D) ko'makchili qurilma

314. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan javobni aniqlang.

A) Demokratik-huquqiy davlatni shakllantirish qonunning ustuvorligi, uning so'zsiz bajarilishini taqozo etadi

B) Ayrim shunday ishyoqmas odamlar bo'ladi, ularning hech qachon biri ikki bo'lmaydi

C) Iltimos qilamanki, pastga tushsangiz

D) Amir Temur aytganidek, qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi

315. 1) Bir necha hazilkash odamlar bir qizg'anchiq, xasis odamning uyiga mehmonga bormoqchi bo'llidi, ammo darvoza taqillatganlaning xasis odamning xizmatkori chiqdi
2) Mehmonlami ko'rib, ichkangi kirib ketdi. 3) Chiqdi va aytdi. 4) Kechirasizlar, xojamiz kecha kech qurun o'lgan edilar. 5) Erta tongdu dafn etib kelgan edik.

6) Hazilkash mehmonlari bunga ishonmadilar va aytdilar.

7) Xojangiz rahmatli, biz uchun juda aziz, qadrli odam edilar. 8) Ularning janozasida bo'lish bizga nasib etmadni, endi uylariga kirib, fotiha o'qib ketmasak bo'lmash. 9) Boyagi xasis xoja mehmonlarni qabul qilishdan boshqa iloji qolmabdi.

1, 4, 8-gaplarda vergul qo'yilishining uchala gap uchun umumiy bo'lgan sababini ko'rsating.

A) uyushiq bo'laklar sanash ohangi yordamida bog'langani uchun

B) ajratilgan bo'lak qatnashgani uchun

C) kiritma va uyushiq bo'laklar qatnashgani uchun

D) qo'shma gap qismlarini ajratish uchun

316. Albatta, go'zallik ham har xil bo'ladi kechasi qop-qorong'u osmonda iz qoldirib uchgan yulduzlar ham go'zal kunduzi guldan gulag qo'nib yurgan kapalak ham go'zal. Ushbu gapda ishlatalidigan tinish belgilari toping.
1) tire; 2) ikki nuqta; 3) nuqtali vergul; 4) vergul.

A) 1, 3, 4

B) 2, 3, 4

C) 2, 4

D) 1, 2, 3, 4

317. Qor yog'di // don yog'di. Ushbu gapda // orniga qanday tinish belgisi qo'yildi?

- A) vergul B) nuqtali vergul
 C) ikki nuqta D) tire
**Mn. I netib topgay menikim,
 Mon o'zimni topmasam.**
Dag. fujidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.
 1) hol ergash gapli qo'shma gap;
 2) gapda 3 ta kishilik olmoshi ishtirok

- 3) ergash gap va bosh gapning o'rni
topgan;
 4) to'ldiruvchi ergash gap;
 5) gap faqatega, kesim, to'ldiruvchidan

- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 5
 C) 1, 3 D) 3, 4

119. Kimki so'zni qadrlasa har qanday?

- O'z-o'zini qadrlagay begumon.
 Ushbu gap ergash gapning qaysi turi
 o'lbunadi?
 A) ega ergash gapli qo'shma gap
 B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
 C) kesim ergash gapli qo'shma gap
 D) aniglovchi ergash gapli qo'shma gap
120. Qaysi javobda quyida berilgan qandagi tinish belgilaringin qo'llanish
 xabrbilari to'g'ri ko'satilgan?

*Shirinsuxan, oqko'ngil odamlar
 movali daraxtga o'xshaydi:
 huimma ulardan baha oladi.*

- 1) uyushiq bo'laklarning oldidan
 umumlashtiruvchi so'z kelgani uchun ikki
 nuqta qo'yilgan;
 2) uyushiq bo'laklar qo'llanganini uchun
 vergul ishlatalgan;
 3) sodda gaplarda mazmunan
 unchalik yaqin bo'lмаган voqeа-hodisalar
 ifodalanganligi uchun ikki nuqta qo'yilgan;
 4) gapda ajratilgan bo'lak qo'llanganini
 uchun vegul qo'llangan;
 5) bog'lovchisiz qo'shma gap
 qismlari o'tasida izohlash munosabati
 ifodalanganini uchun ikki nuqta qo'yilgan.

- A) 1, 2 B) 2, 3

- C) 3, 4 D) 2, 5
**321. Akram qafasni ochdi //
 kaklik o'zicha "g'iyq" deb qo'ydi.**

Ushbu gapda // belgisi o'rniqa qanday
 tinish belgi qo'yiladi?

- A) ikki nuqta B) vergul
 C) tire D) nuqtali vergul
**322. Nastarin gullashi bilan
 qizlar undan baxt qidirishadi //
 niyati amalga osharmish.** Ushbu
 gapda // belgisi o'rniqa qanday tinish belgi
 qo'yiladi?

- A) ikki nuqta B) vergul
 C) tire D) nuqtali vergul
**323. Hokim gapi shaxsi nomal'um
 gapdan iborat bo'igan hol ergash gap(lar)
 ni toping.**

1. Odamlar siz bilan dardini yoki
 quvonchini o'toqlashsa, diqqat bilan
 tinglang.

2. Dushman oz deb g'ofil bo'lmaslik
 kerak, chunki ko'p o'tinni ozgina o't
 kuydiradi.

3. Shuni esda tutish kerakki, haddan
 tashqari bo'ttirib yuborilgan mahalliy
 vatanparvarlik millatning, xalqning
 jipslashuviga xalaqit beradi.

4. Odob ulug'lik va yuksaklik qasrinining
 narvonidir, shuning uchun u orqali barcha
 maqsad va manzillarga yetish murkin.

- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
 C) 2, 4 D) 2
**324. Qaysi hol ergash gapli qo'shma
 gap tarkibida ot va sifat yasovchi omonim
 qo'shimchalar qatnashgan so'zlar mavjud?**

A) ilmsiz inson – mevasiz daraxt,
 shuning uchun hamisha ilmlilar safida
 bo'lishga intil

B) Vijdronni asrangiz har nedan ortiq,
 Bobolardan qoigan noyob bu tortiq, Toki
 avlodlarga yetolsin omon

C) Shunga ishonch hosil qildimki, tinch
 yashashni istagan kishi pastkash odam
 bilan do'stlashmaydi

D) Ilm martabasi martabalarning zo'ridir, shu sababli yoshlikdan ilm olish payida bo'l

325. *Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi tushadi.*

Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrlarni aniqlang.

1) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;

2) ega ergash gapli qo'shma gap;

3) **unga** olmoshi ergash gapga ishora qiladi;

4) **unga** olmoshi ergash gapdag'i to'ldiruvchiga ishora qilgan;

5) havola bo'lak ega bo'lib kelgan.

A) 2, 4, 5 B) 1, 3

C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

326. Qaysi gapda tinish belgisining qo'shma gap qismalari orasida qo'yilish qoidasiga rioya qilingan?

A) Jimlik tilaydi yurak,
Sizdan bugun birlina o'tinch,
Yolg'iz qo'ying meni, do'starim,
Charchaganman, orom olayin.

B) Hozir qishloqda yoz, bu yerga esa bahor endigina qadam qo'ygandek edi:
qiyaliklarni qoplagan qoqigullar yulduz parchalariday yaltiraydi, choqqilar orasidan yugurib pastga tushib kelayotgan jilg'alarming bo'yida chuchmomolar yaproq yozmoqda.

C) Taqdirin qo'l bilan yaratur inson,
G'o'yibdan kelajak baxt – bir afsona.

D) Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarmabdi: hamon o'sha-o'sha.

327. *Taqdirin qo'l bilan yaratur inson,*

G'o'yibdan kelajak baxt bir afsona.

Ushbu gapda yo'l qo'yilgan xatolik qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) so'z imlosi bilan bog'liq xatolik

B) kelishik qo'shimchalari bilan bog'liq xatolik

C) tinish belgilari bilan bog'liq xatolik

D) so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik

328. *Dunyo shoirlari Vatan Sha'niga*

*Sifat axtarmishlar qator va qator
Nihoyat kelmishlar bitta ma'niga //*

Ona Vatan deya bitmishlar ash'or.

Ushbu gapda // belgisi o'miga qanday tinish belgi qo'yiladi?

A) ikki nuqta B) vergul

C) tire D) nuqtali vergul

329. Qaysi gapda sodda gaplar orasiga tinish belgisi noto'g'ri qo'yilgan?

A) Hozir qishloqda yoz, bu yerga esa bahor endigina qadam qo'ygandek edi; qiyaliklami qoplagan qoqigullar yulduz parchalariday yaltiraydi, choqqilar orasidan yugurib pastga tushib kelayotgan jilg'alarming bo'yida chuchmomolar yaproq yozmoqda.

B) Demak, gap bunday: o'ttizinchı yillardar adabiyotini o'rganishni kechiktiramiz.

C) Siddiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.

D) Bir narsani solishtirib tagiga yetmoqchi bo'lsak, aslidan kelamiz: asli nima edi? asli qanday edi? va hokazo.

330. Hol ergash gapli qo'shma gapning bosh gapi shaxsi noma'lum gapdan tuzilgan qo'shma gapni toping.

A) Shuni mammuniyat bilan ta'kidlaymanki, mening kasb tanlashimiga otamning do'mbirasi sababchi bo'lgan.

B) Shuni bilingki, vaqtning qadriga etish uni behuda o'tkazmaslik lozim.

C) Topgan obro'ni yo'qotmaslik shart, chunki obro' ko'ylak emaski, yangisisi bozordan olsang.

D) Shundan ehtiyyot bolish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo'lmasin.

331. Tinish belgisining qo'yilish qoidalariga rioya qilingan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.

A) Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, mahlik shaxt bilan ochildi.

B) Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shuning uchun bilganlarining kelajak avlodga yozib qoldir.

C) Qor yog'di, go'yo don yog'di.

D) Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling odamlarga muomalada xulqingiz chiroyni ho'lsin.

332. Yanglishasiz // men ko'klarga berkingan

Yer qizidan xayolimni olmaymen. (Cho'pon)

Ushbu gapda // belgisi o'rniqa qanday tinish belgi qo'yiladi?

A) ikki nuqta B) vergul

C) tire D) nuqtali vergul

333. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismalari orasida o'xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo'yiladi.

Qaysi maqolda qo'llangan tire mazkur qoidaga muvofiq keladi?

A) Vataning tinch – sen tinch.

B) Suv keldi – nur keldi.

C) Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.

D) Aytigan so'z – otligan o'q.

334. Qaysi qo'shma gap qismalari orasiga tinish belgisi to'g'ri qo'yilgan?

A) Ruboyni ichida o'qidi: yuzini tabassum qopladi.

B) Bu dunyoda uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q; duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik – hammasini eplaydi.

C) Yozgan xatiga qarab bextox aytish mumkin: bu odam sermulohaza, latif, dono, ishonuvchan, dilgir, kuyunchak, mehribon y obo'imsa, shoshqaloq, ziqna, asabiy, daga'l, dali-g'uli va hokazo.

D) Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak – qurilishni ham, jamoani ham sariq chaqaga sotadi.

335. O'zimcha hayronman // bu kishilar nega taraddudlanib o'tiribdi?

Ushbu gapda // belgisi o'rniqa qanday tinish belgi qo'yiladi?

A) ikki nuqta B) vergul

C) tire D) nuqtali vergul

336. Ottizinchchi yillaming o'talarida, bolaligimni o'ylaganimda chalakam-chatti tush ko'rganday bo'lar edim // dumli yulduz chiqqan edi // Babar (Bobur bo'lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'imagan edi. Ushbu gapda // belgisi o'miga qanday tinish belgilari qo'yiladi?

A) ikki nuqta, nuqtali vergul

B) nuqta, vergul

C) nuqtali vergul, tire

D) ikki nuqta, vergul

337. Berilgan maqollardan qaysi biri qo'shma gap emas?

A) Vaqtning ketdi – baxting ketdi.

B) Aytilgan so'z – otligan o'q.

C) Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.

D) Yurt tinch – sen tinch.

338. Quyidagi qaysi qo'shma gaplarda shartli belgi o'rniqa ikki nuqta qo'yiladi?

A) Ruboyni ichida o'qidi // yuzini tabassum qopladi.

B) Bizning qarorimiz shu // hasharda barchamiz faol ishtirot etamiz.

C) Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi // yangi oyning o'rog'i daryoda qalqib-qalqib suzadi.

D) Bir nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi // nur yog'ilibdi.

339. Bosh gapda qaralmish vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Kim birov larga yaxshilik tilasa, yo'llarini ziyo yoritadi.

B) Kimki erta bahordan dalaga chiqib ter to'ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi.

C) Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqtira boshladi.

D) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.

340. *Dunyo shoirlari Vatan sha'niga*

Sifat axtarmishlar qator va qator.

Nihoyat kelmishlar bitta ma'niga //

Ona Vatan deya bitmishlar ash'or.

Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgi qo'yiladi?

A) ikki nuqta B) vergul

C) tire D) nuqtali vergul

341. Qaysi gapda bog'lovchisiz qo'shma gap qismilar orasida tinish belgisi to'g'ri qo'llangan?

A) Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi: yuragim gursullagancha o'mimdan turib ketaman.

B) Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling – odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin!

C) Kuz keldi: yig'im-terim ishlari boshlandi.

D) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lendir: tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

342. Qaysi javobdagi hol ergash gapli qo'shma gap qismilari egali gaplar bo'lib, kesimlari fe'l kesimdan iborat?

A) Boqsa gar har molga zamona zayli, Unga oshib borar xaridor mayli.

B) Muyassar bo'lmasa gar yor visoli, Balodan tottidir visolning boli.

C) Baxting gar kulsa-yu, topsang koni ganj, Pinhona tutmasang ganj keltirar ranj.

D) Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh, siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh.

343. *Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasin // ikki jahon demaki jon bo'lmasin.* (Navoiy) Ushbu gapdag'i

// belgisi o'mida qanday tinish belgisi ishlataladi?

A) nuqtali vergul B) tire

C) vergul D) ikki nuqta

344. *Sir ko'p olam qa'rida Mo'jizaga kon olam.*

Ushbu gapda qaysi tinish belgisi tushirib qoldirilgan?

A) nuqtali vergul B) tire

C) vergul D) ikki nuqta

345. Bosh gapda qaralmish vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan ega ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.

B) Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqtira boshladi.

C) Kimki erta bahordan dalaga chiqib ter to'ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi.

D) Kim birov larga yaxshilik tilasa, yo'llarini ziyo yoritadi.

346. *O'zimcha hayronman// bu kishilar nega taraddudlanib o'tiribdi?* Berilgan gapda qo'yilishi lozim bo'lgan tinish belgisini toping.

A) nuqtali vergul B) vergul

C) ikki nuqta D) tire

347. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismilari orasida tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq qoidalarga rioya qilinmagan gapni aniqlang.

A) Bolalik – hayotning asl pallasi, undan ko'proq bahramand bo'lishga intiling.

B) Borliq jim – har bitta darchada zangor shu'lalar porlaydi.

C) Demak, gap bunday: o'ttizinchil yillar adabiyotini o'rganishni kechiktiramiz.

D) Yuragida qanday dard bor – mana bu menga sir.

348. *E'tibor bering// shoират оламига кириши биланоқ асарларини о'з она тилда ўоза*

boshlagan. Gapdagi // belgisi o'rnida qo'llanishi lozim bo'lgan tinish belgisini aniqlang.

- A) ikki nuqta B) tire
 C) nuqtali vergul D) vergul
 349. Tarkibida tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq qoidalarga riyoga qilinmagan qo'shma gaplarni aniqlang.

1. Yo'qolgan mod'dy boylikning urningi to'ldirish mumkin, lekin ma'naviy boylikdan judo bo'lish fojia.

2. Yupiter topdingmi yo dunyoga kolib,

Ustoz yo shodirдан yoki tengdoshdan?

3. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinib qoladi biroq, uning ketidan uloqchilar chug'urchuqday yopirilishib, o'n-o'n besh qadamda tutib oladi.

4. Bizning oliy maqsadimiz shu – o'z kela jagimiz, baxtimizni o'z qo'shimiz bilan quramiz.

- A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3
 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

350. *Ma'nан boy, ruhan komil insonlar ozod ham obod Vatanni qurishga qodirdirlar.* Ushbu gapda qo'llangan yordamchi so'z qanday grammatic vazifani bajargan?

- A) teng munosabatlari bo'laklarni bog'lagan
 B) teng munosabatlari gaplami bog'lagan
 C) tobe-hokim munosabatlari bo'laklarni bog'lagan
 D) qo'shimcha ma'no yuklagan

351. Ega ergash gapli qo'shma gaplar berilgan javobni toping.

1. Kim birinchi bo'lib kelsa, biz mukofot topshiramiz.

2. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir.
 3. Kimki bu uzumni yemabdi, dunyoga kelmbadi.

4. Shunisi ajablanarliki, hech kim e'tiroz bildirmadi.

- A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4

- C) 1, 2 D) 1, 2, 3, 4

352. *O'zingga nima tilasang, birovga ham ravo ko'r.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
 B) to'ldiruvchi ergash gap
 C) aniqlovchi ergash gap
 D) hol ergash gap
 353. *Kimga mehr bermoqchi bo'lsam, mendan o'zini olib gochadi.* Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A) ega ergash gap
 B) to'ldiruvchi ergash gap
 C) aniqlovchi ergash gap
 D) hol ergash gap
 354. Qaysi qatorda berilgan qo'shma gapda bosh gap tarkibidagi barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan?

A) Qisqa gap shuki, odam so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqtaladi.

B) Mehnati halol baholansa, yerning sohibi – dehqonning hech kimdan kamibolmaydi.

C) Shuni anglamoq kerakki, ota-onha uchun tarzandandan ko'ra yaqinroq kimsa yo'q.

D) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.

355. Qaysi ergashgan qo'shma gap(lar)ning ergash va bosh gapi tarkibidagi barcha gap bo'laklari kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'langan?

1) Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda yutuq bor.

2) Kim birovga choh qazisa, o'zi yiqiladi.

3) Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilmazning kenjatoyiman.

4) Til tinch bo'lsa, bosh salomat bo'ladi.

5) Mol-u puling ketsa-ketsin, ammo vaqtinги zoye ketkizma.

- A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4

C) 1, 2, 4 D) 2, 4

356. Qaysi ergashgan qo'shma gapning bosh gapi tarkibida ham, ergash gapi tarkibida ham kesimga bilvosita bog'langan bitta gap bo'lagi mavjud?

A) Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.

B) Dutor chalib o'tirsim, tori uzilib ketdi.

C) Shuni hamisha yodingizda saqlangangi, birovga yolg'on gapirish eng katta gunohdir.

D) G'afur G'ulom etagini silkitsa, kulgi to'kilardi.

357. Qaysi ergashgan qo'shma gapning faqat ergash gapi tarkibagi barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan?

A) Qalbingiz nimani buyrsa, siz menga shuni buyuring.

B) Agar yurakda quvvat bo'lmasa, qo'lda ham quvvat bo'lmaydi.

C) Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'lidan davlati ketmasin uning.

D) Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qayishmaydi.

358. Qaysi qatorda berilgan gapda ergash gap bosh gapga ko'makchili qurilma yordamida bog'langan?

A) Yurtim, seni faqat boyliklar-chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

B) Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.

C) Aybingiz shuki, juda ko'ngilchansiz.

D) Kim alam chekmabdi umrida bir bor, U meni anglamas, anglamas aslo.

359. Qaysi javobda berilgan ergashgan qo'shma gap sodda gap bilan ma'nodosh bo'la oladi?

A) Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqalguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar.

B) Yaxshilik obro' keltiradi, yomonlik esa zulmatga olib boradi.

C) Kim ko'p bilsa, u kamgap bo'ladi.

D) Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi.

360. Avvalo, shunita'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan kelishmovchiliklarni o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatdan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik. Berilgan parchadagi vergullarning qo'llanishi haqidagi fikrlardan nechtaisi to'g'ri?

1) Qo'shma gap qismalarini ajratish uchun vergul qo'yilgan.

2) Kirish so'zlar qo'llangani uchun vergul qo'yilgan.

3) Ajratilgan bo'lak bo'lgani uchun vergul qo'yilgan.

4) Uyushiq bo'laklar mavjud bo'lgani uchun vergul qo'yilgan.

5) Undalma mavjudligi uchun vergul qo'yilgan.

A) 2 tasi B) 3 tasi

C) 4 tasi D) 5 tasi

361. Quyidagi gaplarning qaysi birida nuqtali vergul ishlatalidi?

A) Obidjon borib pechkaning ichiga qo'l tigadi niromanidir mahkam ushlaydi.

B) Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi Toshkent atala boshlandi.

C) Qanoat qorin to'yadiradi beqanoat o'zini o'ldiradi.

D) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi.

362. Bog'langan qo'shma gaplarda qaysi bog'lovchilardan oldin nuqta qo'yilishi mumkin?

A) biriktiruvchi bog'lovchilardan

B) ziddov bog'lovchilaridan

C) ayiruv bog'lovchilaridan

D) inkor bog'lovchilaridan

363. Elning bir so'zi bor: o'zingga

Ushbu gapda ikki nuqtaning qo'llanish sababini aniqlang.

A) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish sababini ko'rsatgani uchun

B) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish paytini bildirgani uchun

C) 2-qism 1-qism tarkibidagi otning ma'ninosini izohlagani uchun

D) 2-qism 1-qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish natijasini ko'rsatgani uchun

364. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapni toping.

A) Agar inson biror kasbni mukammal qillasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, buxt keltiradi.

B) U shunday qobiliyatga ega emlli, bir marta eshitgan narsani hinch o'zgartirishsiz qayta hikoya qilib boraverardi.

C) Oltin va kumushi bo'lмаган одам кимбаг'ал эмас, балки касб-хунари bo'lмаган одам камбаг'алдир.

D) Jahl kelsa, aql qochadi.

365. *Ro'paramda esa kamida qırqni qoralab qolgan, chakka sochlariga oq oralagan, ko'zlarida biror ma'no yo'q, lablari po'rsildooq klmsa o'tirardi.* Ushbu gap turini aniqlang.

A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

B) uyushiq bo'laklı sodda gap

C) aralash murakkab qo'shma gap

D) bog'lovchisiz qo'shma gap

366. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida vergulning qo'yilishiga old qaysi fikr noto'g'ri?

A) bir paytda ro'y beruvchi hodisalarini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

B) ketma-ket ro'y beruvchi hodisalarini

ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

C) o'xshatish ma'nosini ifodalovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

D) tuzilish jihatidan bir xil bo'lib, sanash ohangi bilan talaffuz etiluvchi bog'lovchisiz qo'shma gaplarda

367. Qaysi javobda keltirilgan ergashgan qo'shma gapning ergash gap qismida ega qatnashgan?

A) Shuni bilingki, vaqtning qadriga yetish, uni behuda o'tkazmaslik lozim.

B) Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro'yи bir pul bo'ladi.

C) Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim.

D) Shuni bilingki, bitta so'zning tig'i yuzta shamshirdan o'tkirroqdir.

368. Uyushiq aniqlovchining to'ldiruvchiga tobelanishi kuzatilgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni ko'rsating.

A) Aniqki, ota-onha, opa-singillar diliqa xiralik solish o'z diliga jabr keltiradi.

B) Biroq esda tutish kerakki, haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi.

C) Tarixiy haqiqat shuni ko'rsatadi, tominda Vatan, yurt ishqij jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

369. *Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, ularni jam etgan holda bir kitob yozmog'ingiz darkor.* Ushbu ergashgan qo'shma gap haqidagi fikrlarning nechta to'g'ri?

1) bosh va ergash gap nisbiy so'z orqali bog'langan;

2) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma;

3) bosh gap qismi egasi yashiringan gap;

4) ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi nisbiy so'zlar hokim qismga bitishuv va boshqaruva usulida bog'langan;

A) ikkitasi B) bittasi

C) uchtashi D) to'rttasi

370. Ba'zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar.

Qo'shma gapning turini aniqlang.

- A) ega ergash gapli qo'shma gap
- B) kesim ergash gapli qo'shma gap
- C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

371. Quyidagi gaplarning qaysi birida nuqtali vergul ishlatalidi?

- A) Obidjon borob pechkaning ichiga qo'l tiqadi nimanidir mahkam ushlaydi.
- B) Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi Toshkent atala boshlandi.
- C) Qanoat qorin to'ydiradi beganoat o'zini o'ldiradi
- D) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi.

372. Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi, qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi. Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri hukm(lar)ni toping.

- 1) ikkita yasama fe'l qo'llangan;
- 2) ikkita ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qo'llangan;
- 3) bitta fe'lning yasalish asosi ot soz turkumi;
- 4) fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan uchta ravish holi qo'llangan;
- 5) bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap;
- 6) sodda yoyiq gap;
- 7) ikki o'rinda nisbat qo'shimchasi qo'llangan.

A) 1, 4, 5, 7 B) 1, 2, 3, 4, 5, 7

C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 3, 5, 7

373. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi. Ushbu gap haqida noto'g'ri fikrlarni aniqlang.

- 1) ergash gapga havola qiluvchi bo'lak tarkibida jarangli til va lab undoshlar qatnashgan;

2) bir-birini taqozo qilgan bo'laklar (nisbiy so'zlar) bir xil gap bo'lagi vazifasida kelgan;

3) bir-birini taqozo qilgan bo'laklar har xil gap bo'lagi vazifasida kelgan;

4) ergash gapga havola qilgan bo'lak nomustaqlil kesimiga ergashgan.

- A) 2, 4 B) 1, 3, 4
- C) 1, 2 D) 1, 4

374. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga nuqtali vergul qo'yilish holati qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

A) qo'shma gap qismalarining o'z ichida verguli bo'lsa

B) qo'shma gap qismlari biri ikkinchisini izohlasa

C) qo'shma gap qismlari ancha mustaqlil bo'lsa

D) qo'shma gap qismalarining o'z ichida tiresi bo'lsa

375. Ba'zi kishilar borki, tanqidni yoqtirmaydilar.

Ushbu gap turini aniqlang.

- A) ega ergash gapli qo'shma gap
- B) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
- C) kesim ergash gapli qo'shma gap
- D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

376. Qaysi ergash gapdag'i nisbiy so'zlar bir xil sintaktik vazifani bajargan?

A) Kim chiroyli so'zlasa, uning so'zlarini qulogqa yoqimli bo'ladi.

B) Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.

C) Uyda nima yo'q bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltirar edilar.

D) Kim oilasini, ota-onasini sevsaga, u Vatanini ham sevadi.

377. Qaysi javobda nisbiy so'zlar bir xil sintaktik vazifani bajargan hol ergash gapli ergashgan qo'shma gap keltirilgan?

A) Kun shu qadar isidiki, hatto qushlar ham o'zlarini soya-salqinga urishdi.

B) Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.

C) Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham shunday sevindi.

D) Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham xuddi shu yo'ldan yuradi.

378. Qaysi javobda keltirilgan gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibida ifodalanmay qolgan eganing ma'nosini izohlab kelgan?

A) Hayot nimaga qattiqroq tegib ketsa, o'shanisi qattiqroq jaranglaydi.

B) Kimning yuragida yaxshilik bo'lsa, u doimo boshqalarga ham yaxshilikni ravo ko'radi.

C) Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lp'on, hozir o'l, Kimki qasd etsa anga, kiyisin pushaymondin kafan!

D) Kim birovga choh qazisa, o'zi yiqiladi.

379. Bosh gap tarkibida ifodalanmay qol jan aniqlovchining ma'nosini izohlab kelgan ergash gap qaysi ergashgan qo'shma gap tarkibida mavjud?

A) Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do'stlashmaydi.

B) Odamlarga qanchalik yaxshilik qilsang, el seni shuncalik e'zozlaydi.

C) Kimning ichi nog'ora singari bo'sh bo'lsa, uning behuda so'zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi.

D) Kimning aqli ko'p bo'lsa, ayblari yashirin va do'stlari ko'p bo'ladi.

380. Qaysi javobda qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'llanadigan bo'g'lovchilar keltirilgan?

A) chunki, negaki, balki, ammo, lekin, biroq, ya'ni

B) toki, shuning uchun, bilan, hamda, basharti

C) chunki, negaki, goh... goh, balki, mabodo

D) ammo, lekin, agar, chunki, negaki

381. Qaysi maqol ergash gapli qo'shma gapdan iborat?

A) Vaqtin ketdi – naqdning ketdi.

B) Avval o'yla, keyin so'yla!

C) Sariyog' sasimas, asal aynimas.

D) Qoqilsang, toshdan o'pkalamal!

382. *Do'stilik yaqinlik ikki xil bo'ladi biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kelsa boshqa bir do'stilik shaxsiy manfaatlarni deb bo'ladi.*

Ushbu gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang.

A) vergul, vergul, vergul

B) vergul, ikki nuqta, vergul

C) vergul, ikki nuqta

D) vergul, nuqtali vergul

383. Qo'shma gap berilgan javobni aniqlang.

A) Bolalar xushchaqchaq qo'shiq aytg'an, ayrimlar sho'x-sho'x raqsga tushgan.

B) Hamma chuqur o'yg'a tolgan, har kim o'z xayoli bilan band.

C) Har kim o'z yumushini bajarsa, e'tirozga o'r'in qolmaydi.

D) Insoniyat orol bo'lib emas, qit'a bo'lib yashashni o'rganmog'i lozim.

384. *Kim mehnat qilsa, rohatini ham ko'radi.* Ushbu gap haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

A) ushbu qo'shma gap sodda gap bilan sinonim bo'la olmaydi.

B) ega ergash gapli qo'shma gap

C) hol ergash gapli qo'shma gap

D) ushbu qo'shma gapdag'i ergash gapga havola qiluvchi bo'lak so'roq olmoshi bilan ifodalangan.

385. Qaysi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'laydi?

A) ham, na...na, bilan, -u(-yu), -da

B) -u(-yu), -da, balki, na...na

C) basharti, agar, chunki, -ki, negaki

D) mabodo, na...na, bilan, balki, hamda

386. Kesimlari sodda tub so'zlar bilan ifodalangan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.

A) Har qanday donolikning cheki bor, nodonlik esa chegara bilmaydi.

B) Rostgo'y odamning bitta ojizligi bo'ladi: uni aldash oson.

C) Suv keldi – nur keldi.

D) Otalar so'zi – aqilning ko'zi.

387. Qaysi gapda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A) Qo'limdag'i quticha shunday ishlanganki, har bir naqshida ustaning qalbi yashiringa o'xshaydi.

B) Bola shunday fikrlaydiki, biz uning darajasiga tush olmaymiz.

C) U she'mi shunday o'qidiki, zaldagilarning ko'ziga yosh keldi.

D) Uyingda shunday ko'zgu borki, sen unga har kuni qaraysan.

388. Ozod va obod yurtda yashaydigan yangicha fikrlaydigan odamlarning uylari ham, ulaming hayoti, turmushi ham go'zal va farovon bo'lishi kerak. Ushbu gapdag'i uyushiq bo'laklarning tobelanishi haqida noto'g'ri izoh berilgan javobni aniqlang.

A) tobe va hokim qismlari uyushiq bo'laklar bilan ifodalangan moslashuv mi'nosabati tobe bog'lanish qatnashgan.

B) gapda uyushiq bo'laklarning nomustaqil holga tobelanishi kuzatiladi.

C) gapda uyushiq bo'laklarning qaratqichaniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi.

D) gapdag'i barcha uyushiq bo'laklar uyusiq kesimga bilvosita tobelangan.

389. Qaralmish bosh gapning egasi bol'lib kelgan kesim ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.

A) Bolalik inson hayotining shunday poydevoriki, umr binosining keng bo'ybasti, salobati unga bog'liq bo'ladi.

B) Vatanni sevishning bois shuki, umeng'a onamdek mehribondir.

C) Xulosa shuki, bilmil insonning kelajagi porloq bo'ladi.

D) Kimning ko'ngli yorug' bo'lsa, uning tanlagan yo'lli ham yorug' bo'ladi.

390. Hol ergash gapli qo'shma gap haqida to'g'ri hukmlar to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1. Har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.

2. Hol ergash gapli qo'shma gap oldin, ergash gap keyin keladi.

3. Hol ergash gapli qo'shma gap nisbiy so'zlar vositasida bog'lana oladi.

4. Hol ergash gapli qo'shma gaplar sabab va maqsad ma'nosini anglatganda ergashitiruvchi bog'lovchilar va deb so'zi yordamida bog'lanishi mumkin.

A) 1,2,3,4 B) 3,4

C) 1,3,4 D) 2,3,4

391. Kesim ergash gapli qo'shma gapning ergash gap qismida qaralmish ega vazifasini bajargan gapni toping.

A) Kim tez va chaqqon harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi.

B) Mening kamtarin o'tinchim shuki, hargiz iltimosga kuning qolmasin.

C) Kimning ko'ngli toza bo'lsa, uning rizqi ulug' bo'ladi.

D) Xulosa shuki, o'qigan insonning iqobi baland bo'ladi.

392. Havola bo'lakli hol ergash gapli qo'shma gaplarni toping.

1) Saida shunday hayajonlandiki, qo'lidan piyolasi tushib ketdi.

2) Agar piyola bexosdan sinsa, bu baxtdan nishona.

3) Sizni qo'rqib ketmasin deb, kech-qurun bezovta qilmadik.

4) Birinchi qайдирг'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.

A) faqat 4 B) 1, 2, 4

C) 1, 4 D) 2, 4

393. Hol ergash gap haqidagi hukmlarning nechtaşı to'g'ri?

1) Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida ergashgan hol ergash gaplarda doim bosh gap ergash gapdan oldin keldi;

2) Hol ergash gaplar bosh gapga bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida ham bog'lanadi;

3) Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'z yordamida ham bog'lanadi;

4) Sabab va maqsad ma'nosini ifodlash uchun ergash gaplar sabab, maqsad bog'lovchilari hamda deb so'zi yordamida bog'lanadi.

- A) 1 tasi B) 2 tasi
C) 3 tasi D) 4 tasi

394. Hol ergash gap haqidagi hukmlarning nechtaşı noto'g'ri?

1) Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida ergashgan hol ergash gaplarda doim bosh gap ergash gapdan oldin keldi;

2) Hol ergash gaplar bosh gapga bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida ham bog'lanadi;

3) Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'z yordamida ham bog'lanadi;

4) Sabab va maqsad ma'nosini ifodlash uchun ergash gaplar sabab, maqsad bog'lovchilari hamda deb so'zi yordamida bog'lanadi.

- A) 1 tasi B) 2 tasi
C) 3 tasi D) 4 tasi

395. Berilgan fikrlardan nechtaşı to'g'ri?

1. Havola bo'lakli gaplarni doimo sodda gaplarga aylantirish mumkin.

2. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos.

3. Havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish uchun bosh gapni ergash gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'miga qo'yish mumkin.

4. Ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

- A) 1 tasi B) 2 tasi
C) 3 tasi D) 4 tasi

396. Berilgan fikrlardan nechtaşı noto'g'ri?

1. Havola bo'lakli gaplarni doimo sodda gaplarga aylantirish mumkin.

2. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos.

3. Havola bo'lakli qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish uchun bosh gapni ergash gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniqa qo'yish mumkin.

4. Ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

- A) 1 tasi B) 2 tasi
C) 3 tasi D) 4 tasi

397. Qaysi javobda qo'shma gapning ergash gap qismida qo'llanadigan bog'lovchilar keltirilgan?

- A) shuning uchun, bilan, hamda, basharti
B) chunki, negaki, goh...goh, balki
C) ammo, -ki, agar, chunki, negaki
D) agar, chunki, negaki, mabodo

398. Aniqlovchi ergash gapli ergashgan qo'shma gaplarni toping.

1. Inson fazilati shunday katta bir dunyoki, uni odam hayotini boyitadigan xazina desa bo'ladi.

2. Kimning himmati baland bo'lsa, qadr-qimmati ham baland bo'ladi.

3. Shunday o'qiginki, hamma qoyil qolsin.

4. Inson borki, insonlarning naqshidir.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
C) 1, 2 D) 2, 3

399. *Kimki odob o'rgatsa, uni o'rjanmagan kishi hayvon, uzr so'rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir.*

Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmni toping.

- A) aralash murakkab qo'shma gap
 B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
 C) bir necha ergash gapli qo'shma gap
 D) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
400. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gap berilmagan?
- A) Shunday o'zgarishlar bo'lmoqdaki, aqling bovar qilmaydi.
 B) Har kim o'z og'zining qorovuli bo'lsa, uning nafasi hech qachon bo'g'ilmaydi.
 C) Kim odamlarga yaxshilik qilmasa, uning uchun yaxshilik eshigi yopiladi.
 D) Barcha gaplarda aniqlovchi ergash gap berilgan
401. Qaysi nisbiy so'z yordamida ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gap tarkibidagi nisbiy so'zlar xil sintaktik vazifani bajargan?
1. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, hammasini jam etib, kitob yozmog'ingiz darkor.
 2. Kim birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi.
3. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.
4. Har kimki hayotga xo'mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan qaraydi.
5. Kimki boshqalarga rahm-shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-shafqat qilmaydi.
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 3
402. Qaysi nisbiy so'z yordamida ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gap tarkibidagi nisbiy so'zlar har xil sintaktik vazifani bajargan?
1. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, hammasini jam etib, kitob yozmog'ingiz darkor.
 2. Kim birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi.
3. Birinchi qaldirg'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.
4. Har kimki hayotga xo'mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan qaraydi.
5. Kimki boshqalarga rahm-shafqat qilmasa, unga ham hech kim rahm-shafqat qilmaydi.
- A) 4, 5 B) 1, 4, 5
 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5
403. Qaysi javobda nisbiy so'z yordamida ergashgan to'diruvchi ergash gapli qo'shma gapning barcha bo'laklari kesimiga bevosita bog'langan?
- A) Nimaiki senga zarar keltirsra, o'sha narsani boshqalarga ham ravo ko'rma.
 B) Shuni sezdimki, oila a'zolari bir-biri bilan juda ittifoq ekan.
 C) Shunga xursandmizki, bolalar o'z yo'llini topib ketishdi.
 D) Nima ro'zg'orga kerak bo'lsa, dadam o'shani bozordan keltiraverar edi.
404. *Tilimiz boy, chiroyli, unda ifoda etib bo'lmaydigan fikrni topish qiyin.* Ushbu gapda nechta so'z birikmasi mavjud?
- A) 5 ta B) 3 ta
 C) 6 ta D) 4 ta
69. *Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatlarga ruju qo'yishlarida, avvalo, ottona, mahalla-ko'y, bir so'z bilan aytganda, o'zimizning bilib-bilmay qilgan xatti-harakatlarmiz bosh omil bo'lib xizmat qiladi.* Ushbu gapda vergullarning qo'yilish sababi noto'g'ri izohlangan javobni toping.
- A) gapda kirish so'z mavjudligi uchun vergul qo'yilgan
 B) qo'shma gapning bosh va ergash gap qismi vergul bilan ajratilgan
 C) bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini ajratish uchun vergul qo'llangan

D) gapda uyushiq bo'laklar mavjudligi uchun vergul qo'yilgan

206. Tinish belgilari bilan bog'liq tiloliq mavjud bo'lgan gapni aniqlang.

A) Insonning nima ish qilayotganiga qarab, uning kimligini aytib bersa bo'ladi.

B) Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.

C) Onaga eng ulug' zotga ehtirom chinakam insoniylik sanaladi.

D) Biz – yoshlar — millatning tayanchi, Vatanning ishongan toglarimiz.

207. *Do'stlik ikki xil bo'ladi biri ezgu niyatlar tufayli yuzaga kolsa bosqqa bir do'stlik shaxsiy munfaatlarni deb bo'ladi.* Ushbu gapdagisi tushirib qoldirilgan tinish boligalarini aniqlang.

A) vergul, vergul, vergul

B) nuqtali vergul, vergul

C) ikki nuqta, vergul

D) vergul, nuqtali vergul

C) Panipatda D) Laxo'rda

14. O'lmas edi, balki, odamzod, Bo'lar edi dunyoga ustun, Aqli bo'lsa jahlidan ziyod, Sabri bo'lsa nafsidan ustun.

Ushbu misralar muallifi kim?

A) Mirtemir

B) Asqad Muxtor

C) Abdulla Oripov

D) Erkin Vohidov

15. «Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan Senga talpinaman, buyuk nabiram». Misralar Abdulla Oripovning qaysi she'ridan olingan?

A) «Genetika»

B) «Onajon»

- C) «Qo'riqxona»
D) «Temir odam»
16. Qaysi asar qahramoni haqida «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi qulqlarni shirin-shirin qilmoqda edi... deyishgan?
- A) «Kecha va kunduz», Zebi
B) «O'tkan kunlar», Zaynab
C) «Dunyoning ishlari», Zebi xola
D) «Qorako'z majnun», Qumri xola
17. She'lariidan birida hayot mashaqqatlaridagi o'z umrini bir parcha somonga o'xshatgan shoir kim?
- A) Asqad Muxtor
B) Oybek
C) Cho'pon
D) So'fizoda
18. G. G'ulom «Sog'inish» she'rida tong otar chog'ida juda sog'inib kimni o'qir edim deydi?
- A) Xayyomni B) Bedilni
C) Navoiyni D) Fuzuliyni
19. «Sarob» romanida Saidiyga puldan yordam bergen, institutdan uning qolib ketgan uch oylik stipendiyasini olib kelib bergen personaj kim?
- A) Ulfat B) Salimxon
C) Shafrin D) Ilhom
20. O'tmishni birma-bir eslab varaqlagan va asrlar qadamidan bir ma'no izlagan ijodkor nomi qaysi qatorda berilgan?
- A) Hamid Olimjon
B) Abdulla Oripov
C) G'afur G'ulom
D) Maqsud Shayxzoda
22. Behbudiyning «Padarkush» dramasida kim: «Odamlar boyini mulladan ziyodroq izzat qilurlar», – deydi?
- A) Toshmurod B) boybucha
C) Xayrulla D) boy
23. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasida Amir Temur tomonidan aytilgan «Biroq yerga to'kilar payt qurt tushgan meva, Uni asrib qololmagay sog'gom ildiz ham-fikrlari kim haqida?
- A) Kayxisrav B) Boyazid
C) Amir Husayn D) Chingizxon
24. «Amal-taqal o'tkazilgan to'y, to'ydan keyingi chiqimli dadamni anchagini urintirib qo'yan, oshkor aytishga oriyal yo'l qo'ymaydi, oshkor qilmay desa, ilojsizlik...» Ushbu parcha qaysi asardan olingen?
- A) «Dasht-u dalalarda»
B) «To'qqizinch palata»
C) «Qorako'z majnun»
D) «Beozor qushning qarg'ishi»
25. «Ko'k eshil» hikoyasidagi ko'k eshilning egasi bo'lgan mehribon kampir ismi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) Halima opa B) Zuhra kampir
C) Saodat aya D) Zebi xola
26. Valentin Rasputinining «Rabbim!» – de, Mariya!» jumlası qaysi asarga epigraf qilib tanlangan?
- A) «Yo Jamshid»
B) «Qorako'z majnun»
C) «Qariya»
D) «Ot kishnagan oqshom»
27. «A'yonlar bir-birlariga bunday kuchli sovuq ancha yillardan buyon bo'limganini gapirishardi, holbuki, yaqinginada bundan-da beshbattar sovuqlar bo'lib o'tgan, issiqliqina o'duda may ichib, et yeb, suyak chaynab, sohibqironi a'zamni sharaflab, ko'klarga ko'tarish bilan ovora bo'lib qolishgan A'yonlar u sovuqlarni payqashmagandi». Ushbu parcha qaysi asardan olingen?
- A) «Hisomiddin al-Yog'iyya»
B) «Shaytanat»
C) «Yulduzli tunlar»

D) «Ulug'bek xazinasi»

28. «Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, – dedi g'amgin tusda, har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz». Ushbu parcha qaysi asardan olingen?

A) «Shaytanat»

B) «Maymun yetaklagan odam»

C) «Ko'k eshik»

D) «Qariya»

29. «Eshitdingizmi, Shaymanvoy? Bundan keyin tezlikni bas qiling. Olim odamning otasiga shapshaklik yarashmaydi. Tunov kuni kerjangizga qamchi o'qtalib yuribsiz. Shu ish sizga epmi? Ko'rgan ko'z demaydimi uli olim bo'lsayam, otasi qip-qizil jinni ekan deb. Bundan so'g'in bosiq bo'ling, ha». Ushbu fikrlari Normurod Norqobilovning «Olim o'g'il» hikoyasidagi qaysi personajga tegishli?

A) Poyon chol B) O'rroq chol

C) Toji chol D) Qodir chol

30. Shoir bo'lmoqchi bo'lgan yigitga qarata: «Shu yurtni bir umr sevsang, ukajon, Haqiqiy shoir ham sensan, ukajon!» – deya nasihat qilgan ijodkor kim?

A) Jumaniyoz Jabborov

B) Halima Xudoyberdiyeva

C) Oydin Hojiyeva

D) Omon Matjon

31. «Umr gohi shirin, gohi talx bo'gay,

Ulug' niyatlarg'a Olloham yordir:

Egasi bor yurtning eli xalq bo'gay,

Egasi bor yurtning ertasi bordir».

Misralar mu'allifi kim?

A) Azim Suyun

B) Usmon Azim

C) Iqbol Mirzo

D) Sirojiddin Sayyid

32. «O'lim qo'rqinchlimas, faqat kechinmaga chidab bersang bas, faqat tasavvurga dosh bersang bo'idi» misralari muallifi kim?

A) Rustam Musurmon

B) Iqbol Mirzo

C) Ulug'bek Hamdam

D) Faxriyor

33. «Sarob» romanida Saidiyning kitoblarini ko'rib, ularning nomini ham to'g'ri o'qiy olmay Saidiyni hayron goldirgan serpul, sersavlat shoir kim?

A) Ulfat B) Abbosxon

C) Kenja D) Ilhom

34. M.Shayxzodaning «Toshkentnomalar» dostoni she'riyatning nechta vaznida yozgan?

A) yetti vaznida

B) to'qqiz vaznida

C) o'n vaznida

D) o'n bir vaznida

35. «Kecha va kunduz» romanida «Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yengadi», – deb kim aytgan?

A) Miryoqub

B) Akbarali mingboshi

C) Hakimjon

D) Razzoq so'fi

36. Cho'lpionning qaysi she'ri «Sevdim» deganlaring yolg'ondir sening!..» misralari bilan yakunlanadi?

A) «Xazon»

B) «Yong'in»

C) «Somon parcha»

D) «Bir tutam sochlaring»

VARIANT № 26 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «O'g'lim, sendan boshqa
kimim bor,

Ko'zlaringga oqadi dilim.

She'rday Majnun kunlarim haqqi
Sen dunyoni shoir qil, o'g'lim!»

Misralar muallifi kim?

A) Zebo Mirzo

B) Halima Ahmedova

C) Halima Xudoyberdiyeva

D) Faxriyor

2. «Abulfayzxon» tragediyasidagi qaysi
qahramon aygor, pixini yorganlardan?

A) Ulfat B) Davlat

C) Hakimbiy D) Farhod otaliq

3. Behbudiyning «Ikki emas, to'rt til
lozim» maqolasida hadisi sharifda payg'am
barimizning kimga yahudiy xatini o'rganishni
buyurganliklari ham tilga olinadi?

A) Zayd ibn Sobitga

B) hazrat Aliga

C) hazrat Abu Bakrqa

D) sahabalarga

4. «Abulfayzxon» tragediyasida
Buxoroning katta mullasi deb kimga
ta'rif berilgan?

A) Mir Vafoga B) Oxunga

C) Ulfatga D) Hakimbiyga

5. «Kecha va kunduz» romanida Ze-
biga: «Juda yaxshi, bulbul singari
ashula qilar ekan. Ovozi Dovud
payg'ambarniki singari deydilar», –
deya kim ta'rif bergen?

A) Poshshoxon B) Enaxon

C) Saltanat D) Miryoqub

6. «Tabiatning butun yomon to-
moni

Shu o'kaga faqat jilva qildimi?

Mo'minlarning oq vijdoni, imoni

Sham so'nganday tinsizgina
so'ndimi?»

Misralar Cho'lpionning qaysi she'ridan
olingan?

A) «Vijdon erki»

B) «Yong'in»

C) «Somon parcha»

D) «Kuz yomg'iri»

7. «Kecha va kunduz» romanida Ak
barali mingboshining katta xotini ismi ...

A) Xadichaxon B) Poshshaxon

C) Masturaxon D) Enaxon

8. «Bu kitob maktablarning alil
bodan so'ng o'qitish uchun ochiq
til bilan oson tarkibda yozilgan
o'quv kitobidir», – deya qaysi kitobgi
ta'rif berilgan?

A) «Birinchi muallim»

B) «Ikkinchi muallim»

C) «Adabiyot yoxud milliy she'rlar»
majmuyi

D) «Maktab guliston»

9. «Navoiy» romanida kimga: «...qa-
dim beklar naslidan, g'oyat bilimli,
sardor, ulug'vor odam, lekin ovga,
qushga shuncha o'ch ediki, ma-
bodo qushlaridan biri o'lib qolsa,
rosa motam tutar, bu o'lgandan
ko'ra falon o'g'lim o'lsa bo'limasmi-
di derdi», – deya ta'rif berilgan?

A) Muzaffar barlos

B) Zulnun Arg'un

C) Saydbadriddin

D) Muhammad burunduq barlos

10. M.Shayxzoda qaysi she'rida
qalamga qilluq qiladi?

A) «Toshkentnoma»

B) «Ayriliq»

C) «Qo'llar»

D) «She'r chin go'zallik singlisi ekan»

11. Yoriga qarata: «Butog'ing-
ga qo'nib bulbul kabi xonish

lib tunlar, O'pib g'unchangni
- imoqliqqa tong chog'i shamol
- «il'sam», – deya orzulanuvchi shoir
kim?

A) Hamid Olimjon

B) Abdulla Oripov

C) G'afur G'ulom

D) Maqsud Shayxzoda

12. Kitoblarni beg'araz xayrixohlarga
va kengashchilarga hamda mangu ishchi-
larga o'xshatgan shoir kim?

A) Hamid Olimjon

B) Abdulla Oripov

C) G'afur G'ulom

D) Maqsud Shayxzoda

13. «Zaharli, odamni bo'g'ib,
holisz qilib qo'yadigan bu adovat
inenga o'shanda uning butun ta-
nasidan, vujudidan, qoqshol bo'lib
qolgan barcha qon tomirlaridan
hamda chakalakzor ichidagi tilsim-
li qo'rg'on kabi menga noma'lum
bo'lgan umr qal'asidan ufurayot-
gandek tuyulgandi. Uni ko'rsam,
negadir yuragim g'ash tortadigan,
ko'nglim behuzur bo'ladigan, kay-
fiyatim buziladigan bo'lib qolgandi,
vaholanki, hali u bilan salom-alik-
dan nariga o'tmagandik». Ushbu
parcha qaysi asardan olingan?

A) «Hisomiddin al-Yog'iy»

B) «Maymun yetaklagan odam»

C) «Ko'k eshik»

D) «Qariya»

14. Normurod Norqobilovning «Olim
o'g'il» hikoyasida: «Bizda o'qishga
havas yo'q. Ana, sho'rquduqliklar,
itidan bitigacha o'qigan. Rayondi-
tus kattalariyam shulardan», – de-
gan personaj kim?

A) Poyon chol B) O'rroq chol

C) Toji chol D) Qodir chol

15. «Til – o'tmish, til – bugun, til
– bu istiqbol,

Til – ona xalqingdan nurli
nishona».

Bu misralar qaysi ijodkor qalamiga
mansub?

A) Jumaniyoz Jabborov

B) Halima Xudoyberdiyeva

C) Oydin Hojiyeva

D) Omon Matjon

16. «Ayloga baxt bering, saodat
bering,

Demang yuribdi-ku kulib, jil-
mayib.

Ayol kulib turib o'lishi mumkin,

Dunyoni olishi mumkin jilmayib».

Misralar kimning qalamiga mansub?

A) Halima Xudoyberdiyeva

B) Oydin Hojiyeva

C) Zulfiya Mo'minova

D) Zulfiya Isroilova

17. «O'tgan juma To'ra
cho'tirning hayhotdek hovlisi o'n
to'rttaga savdo bo'ldi-yu!» Ushbu
parcha qaysi asardan olingan?

A) «Yo Jamshid»

B) «Qorako'z majnun»

C) «Qariya»

D) «Ko'k eshik»

18. A.Oripovning «Sohibqiron»
dramasida Sirdaryoning bo'yalarida Jetega
qarshi jangda kim yerga egilib, bir siqim
tuproqni olib, yov tomonga sochgancha
«Dushman qochdi!» deya nido qilganida
dushman qochib, chekinishga tushadi?

A) Ahmad Yassaviy

B) Xoja Ahror Valiy

C) Said Baraka

D) Amir Temur

19. «Bu qissa katta-kichik no-
vellalardan iborat. Biroq ularning
barchasida men uchun eng aziz
odam – onam siymosi bor». Ushbu
fikrlar qaysi asar haqida?

A) «Dunyoning ishlari»

B) «Chinor»

- C) «Yetti zog'ora qissasi»
 D) «O'tmishdan ertaklar»
20. «Xususan, ikki vaqt elning yonida bo'ling. Bir - to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush-xushvaqt o'tkazib bering. To'y ko'pniki, ha. Yana biri - azasida. Yig'lab-siqtab elning qayg'usiga hamard bo'ling». Ushbu parcha qaysi asardan olingen?
 A) «Dunyoning ishlari»
 B) «Ot kishnagan oqshomlar»
 C) «Yetti zog'ora qissasi»
 D) «Qariya»
21. «Padarkush» dramasining birinchi pardasida boy bilan domla nima haqida bahslashadi?
 A) bola tarbiyasida ilm-u hunarning ustunligi haqida
 B) yangi maktablarning insonlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida
 C) boylik va ilmning ustunliklari haqida
 D) hamma javob to'g'ri
22. Mirtemirning «Kipriklarim» she'ri kimga bag'ishlangan?
 A) yoriga
 B) yoshlarga
 C) farzandlariiga
 D) yosh qalamkashlarga
23. Zulfiyaning «Mushoira» she'rida kim she'r o'qiganida «Irmoqday quyilar tinchlik so'zlaris»?
 A) Afrika farzandi
 B) Nepal farzandi
 C) hind shoiri
 D) fors shoiri
24. O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinas» romanida: «Naqshbandiyalar jamoasining rahnamosi», - deya kimga ta'rif berilgan?
 A) Nizomiddin Xomush
 B) Muhammad Xomush
 C) Abduxoliq G'ijduvoniy
- D) Xoja Ahror Valiy
25. Pirimqul Qodirovning «Yulduz tunlar» romanida Bobur savdogarlarini olinadigan qaysi soliqni bekor qilgandan so'ng, Hindistonga yo'l uzoq bo'lsa ham, kavronlarning kelishi kuchayadi?
 A) tamg'a solig'i B) jizya solig'i
 C) bojxona solig'i D) yo'l solig'i
26. Muqannani kim: «Bir niqobdor, afsonachi, sehrgar», - deya ta'riflaydi?
 A) Gulobod B) Guloyin
 C) Otash D) G'irdak
27. Qaysi ijodkor o'z she'rida: «Kul, birodar, she'rimizga kiygizaylik his ham shinel», - deb aytgan?
 A) Hamid Olimjon
 B) Abdulla Oripov
 C) G'afur G'ulom
 D) Maqsud Shayxzoda
28. «Sarob» romanida «...dilkash, ko'ngliga kiri yo'q, madaniyatlari sevadigan, o'zbek xalqidon dohiylar chiqishini istaydigan» qahramon kim?
 A) Ulfat B) Salimxon
 C) Is'hoq afandi D) Ilhom
29. «Nega kerak edi shu chiroy, shu o't,
 Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?»
 Bu misralar qaysi she'rdan olingen?
 A) «Biroz kul»
 B) «Go'zal»
 C) «Ofeliyaning o'limi»
 D) «Ayriliq»
30. «Navoiy» romanida kimga: «...butun harakati nozik, nafis edi, ajoyib raqs etardi, o'zi ixtiro etgan raqlari bor edi», - deya ta'rif berilgan?
 A) Muzaffar barlos
 B) Zulnun Arg'un
 C) Saybdariddin
 D) Muhammad burunduq barlos

31. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining qizi ...

- A) ismi berilmagan
- B) Fazilatxon
- C) Saltanat
- D) Enaxon

32. «Sarob» romanidagi Munisxonning niasi ismi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) Ulfat
- B) Salimxon
- C) Tesha
- D) Ilhom

33. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasida Amir Temur kimlar tomonidan minnilikka saylangan edi?

- A) Balx qurultoyi
- B) Samarqand qutultoyi
- C) davlat amaldorlari
- D) chingiziy hukmdorlar

34. «Muqanna» dramasida kim musulmonlar uchun dabdabali masjid qurgandi?

- A) Fero'z
- B) Kulartakin
- C) Zayd
- D) Jaloyir

35. «Har kim o'z elida bekdir, to'radir,

O'z elida bek bo'lmagan o'ladir.
Bo'lar elning farzandlari botirish,
Ko'zin o'yib olishsa ham,
ko'radi».

Misralar muallifini toping.

- A) Jumaniyoz Jabborov
- B) Usmon Azim
- C) Oydin Hojiyeva
- D) Omon Matjon

36. «Kunduz quyosh, kechalari oy bergan-ey, oy bergan,

Qirq kechalab qo'noq berib,
to'y bergan-ey, to'y bergan,
Mehmonlarga uy to'ridan joy
bergan-ey, joy bergan».

Misralar muallifi kim?

- A) Rustam Musurmon
- B) Iqbol Mirzo
- C) Ulug'bek Hamdam
- D) Faxriyor

VARIANT № 27 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Navoiy» romanida kimga: «... telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek edi. Har vaqt ikki qo'l bilan shatranj o'ynardi», – deya ta'rif berilgan?

- A) Muzaffar barlos
- B) Zulnun Arg'un
- C) Saydbadiddin
- D) Muhammad burunduq barlos

2. «Sarob» romanida «Vodiy» sarlavhali she're; «Qalandar» sarlavhali hikoya muallifi qaysi qatorda berilgan?

- A) Ulfat
- B) Saidiy
- C) Tesha
- D) Ilhom

3. «Padarkush» dramasining nechanchi pardasi pivotoxona manzarasi bilan boshlanadi?

- A) 1-pardasi
- B) 2-pardasi

C) 3-pardasi

D) 4-pardasi

4. Navoiy shayxulislomga xat yozib kimni «Shohrux madrasasiga mudarris tayinlamoqni, agar maosh masalasi hal qilishda mushkilot chekilsa, maoshni o'z mablag'iidan to'lashga rozi ekanini» bildirib, mulozimdan berib yuboradi?

- A) Sultonmurod
- B) Xo'ja Abdulla Marvoriy
- C) Zayniddin
- D) Xo'ja Afzal

5. «Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat,

Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!

O'zing gunohkorsan, osiysan behad,

Nechun yaratding-u, o'tlarga
otding?»

- Misralar qaysi she'rdan olingen?
 A) «Biroz kul»
 B) «Go'zal»
 C) «Ofeliyaning o'limi»
 D) «Ayriliq»

6. «Muqanna» dramasida kimga:
*«Tabiatni, bahorni ko'p sevadi.
 Ko'katlarda soatlarcha yotadi.
 Unga dala, gul-u chechak bo'lsa
 bas!»* – deya ta'rif berilgan?

- A) Gulubod B) Guloyin
 C) Otash D) Muqanna

7. Qaysi shoir ijodida «Yoshlikdag
*muhabbat o'chmas, Ajal kelsa, u
 tinar faqat...» misralari mavjud?*

- A) Mirtemir B) Asqad Muxtor
 C) Abdulla Oripov
 D) Erkin Vohidov

8. «Mening taqdirim g'alati,
*mavlono, atrofimni obod qilganim
 sari o'zim so'lib bormoqdamen»,* –
 deya Bobur kimga aytadi?

- A) Xondamirga
 B) Shihob Muammiya
 C) Ibrohim Qonuniyga
 D) Mirxonnda

9. «Kecha va kunduz» romanida Ze-
 bining maqtovini Akbarali mingboshiga
 kim yetkazadi?

- A) Miryoqub B) Xadichaxon
 C) Poshshaxon D) Sultonxon

10. «Muqanna» dramasida: «*Esiz
 shahar, esiz shahar, yo tavba! Uni
 vayron qiluvdi-ku Qutoyba*», – deya
 qaysi shaharga ta'rif berilgan?

- A) Poykand B) Maroqand
 C) Hijoz D) Buxoro

11. «Nur qidirib» epik asari muallifi
 qaysi qatoraga berilgan?

- A) Oybek B) G'afur G'ulom
 C) Shuhrat D) Mirtemir

12. «Kim aytar Majnun y...
Layli bo'imagay,

*Yig'ladim, ko'z yoshim ichda
 so'imagay,*

*Muhabbat o'imagay, har...
 o'imagay:*
 – *Muhabbat bor edi, muhabbat
 mavjud»*

Misralar kimning qalamiga mansub?

- A) Halima Xudoyberdiyeva
 B) Oydin Hojiyeva
 C) Zulfiya Mo'minova
 D) Zulfiya Isroillova

13. «Savodsiz odam ko'z ...
*ko'rib, ko'zsiz odam eshitib, km
 mushohada qilib ibrat va lazzat
 olur».* Behbudiy bu so'zlarni nima haqidagi
 aytgan?

- A) teatr B) gazeta
 C) musiqa D) kitob
14. A.Oripovning «Sohibqiron»
 dramasida Kayxisrav qochib yurgan Amil
 Husaynni qayerda tutib oladi?

- A) madrasada B) masjidda
 C) karvonxonada D) bozorda
15. «Uning yolg'iz hayoti men...
*chirigan daraxtning birdan emas,
 yilma-yil yemirilishidek mudhish
 bo'lib tuyulgandi. Aftidan, yolg'izlik
 uning so'nggi boshpanasiiga ay-
 langandi».* Ushbu parcha qaysi asardan
 olingen?

- A) «Shaytanat»
 B) «Maymun yetaklagan odam»
 C) «Ko'k eshik»
 D) «Qariya»

16. «Haq gap uchun har bir ish-
 ga ko'nadi el,
*To'g'i so'zdan ko'payadi, to'ladi el.
 Dordan qo'rqib yolg'on aytib
 turganim yo'q,*

Shoirlari yolg'on aytsa, o'ladi eh».
 Misralar muallifini toping.
 A) Jumaniyoz Jabborov

- 11) Usmon Azim
 C) Oydin Hojiyeva
 D) Omon Matjon
17. «Muqanna» dramasida: «*Xudo hum men, mening o'zim payg'am-hat*», – degan personaj kim?
 A) Hoshim Hakim o'g'li
 B) Qutayba
 C) Jaloyir
 D) Saidbattol
18. Oybekning «Navoiy» romanida Mirak Naqqosh kimni Navoiya *zeh-ni g'oyat baland, qo'li oltin ekan, on'atda juda tez ilgarilab ketdi* diya maqtaydi?
 A) Kamoliddin Behzod
 B) Zayniddin
 C) Sultonmurod
 D) Badriddin
19. «Muqanna» dramasida qaysi shahriga nisbatan «*To't martaba qaytib ko'rdi u dindan. Bosqinchilar tirkasini qurtdi, Ulamolar avray herib qon yutdi*» misralari qo'llangan?
 A) Marv B) Buxoro
 C) Poykand D) Hijoz
20. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining butun boyligi kimning qolida edi?
 A) Miryoqub B) Xadichaxon
 C) Poshshaxon D) Sultonxon
21. «*Bunaqa bekorchi gapdan foyda yo'q. Har balo bo'igan-dayam, shu yomon jiyan – jigarimiz. Ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi. Hozir buni har qancha so'kib-so'zlagandan tariqcha naf yo'q. Qani, nima qilamiz, shundan gapiringlar*». Ushbu fikrlar «Yo Jamshid» hikoyasidagi qaysi personaj nutqi?
 A) Orif baqiroq
 B) Zarif nayza
 C) Salomat amma
 D) Islomboy
22. Nasrni og'ir qadamga, nazmni chopag'onga o'xshatgan ijodkor kim?
 A) Hamid Olimjon
 B) Abdulla Oripov
 C) G'afur G'ulom
 D) Maqsud Shayxzoda
23. A.Oripovning «Sohibqiron» dramasida Sirdaryo bo'yalarida Jetega qarshi jangda Amir Husaynning lashkari nima uchun ortga chekingan edi?
 A) yomg'irdan ust-boshi ho'l bo'lgani uchun
 B) dushman lashkarining ko'p sonli ekanligidan qo'rqqani uchun
 C) ust-boshi ho'l, holdan toygan, och-u nahor bo'lgani uchun
 D) Amir Husayn xiyonat qilgani uchun
24. «*Samar qor urib turgan zim-ziyo ko'chada yolg'iz yurish-dan qo'rqsa hamki, uydagi motamsaro ahvoldan ko'ra tashqarini afzal bilib indamay chiqib ketdi*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
 A) «Yo Jamshid»
 B) «Qorako'z majnun»
 C) «Qariya»
 D) «Ko'k eshik»
25. «Yo Jamshid» hikoyasidagi Islom-boyning kasbi ...
 A) savdogar B) haydovchi
 C) usta D) qassob
26. «*Ularning badanlarida hamma a'zolar mujassam edi – yurak bor edi, miya bor edi, qorin-da juda-juda bor edi; faqat ruh yo'q edi, ruh yo'q edi – egasi tashlab ketgan tashlandiq hovliday huvil-lashib yotishardi*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
 A) «Hisomiddin al-Yog'iy»
 B) «Shaytanat»
 C) «Yulduzlar mangu yonadi»
 D) «Qariya»

A) Navoiy

B) Bobur

C) Husayn Boyqaro

D) Mashrab

12. Yo'q... o'lim yo'qdir!

Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.

Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.

Ushbu misralar qaysi she'rдан olingan?

A) «Xazon»

B) «Somon parcha»

C) «Bahorni sog'indim»

D) «Vijdon erki»

13. «Kecha va kunduz» romanida: «U aksari piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. «Assalomu alaykum!» deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo'lsa kerak, «vass...» debgina qo'yadi. Shu bilan birga, siz tomonga bo'ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko'zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo'rg'alaganicha ketadi...» – deb kimga ta'rif berilgan?

A) Miryoqub

B) Akbarali mingboshi

C) Hakimjon

D) Razzoq so'fi

14. «Ulingiz qishloqning oldi bo'ldi. Hammaning og'zida shu gap. Vaqtida tuzuk o'qimagansilar-da deb kecha barini to'zg'itib so'kdilim», – deya «Olim o'g'il» hikoyasida Shayman cholga havaslanib gapirgan personaj kim?

A) Sadir chol B) O'roq chol

C) Qodir chol D) Toji chol

15. «Ho'y, azani to'xtatinglar. Bemahaldagi yig'iyam bexosiyat bo'ladi». Ushbu fikr «Yo Jamshid»

hikoyasidagi qaysi personajga tegishli?

A) Orif baqiroq

B) Zarif nayza

C) Salomat amma

D) Islomboy

14. Navoiyning «Bo'lubdur» radifi g'azaliga yozilgan muxammas muanifi kim?

A) E.Vohidov B) Avaz O'tar

C) Ormon Matjon

D) H.Xudoiberdiyeva

15. Fitratning «Abulfayzxon» dramasida «shohning bosh kotibi» deya ta'riflangan personaj kim?

A) Davlat B) Ulfat

C) Mirzo Mahdiy D) Aliqulixon

16. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida Ulug'bek Abbas tomonidan o'dirilgandan keyin kim: «Boshpanamiz to'zil ketdi, sindi belimiz!» – deya nolni chekadi?

A) Berdiyor B) Ota Murod

C) Firuza D) Abdurazzoq

17. «Abulfayzxon» tragediyasida Xayol tilidan aytilan «Surati adli xisravon in ast, Zulm dar olami g'araz din ast» misralari qaysi fors shoiri qalamiga mansub?

A) Bedil B) Forobiy

C) Sa'diy D) Fuzuliy

18. «Yulduzli tunlar» romanida Boburning butun mamlakatda ichkilikni man etuvchi amri haqida «bizga ma'ql kelmadi» deb munosabat bildirgan qahramon kim edi?

A) Shayboniyxonning elchisi

B) Ko'chkinchixonning elchisi

C) Shoh Taxmaspning elchisi

D) Ismoil Safaviyning elchisi

19. Chollarning o'ziga xos obrazlari tasvirlangan hikoya qaysi javobda keltirilgan?

A) X.Sultonov «Yo Jamshid!»

B) N.Norqobilov «Olim o'g'il»

C) S.Ahmad «Qorako'z majnun»
 D) N.Eshonqul «Maymun yetaklagan odam»

20. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida Xudoyorxonning: «Sen bizga xiyonat qilding, it uvli», deb boshlagan muloqotida Anvar uning qaysi illatini yuziga soladi?

- A) o'g'riligini, zolimligini
 B) og'ir soliqlarni, zo'ravonligini
 C) insofsizligi, qo'shmachiligini
 D) adolatsizligi, xotinbozilagini

21. Oybekning «Navoiy» romanida: «Yaxshilik bilan nom goldirmoqning o'zi ulug' - mukofotdir», - degan nasihatini Navoiy kimga qarata aytgan?

- A) Badizuzzamonga
 B) Husayn Boyqaroga
 C) Xondamirga
 D) Darveshaliga

22. M.Shayxzoda «Toshkenthnomma» she'rida kimni «xiyobonning bir chekkasida har galgiday xotirjam ko'rdim» deydi?

- A) Oybekni
 B) Hamid Olimjonni
 C) G'afur G'ulomni
 D) Xondamirni

23. Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi va rahnamosi bo'lgan adib nomi qaysi javobda keltirilgan?

- A) Abdulla Avloniy
 B) Abdurauf Fitrat
 C) Mahmudxo'ja Behbudiy
 D) Abdulhamid Cho'pon

24. Alisher Navoiyni «erk-u baxt timsoli» deb ta'riflagan ijodkor kim?

- A) G'afur G'ulom
 B) Oybek
 C) Hamid Olimjon
 D) Maqsud Shayxzoda

25. Muhammad Sharif So'fizoda nimani: «...dil g'unchasini

yashnatib, fasli bahor aylovchi, ko'ngil bog'ini sabzavor aylovchi», - deb ta'riflaydi?

- A) o'qishni B) ilmni
 C) matabni D) gazetani

26. «Kecha va kunduz» romanida Zebining ta'rifini mingboshiga kim yetkazadi?

- A) Poshshoxon B) Sultanxon
 C) Miryoqub D) Xadichaxon

27. G.G'ulomning «Vaqt» she'rida bir lahzanining mazmuni nimaga tenglashtiriladi?

- A) ming yulduz so'nishi uchun yetgulik
 B) kapalab umriga qiyos etgulik
 C) oltin taroziga
 D) butun bir bahorga

28. Bu turli qasrlar, ko'shklar va boshqa go'zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g'oyat katta bog' edi. «Navoiy» romanidan olingan parchada qaysi bog' ta'riflangan?

- A) Bog'i Eram B) Bog'i Bo'ldu
 C) Binafsha bog' D) Bog'i zog'on

29. «Dushman ikki shohdan bir-biriga yaqin va do'st ikki darvesh yaxshi» fikrlari «Navoiy» romanining nechanchi bobidan olingan?

- A) 10 B) 15 C) 16 D) 36

30. Bir yosh shoira o'tmishdagi xoqonlarni sog'inib she'r yozibdi. Holbuki, xon-xoqonlar zamonasida unga o'xshagan o'nlab ayollar bitta erkakning cho'risi edi. Nimasini sog'inadi o'sha hayotning? Kulgil! Men bilaman, bu ayol xon-xoqonlarni sog'ingani yo'q, ba'zi bir katta shoirlarga ta'sib qilib shunday she'r yozgan... Ushbu fikr «Sarob» romanining qaysi qahramoniga tegishli?

- A) Saidiy B) Kenja
 C) Ilhom D) Ulfat

27. Shoyim Bo'tayevning «Hisomiddin al-Yog'iy» hikoyasidagi marokashlik sayyohning ismi ...

- A) Ibn Battuta
- B) Muhammad Marvaziy
- C) Ibn Mansur
- D) Abdulloh Damashqiy

28. «*Ishq qadimi masaladir: Ham zahar, ham asaldir. Ikkisiga kosa bir, Asaldayin zaharim!*» Misralar mualifi kim?

- A) Azim Suyun
- B) Usmon Azim
- C) Iqbol Mirzo
- D) Sirojiddin Sayyid

29. «*San'at o'yin-deding, faqat o'yinmas, kulayotgan kishining achchiq ko'z yoshi-yu o'layotgan kishining tabassumiday sirlidir san'atning yuragi, bilsang.*» Misralar mualifi kim?

- A) Rustam Musurmon
- B) Iqbol Mirzo
- C) Ulug'bek Hamdam
- D) Faxriyor

30. *Tashqarida izillar yomg'ir, Kir, bobojon, yayragil biroz. Deding: – Paxtam, qoldi-ku axir, Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.* Ushbu parcha qaysi she'rdan olingen? A) «Men nechun sevaman O'zbekistonni?»

- B) «O'zbekiston»
- C) «Kuz yomg'iri»
- D) «Bobodehqonim mening»

31. Shuhratning «Oltin zanglamas» romanida: «*Xalq dushmani Boltaqul sizning maslakdoshingiz ekanini unutmang!*» – deb Sodiqqa kim aylgan?

A) Pushkaryov B) Saydullayev
C) Chuxanov D) Rixsiyev

32. «Ufq» trilogiyasida Tursunboy nomi cha yoshida otasi, onasi va yaqinlarining mehridan uzoqda quvg'inda vafot etadi?

- A) 19 yoshida B) 20 yoshida
C) 21 yoshida D) 22 yoshida

33. P.Qodirovning «Avlodlar dovon» romanida Bobur qayerda uch minjuk kishining boshi qilichdan o'tkazilgani haqki afsuslanib hikoya qiladi?

- A) Panipatda
- B) Bajur qo'rg'onida
- C) Chunor qal'asida
- D) Buxar viloyatida

34. Shuhratning «Oltin zanglamas» romanida Sodiqqa yolg'iz qolganda: «*Bo'yningizga oling qo'ying-da, o'zingizni qiy nab nima qilasiz, siz kuch bergen to'nka endi ko'kar maydi*», – deb kim aytgan?

- A) Pushkaryov B) Saydullayev
C) Chuxanov D) Rixsiyev

35. E.Vohidovning qaysi she'rida «*Onaizoring – zamin, Tanho yo'g'-u boring – zamin, Xasta bemoring – zamin*» misralari mavjud?

- A) «Inson»
- B) «O'zbegim»
- C) «Nido»
- D) «Yaxshidir achchiq haqiqat»

36. Qaysi asarga Qur'on'i karimning «Baqara» surasidagi 217-oyat epigraf qilib olingen?

- A) «Qariya»
- B) «Yo Jamshid»
- C) «Ko'k eshik»
- D) «Qorako'z majnun»

VARIANT № 28 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Erga navbat – sherga maqoli qaysi asarda uchradidi?

A) «Yo Jamshid»

B) «Padarkush»

C) «Advokatlik osonmi?»

D) «Shaytanat»

2. «Hama xursandlikni man'danidir ilm, ey o'g'lon,

Hama fazl-u kamolning manbaidir ilm, ey o'g'lon,

Hama xo'blarni xo'bin inaskanidir ilm, ey o'g'lon,

Hama islom elining masnadidir ilm, ey o'g'lon».

Misralar muallifi kim?

A) Hamza B) Avloniy

C) Fitrat D) Avaz O'tar

3. «Advokatlik osonmi?» dramasida advokat huzuriga birinchi bo'lib kim yordam so'rabb keladi?

A) Xushvaqt B) Egamberdi

C) Haydarali D) Xudoyberdi

4. «Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,

Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarun».

Bu misralar qaysi she'r'dan olingan?

A) «O'qitg'uvchilar yurtiga»

B) «Ilm ista»

C) «O'quv»

D) «Maktab»

5. Ilm-ma'rifat olishga chorlovchi

«Ey o'g'il, duniyoda bo'lmoq istasang olijanob, O'qig'il maktab kelub, zinhor o'qi, ming bor o'qi!»

misralari qaysi ma'rifatparvar sho'ri ijodiga mansub?

A) Hamza B) Avloniy

C) Fitrat D) Avaz O'tar

6. «Navoiy» romanida Navoiyga

shinniy va sunniylar o'tasidagi g'alvalar haqida kim so'zlab beradi?

A) Darveshali

B) Sultanmurod

C) Xo'ja Afzal

D) Husayn Boyqaro

7. Saidiyning «Qalandar» hikoyasida nima tasvirlanadi?

A) o'zbek qizining yomon turmushi

B) o'zbek ayolining yomon turmushi

C) xalqning og'ir hayoti

D) yangi turmushning yaxshi tomonlari

8. «Abulfayzxon» dramasida birinchi parda boshida shaxmat o'yinida kim otini oldirib qo'yadi?

A) Abulfayxon B) Qozi Nizom

C) Mir Vafo D) Ulfat

9. «Mehrobdan chayon» romanida qaysi voqeа maxdumning nazarida ayni fazilat edi?

A) Anvarning Muhammad Rajabbek kabi kishining o'g'li bilan do'stlashishi

B) Anvar va Nasim o'tasidagi do'stlikning hatto sarpo kiyishgacha yetib borishi

C) Anvarning ustoziga bolalarga saboq berishda yordamlashishi

D) Anvarga Muhammad Rajabbek tomonidan ustoz tayinlanishi

10. Cho'lpionning qaysi she'reti bir xil misra bilan boshlanib, yana shu misralar bilan tugaydi?

A) «Xazon»

B) «Somon parcha»

C) «Yong'in»

D) «Vijdon erki»

11. «O'tka yoqqil sarvni, ul qaddi ra'no bo'lmasa,

Yelga bergil gulni, ul ruxsori zebo bo'lmasa».

Misralar muallifi kim?

31. «Toshkentnoma» dostonida shoir *kimning zamonasini ko'z yumib sayr etardim* deydi?

- A) Navoiy B) Bobur
C) Temur D) Chingizxon

32. *Chechak bilan xursand bo'lsa gar odam,*

Yer yuzida bo'limas edi qayg'u-g'am.

Hamma unda yolg'iz bir gul terardi,

Na xohishi, na ozori, na dardi...

«Muqanna» dramasida ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli?

- A) Otash B) Gulobod
C) Guloyin D) G'irdak

33. Said Abmadning «Qorako'z majnun» hikoyasida kim armiyaga borib, u yerdan qaytib kelmagan Bo'rixon haqida xabar topib kelib Saodat ayaga aytadi?

- A) Anvarjon B) Abdumalik
C) Dilbar D) Qumri

34. «Yulduzli tunlar» romanida Bobur taklifi bilan Hindistonga kelayotgan san'at ahliga karvonsaryolarda «maxsus ulufa» to'lashardi. Bu nima uchun berilardi?

- A) kundalilik taomlari uchun

B) ot-ulovlariga yem-xashak uchun

C) mayda xarajatlar uchun

D) karvonsaryoda bepul tunash uchun

35. *Tavba qilsin, tavba qilsin*

Amir Husayn.

Zero, shundoq lutf etmish
payg'ambarimiz:

*Ert'a-yu kech ochiq erur tavba
eshigi.*

Ushbu fikrlar «Sohibqiron» dramasi
qaysi qahramoniga tegishli?

- A) shayxulislom B) Said Barakai
C) Amir Temur D) Uljoy Turkon

36. *U sira o'g'liga xat yozma-*

gan edi. Eriga yozar edi. Rahmat

Rahmonqul aka arabcha o'qisini

bilardi. Innaykeyin, uning yozu

vini yaxshi ko'rardi. «Shahodat,

zerzabarini xo'p keltirasana

Pulemyotday o'qiymen xating'il-

-derdi har yozganida. Ushbu parcha

qaysi asardon olingan?

- A) «Sovg'a»
B) «Qariya»
C) «Olim o'g'il»
D) «Qorako'z majnun»

VARIANT № 29 (III kurs litsey adabiyoti)

1. O'zbek ayollarining o'ziga xos fe'l-atvori qaysi asarda mehr bilan tasvirlangan?

- A) «Sovg'a»
B) «Qorako'z majnun»
C) «Olim o'g'il»
D) «Beozor qushning qarg'ishi»

2. «Advokatlik osonmi?» dramasida advokat huzuriga birinchi bo'lib kim yordam so'rab keladi?

- A) Xushvaqt B) Egamberdi
C) Haydarali D) Xudoyberdi

3. «Charx avzoyi bu dam avval-

gilarg'a o'xshamas,

Kotib-u davr-u raqam avvalgi-

larg'a o'xshamas».

Shu misralar bilan boshlanuvchi Na-

voi g'azaliga muxammas yozgan shoir

kim?

- A) E.Vohidov
B) A.Oripov
C) Omon Matjon

D) H.Xudoyberdiyeva

4. «Olim» degani nima o'zi, a?

Kechadan beri shu gapni eshitita-

... u, nimaligiga hech fahmim
timayapti. «Olim o'g'il» hikoyasidan
qan ushbu pacha qaysi personaj nut-
qidan olingen?

- A) Sadir chol B) O'roq chol
C) Qodir chol D) Toji chol

5. Bu oqshom, bilmayman, nima
uchun ichkilik mani tishlamaydur.
Namozdigardan beri bir dyujina
ishshani bo'shatdim. Da'yusni
pivasi qulog'imni qizitmadi.
To'dur, ichayuk! Ushbu pacha «Pa-
darkush» daramasining qaysi qahramoni
nutqidan olingen?

- A) Tangriql B) Davlat
C) Nor D) Toshmurod

6. Xonlik zamonida yirik
mansablardan hisoblanib, ko'pin-
cha podsho qoshida bo'lib farmon-
larni yozib turar, ishlar haqida pod-
shoga hisob berar edi deya qaysi
lavozimga ta'rif berilgan?

- A) parvonachi B) sarmunshiy
C) eshik og'asi D) salom og'asi

7. M.Shayxzodaning «Ayriliq» she'rida
qanday ayrilik tilga olinadi?

- A) yorning o'z sevgilisidan ayirlgani
B) onaning farzandidan ayirlgani
C) shoirning asarini yozib bo'lgandan
keyin asaridan ayirlgani
D) o'z vatanidan ayirlgani

8. Erkin A'zamning «Ko'k eshik»
hikoyasida gazeta-jurnallarni o'qishga
mukkasidan ketgan, akasi haydar chiqar-
gani uchun qo'shni xolaning uyida ijara
turuvchi «musofir» laqabini olgan qahra-
mon kim?

- A) Hamid aka B) O'rinboy
C) Bo'riboy aka D) Mahkam aka

9. Endi, og'aynijon, chillalik uy
degan gap bor. Chillalik uyga hat-
to it ham kirmay turgani ma'qul.
«Shaytanat» romanidan olingen ushbu
pacha kimning nutqidan olingen?

- A) Haydar B) Asadbek
C) Jamshid D) Jalil

10. – E, bu Shoymardon Qudrat
deganingiz toza zo'r ekan! Desan-
giz, paykalda paxta oppoq bo'lib
shu... charvi moydek bo'lib oqib
yotibdi! Mashinasi bilan bir orala-
sa bormi, quruq g'o'zasini ko'rasiz!
U zo'r ekan... Haloli bo'isin!
Oltita bolasi bor ekan, xo'sh... bitta
qo'li cho'loq. O'zi anavi Sho'rchi-
dan bo'ladi. Qo'ng'irotdan! Boysun
Qo'ng'irotdan! Alpomishning
urug'i-da, baraka topsin... Ushbu
pacha qaysi asardan olingen?

- A) «Dasht-u dalalarda»
B) «Qariya»
C) «Olim o'g'il»
D) «Qorako'z majnun»

11. Sarbadorning bitta aybi –
uquvsizligi.

Umrida hech toj-u taxtni
ko'rmagan kosib,

Uchta-to'rtta mullavachcha ne
ish qilardi?

Pala-partish farmonlarni chiga-
rib ular

Boyonlarni o'zlaridan tezda
bezdirdi.

Ushbu fikrlar «Sohibqiron» dramasi-
ning qaysi qahramoniga tegishli?

- A) shayxulislom B) Said Baraka
C) Amir Temur D) Uljoy Turkon

12. «Yulduzli tunlar» romanida tilga
oligan «yomchilar» kimlar edi?

- A) karvonsaroy egalari
B) karvonsaroy xizmatchilar
C) charchagan otلامi almashtirib berish
uchun otلامi boqadigan xizmatchilar

D) qo'riqchi askarlar

13. A.Avloniying «Advokatlik oson-
mi?» dramasi necha pardali kulgili asar?

- A) 1 pardali B) 2 pardali
C) 3 pardali D) 4 pardali

14. Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,

Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!..

Ushbu satrlar muallifi kim?

A) G'afur G'ulom

B) Oybek

C) Hamid Olimjon

D) Maqsud Shayxzoda

15. Ikki ko'zim, malak yuzim, sevdigim,

Jonlar sening yuzginangdan aylansun.

Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim,

Dunyo sening boqishingdan o'rgulsin.

Ushbu she'riy parcha kimning qalamiga mansub?

A) Cho'ipon B) Omon Matjon

C) Fitrat D) Usmon Azim

16. Abdulkarim oqsogol, Abdumavlonboy, Dodajonboy kabi kishilar «Advokatlik osonmi?» dramasidagi qaysi qahramon nutqida uchraydi?

A) Xushvaqt B) Xudoyberdi

C) Rapoil D) Egamberdi

17. «Ba'zini olim qilub, ba'zini qildi yaxshi boy,

Ba'zini shoir qilub, ba'zini shoh qildi».

Bu yerda nimaga ta'rif berilgan?

A) qalam B) she'r

C) ilhom D) Vatan

18. «*Bir onadan alvon xil bola tug'iladi*», – degan fikr qaysi asarda mavjud?

A) «Mehrobdan chayon»

B) «Kecha va kunduz»

C) «Olim o'g'il»

D) «Advokatlik osonmi?»

19. «Men ketsam-da, sen bo'lon!

Omon – Vatan, Vatan – omon!»

Bu misralar Avloniyning qaysi she'ri dan olingan?

A) «Vatanni suymak»

B) «Hijron so'zi»

C) «Biz, millat»

D) «Maktab haqinda»

20. «Advokatlik osonmi?» dramasi «*Etni tutog'i – bit*» maqoli kim tomonidan aytildi?

A) Xushvaqt B) Mehrinsa

C) Rapoil D) Egamberdi

21. «Abulfayzxon» dramasi «*Xong'a yaxsun ko'runmak uchun qiz qurbon qilg'uvchilar ko'p, shun larning qizlarini oldira beringiz*», deb aytgan qahramon kim?

A) Farhod otaliq

B) Qozi Nizom

C) Mir Vafo

D) Ibrohim otaliq

22. «Kecha va kunduz» romanida «*Kambag'al – xudoyimning suygan bandasi deydilar, shumi suygan bandaning holi?!*» – deya kambag'alligidan kuyungan personaj kim?

A) Zebi B) Saltanat

C) Enaxon D) Umrinsa xola

23. Cho'iponning qaysi she'ri «*Sevdim» deganlaring yolg'ondir sening!..» misralari bilan yakunlanadi?*

A) «Somon parcha»

B) «Bir tutam sochlaring»

C) «Yong'in»

D) «Xazon»

24. «Himmat va g'ayratni aslo qo'lidan bermang. El, ulus sizdek zotlarga g'oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib yurt tuprog'iga chuqur tomir yoydirmog'imiz va undan mo'l hosil olmog'imiz kerak». Navoiyning ushbu gaplari kimga qaratilgandi?

A) Xo'ja Afzalga

B) Behzodga

C) Zayniddinga

D) Sultonmurodga

25. Mirtemir «Kipriklarim» she'rida Mirtemir «armonimday buyuksiz!» degan din kimlarni nazarda tutgan?

A) shoir do'stlarini

B) onasini

C) sevgilisini

D) yosh qalamkashlarni

26. «Yulduz tunlar» romanida Navoyning uyi «Unsiya»da Boburga: «*Hirotning tole quyoshi botib ketmas-mikin?*» – deb tashvishli savol bergan kishi kim edi?

A) Muzaffar mirzo

B) Tabibiy

C) Xondamir

D) Sultonmurod

27. Qaysi shoir dunyoni va ma'nini bozorga o'xshatib, ikkisi ichra molim yomon degan odamni uchratmaganidan hayratlanadi?

A) Erkin Vohidov

B) Abdulla Oripov

C) Sirojiddin Sayyid

D) Omon Matjon

28. «Dashtu dalalarda» hikoyasida Xadichaning ukasi, Polvonni uch o'tog'i bilan rosa urib, tepkilagan personaj kim?

A) Salim B) O'rol

C) Sattorqul D) Nazar maxsum

29. «*Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi.*» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) «Ot kishnagan oqshom»

B) «Qariya»

C) «Olim o'g'il»

D) «Qorako'z majnun»

30. «*Tilidan bol-u qo'lidan qon oqqan zolimlar bu dunyoning eng jirkanch maxluqlaridir.*» Ushbu par-

cha qaysi asardan olingan?

A) «Navoiy»

B) «Hisomiddin Al-Yog'iy»

C) «Shaytanat»

D) «Yulduzli tunlar»

31. *Sevmasang ham qattiq, sevaveraman,*
Chidayman xorlarning ta'na toshiga.

Shunchaki o'lmayman,

Shuncha ishq bilan

Ko'tarib o'lurman seni boshimga!

Vatan haqida bitilgan ushbu misralar muallifi kim?

A) Halima Ahmedova

B) Sirojiddin Sayyid

C) Zebo Mirzo

D) Iqbol Mirzo

32. *Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt*

Seni guldek erkalagan chaman uchun.

Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt.

Ushbu misralar muallifi kim?

A) Usmon Azim

B) Abdulla Oripov

C) Sirojiddin Sayyid

D) Iqbol Mirzo

33. «*Sovg'a*» hikoyasida har bir gapiga «tasadduq» so'zini qo'shib gapiradigan ayol kim?

A) Allobush B) Shahodat xola

C) Qumri otin D) Buvinsa xola

34. «*Shaytanat*» asarining to'rtinchisi kitobida o'limi oldidan bir qariya nor tuyasidan rozilik so'raydi. Shunda tuyu egasining bir harakatini kechira olmasligini aytadi. Bu nima edi?

A) nohaq urib-so'kkani

B) burnini teshib, burunduq o'tkazganini

C) sahroda suvsiz, yemishsiz qoldirganini

D) bir marta burunduq bog'langan arqonni eshakning dumiga bog'lab qo'yganini.

35. «Advokatlik osonmi?» dramasida Egamberdi dabdabali to'y o'tkazish uchun kimdan qarzga veksel olgandi?

A) Orifjon B) Mo'minjon

C) Homidjon D) Aminjon

36. *Ko'zimda yosh bilan kularman men ham,*

Tilasam muhabbat tilarmann men ham:

Ishq bilan dunyoni olarman men ham.

Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamig' mansub?

A) Zulfiya Mo'minova

B) Halima Xudoyerberdiyeva

C) Zebo Mirzo

D) Halima Ahmedova

VARIANT № 30 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Padarkush» dramasida boyning xotini Toshmurodning bolaligida qaysi kasal bilan og'riganini e'slaydi?

A) qizamiq B) bavosir

C) sil D) chechak

2. «Toshkand emas, tosh qand erur,

Kesaklari gulqand erur».

Misralar muallifi kim?

A) Hamza B) Avloniy

C) Fitrat D) Avaz O'tar

3. «Advokatlik osonmi?» dramasida Abdujabbor kimga: «...bir sallasi katta,

Juda bir qiziq, juda bir g'alati tojik», – deya ta'rif beradi?

A) Xushvaqt B) Xudoyerberdi

C) Rapoil D) Egamberdi

4. *Gazet yozadiganlar, odatda, zakonchi bo'ladi... Ular bilan yarim poshshoga o'xshagan ulug' odamlar olishmasa, uncha-*

muncha odamlar bekor kelmaydi. Jadidlar hammasi mahmadona keladi... Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?

A) «Mehrobdan chayon»

B) «Kecha va kunduz»

C) «Padarkush»

D) «Qutlug' qon»

5. «Abulfayxon» dramasida Abulfayxon Farhod otaliqni o'dirishni kimga topshiradi?

A) Ulfatga B) Mir Vafoga

C) Davlatga D) Doniyorbiyga

6. «Kecha va kunduz» romanida Zebiga kim: «Shaharda bir xudo bandasining ikkala dunyoga arziyidigan bir qizi bor ekan!» – deb ta'rif beradi?

A) Poshshoxon B) Enaxon

C) Miryoqub D) Xadichaxon

7. Alisher Navoiyi: «O'zbek deb atalgan ozod ulusning otaxon shoiri, qadrli ustod», – deb atagan shoir kim?

A) G'afur G'ulom

B) Oybek

C) Hamid Olimjon

D) Maqsud Shayxzoda

8. *Jang bo'ladi ko'p haybatli, Yov g'alamis, quv, shiddatli.* «Toshkentnoma» dostonidan olingan bu fikrlar kimga tegishli?

A) G'afur G'ulom

B) Oybek

C) Hamid Olimjon

D) Maqsud Shayxzoda

9. Maqsud Shayxzoda «She'r chin go'zalilik singlisi ekan» she'rida nimasiz lu'chani tole qarg'agan deydi?

- A) qo'shiqsiz B) she'rsiz
C) sevgisiz D) do'stsiz

10. Yer yuzidan bir shaharni yo'qotmoq

Bilan ular xalqning ko'zin qo'rqiitmoq fikridalar.

«Muqanna» dramasida ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli?

- A) Otash B) Gulobod
C) Guloyin D) G'irdak

11. Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlami ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi. «Qorako'z majnun» hikoyasidan olingen ushbu parchada aytigan yangilik nima edi?

A) o'g'li Bo'rixonning onasini yo'qlab Rossiyadan kelishi

B) tolesiz qizi Qumrini so'rab sovchilar kelishi

C) Saodat ayaning pensiyasidan yig'ib yurgan pullaridan yuborilgan «haj badal» i qabul bo'lub, hoji ona bo'lishi

D) A va C

12. «Yulduzli tunlar» romanida kimning elchilar Boburga Samarcandning soyaki mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'riklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahming boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuklab, yoniga ikki yuzta yaxshi otni ham tortiq qilib qo'shib keltirgandi?

- A) Shayboniyxon elchilar
B) Ko'chkinchixon elchilar
C) Shoh Taxmasp elchilar
D) Ismoil Safaviy elchilar

13. Har doimo haq bo'ladi mu-zaffar odam. Ushbu fikrlar «Sohib-qiron» dramasining qaysi qahramoniga tegishli?

- A) Amir Husayn B) Said Baraka
C) Amir Temur D) Ulijoy Turkon

14. Shuni es-es biladiki, bolaligidagi qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chor-bozchilarga qo'shilib ko'mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan. Qo'y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib yetti yil uning izidan yurgan. Bola ko'rmagan. Ushbu parcha qaysi asardan olingen?

- A) «Sovg'a»
B) «Qariya»
C) «Olim o'g'il»
D) «Qorako'z majnun»

15. Odamlar savob uchun ko'priq soladi, yetim boqadi... Ushbu parcha qaysi asardan olingen?

- A) «O'ris bolaning oyisi»
B) «Shaytanat»
C) «Yo Jamshid»
D) «Ko'k eshik»

16. Endi, ochig'i, yo'q emas, Xudoga shukr, uch-to'rt tangam bor. Nasiba bola ko'rsa, beshik-to'yi qilarman deb tugib yuruvdim. Qolgani o'limlik bo'lar desam, bu yashshamagur kuyov Nasibani-yam yo'ldan uribdi, er-xotin kurno-ra kelib: «Moshina olib berasiz», - deb hiqillaydi. Bitta-yu bitta qiz, tinib-tinchib ketishini o'ylab... U kamning boshiga mundoq ish tushib turganda moshinaga balo bormi? Oxir-oqibati baribir kuyov-da, kuyov - yov, o'g'il bo'larmidi menga? «Yo Jamshid» hikoyasida ushbu fikrlarni kim aytgan?
A) Zarif nayza B) Orif baqiroq

C) Salomat amma D) Islomboy

17. Normurod Norqobilovning «Olim o'g'il» hikoyasida: «*Bizda o'qishga havas yo'q. Ana, sho'rquduqliklar, itidan bitigacha o'qigan. Rayonditus kattalariyam shulardan*», – degan personaj kim?

- A) Poyon chol B) O'roq chol
C) Toji chol D) Qodir chol

18. «Sarob» romanida *Saidiyning kitoblarini ko'rib, ularning nomini ham to'g'ri o'qiy olmay Saidiyni hayron qoldirgan serpul, sersavlat shoir* kim?

- A) Ulfat B) Abbosxon
C) Kenja D) Ilhom

19. Aloho, biz Turkiston xalqiga bir yamon odat borki, bir kishi ruscha o'qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy fo'rma kiysa, oni ayb qiladurlar. Yo bir musulmon bolasi nizomiy maktab fo'rnasida yur-sa, masxara qiladurlar. Agar iz-voshchik va yo qaro mehnatkash bo'lub, ovrupoyilarni eski libosini kiysa va yo javonbacha bo'lub, o'yunchilar libosini kiysa, hech kim bir nima demaydurki, bul kamoli nodonlik va dunyodan xabar-sizlikdur. Ushbu parcha qaysi asardan olingen?

- A) «Padarkush»
B) «Zahrali hayat»
C) «Teyotr nadur?»
D) «Advokatlik osonmi?»

20. «Advokatlik osonmi?» dramasida kimning otasi Topildiboy edi?

- A) Xushvaqt B) Egamberdi
C) Haydarali D) Xudoyberdi

21. «*Odamning katta-kichigi bo'lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Endi qaytmas bo'lib ketyapti. Odam qaytmas bo'lib*

ketayotganda bormagan odam odammi?» Ushbu fikrlar «Ot kishnagan oqshom» qissasining qaysi personajiga tegishli?

A) Shukurov B) Rixsiyev
C) Sattorov D) Ziyodulla kal
22. O'zgalarning ichiqoralik bilan hyl gan so'ziga ishonib xotini va qizini uyldan haydagan, lekin xotiniga bo'lgan muhibbatidan voz kecholmagan polvon obrin qaysi asarda uchraydi?

- A) «Ot kishnagan oqshom»
B) «Dasht-u dalalarda»
C) «Yulduzlar mangu yonadi»
D) «Qariya»
23. «*Xudoga shukr, bolaginam o'zidan ko'paydi. Olti nevaraning duosini olib o'tiribman*». Ushbu parcha qaysi asar qahramoniga tegishli?

- A) «Yo Jamshid»
B) «Ot kishnagan oqshom»
C) «Oris bolaning oyisi»
D) «Sovg'a»
24. Abdulla Oripov qaysi she'rida uyida bir kecha mehmon bo'lgan insonga hatto ismini so'ramasdan ham mezbonlik qilgan o'zbek kishisi obrazi berilgan?

- A) «Odamlar»
B) «Sharq afsonasi»
C) «Temir odam»
D) «Genetika»
25. «*Oltin zanglamas*» romanida Sodiqqa tuhmat qilgan personajlar kimlar?

- A) Saydullayev, Chuxanov
B) Saydullayev, Pushkaryov
C) Shukurov, Saydullayev
D) Shukurov, Chuxanov
26. «*Dilim ranjitsa ham do'q-udag'dag'a, Bog'imda bu oqshom jonon o'ynasin.*»
Gulday chiroyidan bo'lay sadag'a,

- Ochilib-sochilib chunon o'yinasin».**
Bu misralar qaysi asardan olingan?
A) «Surat» B) «Dorboz»
C) «Biroz kul» D) «Xazon»
27. Qaysi hikoyasi sababli Saidiy bilan
Kenja o'tasida adovat paydo bo'ldi?
A) «Qalandar»
B) Ilhom tomonidan Saidiyga yozish
uchun plani berilgan hikoya
C) Abbas tornonidan Saidiyga yozish
uchun plani berilgan hikoya
D) Ulfat tomonidan Saidiyga yozish
uchun plani berilgan hikoya
28. «Sarob» romanida ro'zada saharlik
mildida uqlab qoladigan yigit kim edi?
A) Teshay B) Abbosxon
C) Saidiy D) Kenja
29. «Sen yetim emassan» she'rida
shoir o'zining nechanchi yillardagi
shargardonliklarini eslab afsuslanadi?
A) XX asrning 10-yillarda
B) XX asrning 20-yillarda
C) XX asrning 30-yillarda
D) XX asrning 40-yillarda
30. Avloniyning qaysi asarlari «Ikkinchini
muallim» kitobiga kiritilgan?
1) «Chin do'st»; 2) «To'g'rilik»; 3) «Xurus
lla bo'ri»; 4) «Janjalkashlik zarari»;
5) «Yalg'on do'st»; 6) «Vatanni suymak».
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 5, 6
31. «Advokatlik osonmi?» dramasida
kim advokatga «sho pochcha» deya
murojaat etadi?
A) Xushvaqt B) Egamberdi
C) Haydarali D) Xudoyberdi
32. «Kecha va kunduz» romanidagi
sartaroshning ismi ...
A) Ergash B) Tursun
C) To'xtash D) To'ljan
33. «Kecha va kunduz» romanida
Akbarali mingboshi yaxshi bir uloqchi

otni kimga va qaysi lavozimga ko'tarilish
uchun pora sifatida bergen?

A) avvalgi mingboshiga ellikboshi
bo'lish uchun bergen

B) noib to'raka mingboshi bo'lish
uchun bergen

C) hokim to'raka mingboshi bo'lish
uchun bergen

D) hokim to'raka ellikboshi bo'lish
uchun bergen

34. «Rahmatlik Rajabxon
bilan birlashib Abulfayzxong'a
qarshi urushg'onimizda shunday
kengashgan edikkim: Buxorog'a
borib kirsak, butun mullolarni bir
madrasaga solib, o't qo'yamiz-da,
hammasini yondiramiz. Elimizni
buzub, rasvo qilg'on shunlar. Bunlar
diningizni tuzatamiz deb dunyomizni
murordor qildilar». Bu fikrlar kimga tegishli?

A) Farhod otalik B) Ibrohim otalik
C) Ulfat D) Davlat

35. Asli ko'z yosh, qon oralab
toyib o'sdik biz,

Qon – yorug'lilik. Yorug'lashdik.
Boyib o'sdik biz.

Qirqcanlari, kesganlari sari
kuchlandik,

Qanotlarni tag'in kengroq yoyib
o'sdik biz.

Ushbu misralar qaysi shoir qalamiga
mansub?

A) Zulfiya Mo'minova
B) Halima Xudoyberdiyeva

C) Zebo Mirzo
D) Halima Ahmedova

36. «Olim o'g'il» hikoyasidagi Haydar
ko'saning ukasi ...

A) Salom ko'sa
B) Qobil shapka
C) Sardor magazinchi
D) Salim ko'sa

VARIANT № 31 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Advokatlik osonmi?» dramasida «*mol yo'qotgan dudug'*, 24 *yoshinda*» deya kimga ta'rif berilgan?

A) Xushvaqt B) Egamberdi

C) Haydarali D) Xudoyberdi

2. Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» majmuasiga qaysi she'rlari kiritilgan?

1) «Hijron so'zi»; 2) «Biz, millat»; 3) «Maktab haqinda»; 4) «Chin do'st»; 5) «Vatanni sumyak».

A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 3

C) 2, 3, 5 D) 2, 3

3. «Advokatlik osonmi?» dramasida advokat tomonidan «*o'tgan ishga o'kinma*», «*keyingi pushmon – joningga dushman*» degan hikmatli so'zlar kimga aytildi?

A) Xushvaqt B) Egamberdi

C) Xudoyberdi D) Haydarali

4. «*Chingiz avlodi bo'lmag'on kishi xon bo'la olmas deydilar. Mana shu so'zlar boshqa odamlarni biroz tushundiradir. Shunga bir chora qilishingiz kerak*.» «Abulfayzxon» dramasida ushbu maslahatni Rahimbiyga kim aytgan?

A) Yo'ldosh B) Qozi Nizom

C) Mir Vafo D) Ibrohim otaliq

5. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi qachon Miryoqubga: «*Senga ishonaman, senga, yo'lvarsim, yo'lvarsim!*» – deya ishonch bildiradi?

A) gazetada mingboshini yomonlab yozilgan maqola bosilgandan so'ng

B) mingboshi haqida Umarali puchuq va Yodgor echki hokimga ariza bergandan so'ng

C) mingboshini lavozimidan ozod etishmoqchi bo'lishganida

D) Razzoq so'fi Zebini peshonan umrida sajda ko'rnagan odamga qiz bermayman deya mingboshiga berishgi unamaganidan so'ng

6. *Haqorat yemrilur,*

Zulm yanchilur,

Jahonda bo'lurmiz

Ozod, muzaffar.

Ushbu misralar qaysi she'rdan olin gan?

A) «Sen yetim emassan»

B) «Sog'inish»

C) «Vaqt»

D) «Kuzatish»

7. «Toshkentnoma» dostonining nechanchi bobi «*Yomonliklar o'tkinchidir, yaxshilik – g'olib*» misralari bilan tugaydi?

A) 12 B) 14 C) 15 D) 16

8. Maqsud Shayxzoda «She'r chin go'zallik singlisi ekan» she'rida nimasiz uylarga *kulgi yoqmaydi, xonadon ahlining qovog'i osiq* deydi?

A) qo'shiqsiz B) she'rsiz

C) sevgisiz D) do'stsiz

9. *Yer yuzidan bir shaharni yo'qitmoq*

Bilan ular xalqning ko'zin yo'qitmoq fikridalar.

Ushbu misralarda qaysi shahar haqida fikr yuritilgan?

A) Bag'dod B) Hajijoj

C) Marv D) Poykand

10. *Bo'rixon uchun O'zbekiston-da mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq*

unutililib ketgan shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi. Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Abulfayzxon»
- B) «Maymun yetaklagan odam»
- C) «Hisomiddin al-Yog'i»
- D) «Qorako'z majnun»

11. «Yulduzli tunlar» romanida: «G'aznidan o'n to'rt tuyada ikki oy ovora bo'lib ulardan Agraga olib borgan ekanlar», – deb nima haqida aytigan?

- A) toza asal B) mayiz
- C) turshak D) asl chog'ir

12. *Allah himaniki xohlasa agar, Irodasi bilan shuni hukm qilgaydir.*

Ushbu fikrlar «Sohibqiron» dramasining qaysi qahramoniga tegishli?

- A) shayxulislom
- B) Said Baraka
- C) Amir Temur
- D) Uljoy Turkon

13. «Qariya» hikoyasida Qo'ziboy choldan olgan ming so'm pulni Qobil qassob olganim yo'q deya tan olmagandan so'ng Qo'ziboy cholga tasallি berib, uni uyiga kuzatib qo'ygan kishi kim?

- A) Jamolboy
- B) Qodir miskar
- C) Mirg'ozи qassob
- D) Qudrat chol

14. *Mayli, mana, axir, ko'plashib... Lokin men bitta gapni ochiq aytaman: O'rinboy shu qilig'ini tashlaydigan bo'lsa, mayli, qo'ldan kelgancha qarashib yuborarmiz. Illo-billo, yo'q deydigan bo'lsa... «Yo Jamshid» hikoyasida ushbu fikrlarni kim aytgan?*

- A) Zarif nayza
- B) Orif baqiroq
- C) Salomat amma
- D) Islomboy

15. *Biz, musulmonlар'a, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniy; olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfg'a kiraturgan talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va adabiy va biroz ruscha o'qub, so'ngra Makka, Madina, Misr yo Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak. Toki komil mulla bo'lsunlar.* Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Padarkush»
- B) «Zaharli hayot»
- C) «Teyotr nadur?»
- D) «Advokatlik osomni?»

16. «Abulfayzxon» dramasida Ali-qulixon, Husaynxon, Ahmadxon kimilar?

- A) xonnning yaqin xizmatchilari
- B) qalandar kiyimlik tilchilar
- C) Eronning qo'shin boshliqlari
- D) mang'it beklari

17. «Olim o'g'il» hikoyasida cholarning «olim degani kim o'zi?» degan so'rog'iga qaysi chol «mullalarning mullasi» deb javob beradi?

- A) O'roq chol B) Sadir chol
- C) Qudrat chol D) Poyon chol

18. Hamdam xumdonchi obrazi qaysi asarda berilgan?

- A) «Olim o'g'il»
- B) «Jinlar bazmi»
- C) «Sovg'a»
- D) «Mehrobdan chayon»

19. «Kecha va kunduz» romanida mingboshini yomonlab maqola yozilgan gazetani Akbaraliga kim olib kelib beradi?

- A) Mirzabobo B) Sokolov
- C) Hakimjon D) Miryoqub

20. «Kecha va kunduz» romanida o'zini yomonlab gazetada maqola chiqqa-

nidan jahl otiga mingan mingboshiga kim: «*G'animlar qasd qilganga o'xshaydi. Qaytarma qildirib bersammi?*» – deydi?

- A) Miryoqub B) Poshshoxon
C) Xadichaxon D) Mirzabobo

21. «Toshkentnoma» dostonida kim-ga: «*Biri – she'rimizning o'tli yuragi*», – deya ta'rif berilgan?

- A) G'afur G'ulom B) Oybek
C) Hamid Olimjon D) Mirtemir

22. «Advokatlik osonmi?» dramasida «*Ena – o'lirishingga qarab chena*» maqoli kimga nisbatan ishlataligan?

- A) Xushvaqt B) Egamberdi
C) Xudoyberdi D) Haydarali

23. «Advokatlik osonmi?» dramasida-gi Egamberdining otasi kim?

- A) Orifjon B) Mo'minjon
C) Homidjon D) Aminjon

24. «*Ulfatlar buyursa, u dunyoga borarman. U-ku sizni havlingiz*», – deya Toshmurodga otasining sandig'idan pul o'g'irlashda yordam berish uchun hamrohlikka ko'ngan personaj kim?

- A) Tangriqul B) Davlat
C) Nor D) Artun

25. *Derlarkim, vaqt kelganda ba'zi narsalar uchun jonne fido qilmay mumkin. Ammo nomus hech bir narsaga fido qilinmas, nomus jondan-da qimmatliroqdir.* Ushbu parcha qaysi asardan olingen?

- A) «Shaytanat»
B) «Qariya»
C) «Dasht-u dalalarda»
D) «Qorako'z majnun»

26. «*So'zi xalqni qattiq kuldiradi goh,*

Goho u qalblardan uzdiradi oh».

Bu ta'rif qaysi shoir haqida?

- A) Navoiy B) Bobur
C) Mashrab D) Furqat

27. «*Nasrnavis muarrix o'z*

shaxsiy uslubini davr uslubini bo'yundirmog'i, o'z «men» davr ummoniga qo'shib bilintlmay yubormog'i kerak edi. Agar asardan muallif o'zini namoyon qilaverin, bu nokamtarlik belgisi hisoblanadi. «Yulduzli tunlar» romanidan olingen ushbu fikrlar kimga tegishli?

- A) Mirxon B) Xondamir
C) Bobur D) Navoiy

28. «*Holbuki, orzulardan Judo ham bo'lganim yo'q,*

Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q,

Ertaxazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q».

Misralar qaysi she'r dan olingen?

- A) «Birinchi muhabbatim»
B) «Sen bahorni sog'inmadingmi?»
C) «Surat»
D) «Xazon»

29. «*Sohibqiron*» dramasida Amlr Temurga qarata: «*Siz amr eting – kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham. Siz amr eting – simirgaymiz Bahr-u ummonni. Kuch olgaymiz shioat-u himmatizingdzan*», – deya kim murojaat etadi?

- A) Kayxisrav
B) Said Baraka
C) Barlos Bahodir
D) Uljox Turkon

30. «*Dasht-u dalalarda*» hikoyasida xotini tashlab ketgan akasidan xabar olib turgan singlisi kim?

- A) Maxpirat B) Xadicha
C) Chaman D) Adolat

31. «*Ot kishnagan oqshom*» qissasida bozorda mayizning narxi osmonda ekanligini aytilib Ziyodulla kalni mayiz sotishga undagan hamsoyasi ...

- A) Sattoroy
B) Quimat polvon
C) Sattor polvon

D) Shukur baliqchi

32. «Ot kishnagan oqshom» qissasida qulog'ining og'irigini bahona qilib haqiqalni aytishdan qutlib qolgan choyxonachi kim?

A) Sattorov B) Shukurov

C) Rixsiyev D) Quimat polvon

33. «Advokatlik osonmí?» dramasida Rapoil advokatga kim deb murojaat qiladi?

A) sho pochcha

B) garamjon

C) jon bolam, oppog' bolam

D) akunki xo'jayin

34. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi kimming yuziga o'zini yomonlab yozilgan maqola chiqqan gazetani irg'itadi?

A) Mirzabobo B) Sokolov

C) Hakimjon D) Miryoqub

35. «Mingboshi irg'ib turib qarshisida o'tirgan Miryoqubni quchoqlash va butun davlatini unga tutib yuborishdan o'zini zo'rg'a to'xtatib qoldi. Bunday odamga qancha qilsa va qancha

bersa oz». «Kecha va kunduz» romanida qahramoni Akbarali mingboshini qachon shunday holatda ko'ramiz?

A) mingboshini maqtab mahalliy gazetalardan birida Mulla Rivojiddin tomonidan maqola basilganida

B) mingboshiga qarshi ariza bergen qumariqlik ikkita boyga qarshi dehqonlarni boplab qayrab solganini eshitganida

C) qizini benamozga bermayman degan Razzoq so'fini eshon orqali rozi qilishga erishganida

D) mingboshini hokim to'ra Miryoqub tufayli maqtaganida

36. *Musulmonning qonin to'kmog' joiz bo'Imag'ay.*

Ammo-lekin dini islom bayrog'in tutgan

Yo'lboshchiga pand bermoqlik gunohi azim.

Ushbu fikrlar «Sohibqiron» dramasining qaysi qahramoniga tegishli?

A) shayxulislom

B) Said Baraka

C) Amir Temur

D) Uljoy Turkon

VARIANT № 32 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Bunaqa bekorchi gapdan foyda yo'q. Har balo bo'lgan-dayam, shu yomon jiyan – jigarimiz. Ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi. Hozir buni har qancha so'kib-so'zlagandan tariq-cha naf yo'q. Qani, nima qilamiz, shundan gapiringlar». Ushbu fikrlar «Yo Jamshid» hikoyasidagi qaysi personajga tegishli?

A) Orif baqiroq

B) Zarif nayza

C) Salomat amma

D) Islomboy

2. M.Shayxzodaning «Toshkentnomá» dostoni she'riyatning nechta vaznida yozilgan?

A) yetti vaznida

B) to'qqiz vaznida

C) o'n vaznida

D) o'n bir vaznida

3. Oy, boybachal Bizlar-ku kambag'al, sizg'a nima? Kissangizdan pul chiqmaydur. Ana boybachani shakli. Ushbu parcha «Padarkush» daramasining qaysi qahramoni nutqidan olingan?

A) Tangriqul B) Davlat

- C) Nor D) Artun
 4. Avloniyning «To'g'rilik» hikoyasida kampirning hovlisida qanday tut daraxti o'sardi?
 A) balx tut B) shotut
 C) oq tut D) qora tut
 5. Avloniyning «Advokatlik osonmi?» dramasi necha pardali kulgili asar?
 A) 1 pardali B) 2 pardali
 C) 3 pardali D) 4 pardali
 6. *Na isyon, na to'lqin, na to'fon, na o't!*
Ko'zimda og'ir bir tilsim nuri bor.
Ay o'tli kechmishim, yuzingni berkit,
Senda shaytonlarning haqsiz zo'ri bor.
 Ushbu parcha Cho'ponning qaysi she'ridan olingen?
 A) «Xazon»
 B) «Somon parcha»
 C) «Yong'in»
 D) «Vijdon erki»
 7. *Hozir agar sen bo'limasang musulmon,*
Dushman bermas yemoq uchun parcha non.
 «Muqanna» dramasida ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli?
 A) Otash B) Gulobod
 C) Guloyin D) G'irdak
 8. *Bandalarga qilingan yomonlik Tangriga qilingan yomonlik kabi ekanini esa fahm etmasdi.*
Hozir shu yotishida ham Xudoni savolga tutardi. Pushaymonlik, tavba ko'chalariga kirmoqlikni esa o'yilmasdi. Ushbu parcha qaysi asardan olingen?
 A) «Shaytanat»
 B) «Qariya»
 C) «Dasht-u dalalarda»
 D) «Qorako'z majnun»
9. «To'g'rilar jannatning ayvoni dadur,
 O'g'rilar ranj-u alam koninda!»
 Bu misralar Avloniyning qaysi shuvi dan olingen?
 A) «To'g'rilik»
 B) «Yalg'on do'st»
 C) «Biz, millat»
 D) «Maktab haqinda»
 10. «Advokatlik osonmi?» dramasida advokatning oldiga qaysi personaj eng oxirida keladi?
 A) Xushvaqt B) Egamberdi
 C) Haydarali D) Xudoyberdi
 11. *Kechagina biz majlisda To'ya qaror qilgan edik.*
...ning to'yi qoldi,
Dushman ishga ishkal soldi...
 «Toshkentnoma» dostonidan olingen ushbu parchada qaysi shoirning qoldirilgan yubiley to'yi haqida so'z bormoqda?
 A) Pushkin B) Navoiy
 C) Bobur D) Lermontov
 12. «Sohibqiron» dramasida Amir Husaynning sadog'idan zaharlangan «Bu – Temur uchun» deb yozilgan o'qni kim topib oladi?
 A) Barlos Bahodir
 B) Kayxisrav
 C) Muhammad Qavchin
 D) Aloiddin
 13. *Qancha baland uchsa hamki chumchuq qush,*
Uyasida o'rganganni o'qirmish.
 «Muqanna» dramasida ushbu fikrlar qaysi qahramonga tegishli?
 A) Otash B) Gulobod
 C) Guloyin D) G'irdak
 14. «Advokatlik osonmi?» dramasi da «to'y qilub qarzdor bo'lg'on arbabash, 35 yoshind» deya ta'rif berilgan qahramon ...
 A) Xushvaqt B) Egamberdi
 C) Haydarali D) Xudoyberdi

15. «Toshkentnoma» dostonining nechanchi bobi o'n to'rt bolani asrab olgan Shoahmad aka va Bahri aya haqida?

- A) 12 B) 14 C) 15 D) 16

16. *Endi bas qil, yurma bunday beimon,*

Bizga topin, bo'lgil endi musulmon!

«Muqanna» dramasida ushbu fikrlarni Otashga kim aytgan?

- A) Jaloyir B) Battol
C) Fero'z D) Kultartakin

17. «Advokatlik osonmi?» dramasida Abdujabbor kimga: «...bir g'archcha yog', bir juda soqoli uzun», – deya ta'rif beradi?

- A) Xushvaqt B) Xudoyberdi
C) Rapoil D) Egamberdi

18. *Jahlim chiqib, shundoq kofirligim tutuvdi-ku... Bu sho'tumshuqning ko'z yoshini ko'rib yuragim o'lgur tag'in ezilib ketdi. Har balo bo'lsayam, hovli sotilmasin. Bir etak bola-ya!* «Yo Jamshid» hikoyasida ushbu fikrlarni kim aytgan?

- A) Zarif naya
B) Orif baqiroq
C) Salomat amma
D) Islomboy

19. «Toshkentnoma» dostonida kimga: «*Biri – nasr uyining baland tiragi*», – deya ta'rif berilgan?

- A) G'afur Gulom B) Oybek
C) Hamid Olimjon D) Mirtemir

20. «*Bir odamni(ng) o'g'ri qilmoq uchun birovdan eshitgan gap kifoya qilmaydur. Mol ila ushlarloq kerak yoki ko'rg'on-bilg'on guvoh-isbot kerak bo'lador. Munaqangi ko'rma-ko'raki bir odamni(ng) o'g'ri qilub bo'lmaydur.* Ushbu gaplarni advokat kimga aytgan?

- A) Xushvaqt B) Egamberdi

- C) Xudoyberdi D) Haydarali

21. «Sohibqiron» necha pardali she'riy drama?

- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

22. «*Agarda biz hozirgi ilm va urfon taraqqiy qilub, butun dunyog'a nur sochib turg'on bir zamonda eng muhim vaqtlarimizni ana shunday bid'at, quruq o'yinkulgi, tortish va talashlar birla o'tkarsak, dunyo yuzindan inqiroz olamig'a qarab ketmog'imizga shak va shubha yo'qdur. Munday bid'at va isroflarni(ng) oromizdan yo'qotmak uchun yoshlarmiz butun kuch va quvvatlarini(ng) ilm va maorif yo'lliga sarf qilmoq ila barobar tish va tiroqlari ila butun quvvatlarini(ng) bu bid'at ishlarini(ng) yo'q qi(l)moq yo'lida tirishmoqlari lozimdu*. Ushbu pacha qaysi asardan olingan?

- A) «Padarkush»

- B) «Zaharli hayot»

- C) «Teyotr nadur?»

- D) «Advokatlik osonmi?»

23. «*Ot kishnagan oqshom*» qissasida Ziyodulla kal minadigan otning nomi ...

- A) Tarlon B) Shunqor

- C) Saman D) Do'nan

24. «*Dasht-u dalalarda*» hikoyasida kimga: «*Bir marta uylanib, yil o'tmay ajrashgan kamgap yigit*», – deya ta'rif beriladi?

- A) Sattorqul B) Nazar maxsum

- C) Salim sajich D) Hasanboy

25. «*Illohi, yomon af'olimdan parishonligim cho'qtur*

Va shum nafsimda pushaymonlik yo'qtur,

Mundoq balolardan qutularg'a umidim sendin o'qtur».

Navoiyning «Munojot» asaridan olingan bu parcha qaysi asarda uchraydi?

- A) «Shaytanat»
- B) «Qariya»
- C) «Dasht-u dalalarda»
- D) «Qorako'z majnun»

26. «Molimizni, jonioimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarinda qurban qilmoq hammamizga lozimdir. Shuni qilmog'onda sultonimizning chin qullari bo'la olmaymiz». «Abulfayzxon» dramasida ushbu fikrlami kim aytgan?

- A) Davlat
- B) Ulfat
- C) Qozi Nizom
- D) Mir Vafo

27. «Abulfayzxon» dramasida Rahimbiyning «Bizning oramizda bir so'z bor: «Chingizxon avlodidan bo'limag'on kishi xon bo'la olmaydir» deylar» degan gapiga «Shariatda bunday bir narsa yo'qdir. Kimning qo'lindan ish kelsa, shul xon bo'la beradir» deya kim e'tiroz bildiradi?

- A) Qozi Nizom
- B) Ibrohim otaliq
- C) Oxun
- D) Doniyolbiy

28. «Abulfayzxon» dramasida Rahimbiy yosh Abdumo'minxonni nimaning ichiga zahar qo'shib berib o'diradi?

- A) sharobning
- B) sharbatning
- C) ayronning
- D) taomning

29. *Shu vaqt o'rta ga o'n besh-o'n olti yoshlik yosh bir qiz kelib kirdi. Uning sochlari jingala, yuz va ko'zları do'ndiq, ustida yashil baxmaldan burma qilib tikilgan chiroyli delvagay kiyimi bor edi.* «Jinlar bazmi» hikoyasida qo'llangan «delvagay» so'zining ma'nodoshini toping.

- A) astarli
- B) yengil
- C) pishiq
- D) yengsiz

30. *Miryoqub ham erka o'g'ildek muqobala qildi.* Ushbu parchada

qo'llangan «muqobala» so'zining ma'nodoshini toping.

- A) erkalanish
- B) maqtanish
- C) quvonish
- D) qarshi qilish

31. *Uzoq cho'zilgan bu suhabatda Miryoqubning qulog'i bir marta juda galati dikkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko'zlarida allaqanday sehrli olovli yondi. Uning boshi ham kitobdan ko'tarilib, yuzlaridan yengil bil qizillik yoylib o'tdi.* «Kecha va kunduz» romanida noib to'ra va injener o'tasidagi bu suhabatning qayerida Miryoqubda shu holat kuzatiladi?

A) poyezdning o'tish joylarini miyasig'u joylab olganda

B) injener sartlarni haqorat qiluvchi gaplarni aytganda

C) Akbarali mingboshiga daxldor gap atylganda

D) oqoshshoning sartlar haqidagi fikrlari atylganda

32. Qaysi qatorda keltirilgan asar hikoya janrida yozilmagan?

- A) «Beozor qushning qarg'ishi»
- B) «Yo Jamshid»
- C) «Dasht-u dalalarda»
- D) «Dunyoning ishlari»

33. *Nega kerak edi shu chiroy, shu o't,*

Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?»

Bu satrlar qaysi she'r dan olingan?

- A) «Ofeliyaning o'limi»
- B) «Muqanna»
- C) «Biroz kul»
- D) «Surat»

34. «Surat» dostonidagi Oysuluvning kasbi ...

- A) dehqon
- B) aktrisa
- C) raqqosa
- D) muallim

35. «Ota bo'lib soldim men yo'ga,

*Ona bo'lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
Bir davlatmand boy bo'lib
qoldim.*

- Bu misralar qaysi she'dan olingen?
 A) «Bahor keldi seni so'rroqlab»
 B) «Xotiram siniqlari»
 C) «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»

D) «Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim»

36. Hayoti va ijodida kirish va chiqish vazifasini o'tovchi surat mavjud bo'lgan rassom obrazi qaysi hikoyada uchraydi?

- A) «Maymun yetaklagan odam»
 B) «Olim o'g'il»
 C) «Qariya»
 D) «Beozor qushning qarg'ishi»

VARIANT № 33 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Zaharli hayot» dramasida inson galbi, erki va orzu-intilishlari bilan hisoblashmaydigan, hamma narsaga o'z qarichidan kelib chiqib baho berishga o'rgangan malifikatsiz kishilar ...

- A) Mahmudxonning ota-onasi
 B) Maryamxonning ota-onasi
 C) eshon va Qosim xalfa
 D) Mahmudxon va Maryamxonning ota-onasi, eshon

2. Behbudiyning «Padarkush» dramasida qaysi qahramonning o'zi voqealar rivojida ishtirok etmaydi, ta'rifi qatnashuvchilar ro'yxatida ham keltirilmagan, uni boshqalarning nutqi orgali bilib olamiz?

- A) Xayrulla B) Tursun
 C) Davlat D) Nor

3. Ko'p uzoq qunt bilan ishladi shoir,
Ilhomga bag'ishlab oltin yillarin.

Baxsh etdi qog'ozga chin mayllarin,
Dil o'z mavzuyiga bo'lgandek asir.

Ushbu parcha kimning qalamiga mansub?
 A) Oybek «Mashrab»
 B) Maqsud Shayxzoda «Ayriliq»
 C) Cho'lpion «Xazon»
 D) Asqad Muxtor «El-yurt»

4. Abdulla Oripov she'rlaridan birida bolaligini eslab dunyodagi hamma narsadan qochib qutulish va berkinish mumkin, lekin shunday og'ir yuk borki, vijdon azobida qovrilasan, qayga berkinishni, kimga borib dod deyishni bilmaysan deydi. O'sha narsa nima?

- A) momaqaldiroq
 B) chinqiroq ilon
 C) gunoh
 D) quturgan it

5. Qaysi asar qahramoni o'g'li Jo natgan pilni «Yusuf va Zulayxo» kitobi orasiga qo'yadi?

- A) Shukur Xolmirzayev «Qariya»
 B) N.Norqobilov «Olim o'g'il»
 C) O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari»
 D) O'Imas Umarbekov «Sovg'a»

6. Qaysi asarda «O'ychingning o'yi bitguncha tavakkalchining ishi bitadi» maqoli uchraydi?

- A) M.Muhammad Do'st «Dasht-u datalarda»
 B) Shukur Xolmirzayev «Qariya»
 C) Xayriddin Sultanov «Yo Jamshid»
 D) E.A'zam «Ko'k eshik»

7. «Sarob» romanining qaysi qahramoni suhabatoshiga Abdulla To qayning Tolstoy vafoti munosabati bilan yozilgan she'rini yoddan o'qib beradi?

- A) Ulfat B) Saidiy

C) Salimxon D) Munisxon

8. «*Esing borida etagingni yop*»

maqoli qaysi asarda uchraydi?

A) «Advokatlik osonmi?»

B) «Navoiy»

C) «Kecha va kunduz»

D) «Sohibqiron»

9. Avloniy «Kim nimani yaxshi ko'rur?»

maqolasi so'ngida o'zi nimani yaxshi ko'rishini aytadi. Bu ...

A) milliy she'r va adabiyot yozishni

B) indamasdan turishni

C) tarix va romanlar o'qishni

D) bolalarni o'qutmakni

10. Fitratning «Abulfayzxon» dramasi

besh pardali asar hisoblanadi. Nechanchi pardalar orasida yetti yil vaqt o'tgan deb ko'rsatiladi?

A) I va II parda

B) II va III parda

C) III va IV parda

D) IV va V parda

11. Fitratning «Abulfayzxon» dramasi

da Rahimbiyga: «*Abulfayzxon hukumat ishlarini bajara olmadi. Shuning uchun hukumatni boshqa kishiga topshirmog'i kerak bo'idi. Buni qilmog'och jazosini ko'radi*»,

– deb kim aytgan?

A) Oxun B) Qozi Nizom

C) Doniyorbiy D) Mir Vafo

12. «*Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi deb kim aytadi?*

Gadoy podshoh bo'lishni istasa yomonmi?» Ushbu fikrlar qaysi asardan

olingan?

A) «Navoiy»

B) «Kecha va kunduz»

C) «Sarob»

D) «Abulfayzxon»

13. Noto'g'ri hukmni toping.

A) «Toshkentnoma» (M.Shayxzoda) –

lirik poema

B) «Surat» (Mirtemir) – lirik qissa

C) «Ot kishnagan oqshom» (Toj'say Murod) – hikoya

D) «Dasht-u dalalarda» (M.Do'st) – hikoya

14. «*Yo Jamshid*» hikoyasida qinor o'ynab yutqizgan Islomboyning xoti ...

A) Samar B) Saltanat

C) Ruxsor D) Anzirat

15. «*Zaharii hayot...*» dramasida in-

son qalbi, erki va orzu-intilishlari bilin hisoblashmaydigan, hamma narsaga o'z

qarichidan kelib chiqib baho berishiga

o'rgangan ma'rifatsiz kishilar ...

A) Mahmudxonning ota-onasi

B) Maryamxonning ota-onasi

C) eshon va Qosim xalfa

D) Mahmudxon va Maryamxonning

ota-onasi, eshon

16. «*Cholning ota avlodidan*

ham, ona avlodidan ham hech kimi yo'q. Shuni es-es biladikl, bolaligidida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga

bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozchilarga qo'shilib ko'mir

koni yaqinidagi qishloqqa borgan». Ushbu ta'rif qaysi asar qahramoni haqida?

A) «Qorako'z majnun», Saodat

ayaning eri

B) «Qariya», Qo'ziboy chol

C) «Qariya», Shoymardon Qudrat

D) «To'qqizinchil palata», Bahromov

17. «*Dasht-u dalalarda*» (Murod

Muhammad Do'st) hikoyasidagi Sanaqulbek

kim?

A) Xadichaning ukasi

B) mahalla oqsoqlari

C) Nazar Maxsumming o'g'li

D) Xadichaning tog'asi

18. «*Dasht-u dalalarda*» (Murod Muhammad

Do'st) hikoyasidagi Nizomboy kim?

A) polvonning qo'shnisi

B) polvonning qaynisi

C) milisa D) oqsoqlari

19. «Dunyoni endi ko'rganday, usmondan tushganday bo'lib qoldim». «Ot kishnagan oqshom» u'sasida Ziyodulla chavandoz nima uchun shunday deydi?

A) odamlarning uch kishi tomonidan bir kishining o'lasi qilib savalanayotganini ko'rib faqt tomoshabin bo'lib turishi, ularni ajratish o'rниga haybarakallachilik qilib «ur, sol» deb baqirishlaridan ichi kuygani uchun

B) Dono momoni so'nggi yo'lga kuza-lishga juda kam odam qatnashgani uchun

C) baliqpaz va choyxonachi janjalga guvoh bo'salar-da, o'zlarini ko'rmaganlikka olishgani uchun

D) tez yordam mashinasida o'tib ketayotgan doktorlarning biz boshqa joyga chaqirilganmiz deya qonga belanib yotgan kishiga yordam bermaganlaridan hayratlangani uchun

20. Mahmudxon Maryamxonimga: «Xonim afandi, oh, ikkimizga bir uqubat borga-da o'xshaydi», – deganda qaysi uqubatni nazarda tutadi?

A) otasi Abdusodirboyning bu to'yga hech qachon rozi bo'imasligi xabarini

B) Maryamxonimning hazrati eshonga nazr qilinganligini

C) otasining malomatlaridan cho'chiyatganligini

D) o'zining yaqinda chet el safariga jo'nab ketayotganini

21. Abdulla Avloniyning «Kim nimani yaxshi ko'rur?» maqolasida «to'yarda to'n kiyib, ko'p oshab, ko'p uylashni yaxshi ko'rарлан» deb kimlarni aytgan?

A) savdogarlamni B) otalami
C) eshonlarni D) mo'ysafidlarni

22. «O'zi qora, bosgan yerda zulmatni ziyo qiladi». Ushbu misra kimning asaridan olingan, nima to'g'risida so'z bormoqda?

A) Hamza «Qalam», qalam haqida

B) Abdulla Avloniy «Maktab haqinda», maktab haqida

C) Fitrat «O'qituvchilar yurtiga», o'qituvchilar haqida

D) So'fizoda «Gazeta to'g'risida», gazeta haqida

23. *U ... ishonar, uning qal'a kalitini shahzodaga qarshiliksiz topshirishini kutmagan, chunki uni o'zining eng sodiq amirlaridan biri deb o'yldi.* («Ulug'bek xazinasi»)
Ushbu parchada Ulug'bekning qaysi ishongan amiri haqida so'z bormoqda?

A) Husayn Bahodir

B) Amir Kamoliddin

C) Amir Ibrohimbek

D) Amir Arslon

24. Amir Temuring «Sohibqiron» dramasida Amir Temur Husaynga Samarqandni mo'g'ullar qayta bosganda shaharni mardonavor himoya qilib mo'g'ul qo'shinini kimlar uloqtirib tashlaganini aytilib o'tadi?

A) Amir Temur qo'shini

B) Amir Husayn qo'shini

C) sarbadorlar

D) Kayxisrav qo'shini

25. Qaysi adibning ukasi xatida akasiga she'riyat sirlarini o'rgating, shoir bo'lmochiman deb yozgan?

A) Usmon Azim

B) Azim Suyun

C) Xurshid Davron

D) Omon Matjon

26. Qaysi adib O'zbekistonga qarsak chaladigan xizmatchi bo'lib ishga kirar edim deb aytgan?

A) Shavkat Rahmon

B) Usmon Azim

C) Omon Matjon

D) Azim Suyun

27. Qaysi shoir she'rlarining birida: «*Og'riqlarni unutmoq uchun kuyladim*», – deydi?

A) Ulug'bek Hamdam

B) Iqbol Mirzo

C) Zebo Mirzo

D) Faxriyor

28. «*Uning o'z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekan, bor kuchini shunga sarf qiladi...*» Ushbu parcha kim haqida?

A) «Qutlug' qon», Yormat

B) «Kecha va kunduz» Xolmat

C) «Kecha va kunduz», Hakimjon

D) «Qutlug' qon», Shokir ota

29. «...*hujrasining eshigini ochganida oyog'i ostiga bir konvert tushdi. Konvert uzunchoq, yupqagini bo'lib, ustida bir idoraning shtampi bosilgan edi. Pochchasi bilan birga ekanida moliya shu'basining bildirishini, tergov idoralarining chaqiruv qog'ozlarini ko'ra-ko'ra yurak oldirib qolgani uchun qo'rqib ketdi.*» Ushbu parcha qaysi asardon olingan?

A) «Sarob»

B) «Muzqaymoq»

C) «Oltin zanglamas»

D) «Dunyoning ishlari»

30. Maqsud Shayxzoda qaysi she'rida qalamga qulluq qiladi?

A) «Ayriliq»

B) «She'r chin go'zallik singlisi ekan»

C) «Toshkentnoma»

D) «Qo'llar»

31. «Muqanna» dramasida otash-parastlik dini haqida: «*O'tinidan tolelari sho'r bo'ldim, Tutunidan ikki ko'zi ko'r bo'ldim*», – deya afsuslangan qahramon kim?

A) Guloyin B) Gulobod

C) Otash D) Fero'z

32. «Advokatlik osonmi?» dramasida ba'zi boylarning qarz oluvchidan bir veksel

olib, yana bir tilxat ham olishi, aga... qarzini to'lay olmasa, ham veksal... tilxatga oqcha olishi, bir odam yu... qarzdor bo'lsa, ikki yuz so'm to'lashi... xarajatlarga ellik so'm qo'shilib, yu... pul o'rniga ikki yuz ellik so'm pul... haqida advokat Davronbekka klm... beradi?

A) Rapoil B) Egamberdi

C) Xudoyberdi D) Abdujabbor

33. *Qilib nafsingni sarkash ... rom ohista-ohista,*

Musodiq rasmicha ko'rum... qiyom ohista-ohista,

Haqiqat rohida aylab xit... ohista-ohista,

Muroding manzilida qil muqom... ohista-ohista...

Ushbu misralar muallifi va janru... toping.

A) Muqimiy, murabba

B) Avaz O'tar, musamman

C) Hamza, muxammas

D) Cho'lpox, musaddas

34. Fitratning «Abulfayxon» drama... sida qaysi urug' haqida Rahimbily: «*Buxoroning tubchak, buyuk b... eli*», – deydi?

A) kenagas B) mang'it

C) saroy D) yuz

35. «*Ey o'g'il, dunyoda bo'limoq istasang olijanob,*

O'qig'il maktab kelib, zinhor o'qi, ming bor o'qil»

Misralar qaysi shoir ijodida uchraydi?

A) Behbudiy B) Hamza

C) So'fizoda D) Fitrat

36. Qaysi javobda Abdulla Qodiriyning «Jinlar bazmi» asari bilan bir xil janrda yozilgan asar nomi keltirilgan?

A) Cho'lpox, «Men shoirmi?»

B) Fitrat, «Abulfayxon»

C) Said Ahmad, «Qorako'z majnun»

D) Shuhrat, «Qo'sha qaringlar»

VARIANT № 34 (III kurs litsey adabiyoti)

1. «Orzu-havas o'lsa o'lsun, milliyat, insoniyat o'limasun». Ushbu qaysi qahramonga tegishli?
- «Mehrobdan chayon» asarida Mivirga
 - «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarida Maryamxonimga
 - «Kecha va kunduz» asarida Miryoqubga
 - «O'tkan kunlar» asarida Otabekka
2. «Dasht-u dalalarda» (Murod Muhammad Dost) hikoyasidagi Sattorqul kim?
- Xadichanening ukasi
 - mahalla oqsoqoli
 - Nazar Maxsumning o'g'li
 - Xadichanening tog'asi
3. Shukur Xolmirzayevning «Qariya» hikoyasida oltita farzandi bor, bitta qo'lli yubli bo'lismiga qaramasdan, o'z kasbining ustasi bo'lgan qahramon kim?
- Qobil qassob
 - Mirg'oz qassob
 - G'oziboy choyxonachi
 - Shoymardon Qudrat
4. «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom» maqoli qaysi asarda uchraydi?
- «Ot kishnagan oqshom»
 - «Qariya»
 - «To'qqizinchil palata»
 - «Dasht-u dalalarda»
5. Qaysi asar qahramonlari o'z oldiga «zulmatda qolmish bu millatni, vatanni biri quyosh, biri mohtob bo'lib yoritishni» maqsad qilib qo'ygan javonmardlar edi?
- «Mehrobdan chayon»
 - «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari»
 - «Kecha va kunduz»
 - «O'tkan kunlar»
6. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasida: «Hayoti milliya ochqichlari – millat, xalq hayotini ochib, ko'rsatib beruvchi», – deya nimaga ta'rif beriladi?
- gazetaga
 - jurnalga
 - kitobga
 - maktabga
7. «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» asarining nechanchi pardasida zahar ichib yotgan Maryamxonim va uning onasi o'rtaasida munozara bo'lib o'tadi?
- birinchi
 - ikkinci
 - uchinchchi
 - to'rtinchi
8. Hamzaning «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari» fojiasida *Mirzo Hamdamboyning oshnasi, uzun bo'ylik, qora soqol, rasmiy kiyin-gan, Mahmudxonga muhabbatlik, birozgina zamondan xabardor kishi* kim edi?
- Abduqodirboy
 - Eshon
 - Osim xalfa
 - Mo'minboy
9. Qaysi qatorda Nazar Eshonqulning «Maymun yetaklagan odam» asari bilan bir xil janrda yozilgan asar nomi keltirilgan?
- Tohir Malik «Shaytanat»
 - Tog'ay Murod «Ot kishnagan oqshom»
 - Abdulla Qahhor «Sarob»
 - O'limas Umarbekov «Sovg'a»
10. «Yo Jamshid» hikoyasida Salomat amma tomonidan Ruxsor ismiga «chilashir» laqabi qo'shib aytilan qahramon kim?
- Islombeyning xotini
 - O'rinoyning xotini
 - Salomat ammaning kelini
 - Zarif nayzaning kelini

12. Qaysi she'riy asarda shoir bulutni soqolga o'xshatgan?

- A) «Bulut»
- B) «Qishlog'im»
- C) «Shudring»
- D) «Toshkentnoma»

13. Qaysi asarda payg'ambarimizning Xitoya bo'ssa ham ilm talab qilingiz degan so'zi keltirib o'tilgan?

- A) Abdulla Avloniy «Advokatlik osonmi?»
- B) Fitrat «Abdulfayxon»
- C) Mahmudxo'ja Behbudiy «Padarkush»
- D) Cho'pon «Adabiyot nadur?»

15. So'fizoda «Chust bayonlarining bir gapxonada» she'reida xalq aqlni kimdan o'rgansin deb aytgan?

- A) namozxonlardan
- B) ellikboshidan
- C) muallimdan
- D) eshondan

16. Behbudiyning «Padarkush» dramasida «Alar ehtiyyot qilib turalar» deb nimalarni berib yuboradi?

- A) to'pponcha va pichoq
- B) to'pponcha
- C) pichoq
- D) temir asbob

18. Bobur Xondamirga men shu vaqt-gacha ko'rgan janglarning eng dahshatlisi o'sha edi deb qaysi jang to'g'risida so'zla-gandi?

- A) Shoh Taxmasp
- B) Rano Sango
- C) Ko'chkinchixon
- D) Chingizxon

19. Abdulla Avloniyning qaysi asarida «hayotda qobil emas, devor surat-miz biz» misralari keltirilgan?

- A) «Maktab haqinda»
- B) «Hijron so'zi»
- C) «Biz, millat»
- D) «Vatanni suymak»

20. Qaysi ijodkor tushlarida akasining

jasadini topib otasining yonigu qabri qo'lli-gan, xokiga suv sepib sabr tilapjan?

- A) O.Hojiyeva
- B) Zulfiya Mo'minova
- C) Halima Ahmedova
- D) Zulfiya

21. «Dadamlar to'ladan koljan novcha, qirra burun, o'sha davrla rasm bo'lgan to'mtoq mo'ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Ujnidagi libosi o'sha mahalda Stalin ga taqlidan kiyiladigan ko'krin cho'ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlari da ham o'sha zamonalarda nism bo'lgan g'arch-g'urch xrom etlik. Ushbu ta'rif qaysi asarda keltirilgan?

- A) «Sovg'a»
- B) «To'qqizinch palata»
- C) «Qorako'z majnun»
- D) «Muzqaymoq»

22. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasida Amir Temur Amir Husayn tufayli Loy jangida nochor qolib qancha askur nobud bo'lganini afsus bilan esga oladi?

- A) 20 ming
- B) 15 ming
- C) 30 ming
- D) 10 ming

23. Qaysi adib ijodida oq tutlar g'arq pishgan paytda yashil shohlar orasida tut terganlari, bolta-yu chopqilar orqali tut barglarini qurtboqarlar olib qolganlarini esga oladi?

- A) Usmon Azim
- B) Azim Suyun
- C) Xurshid Davron
- D) Omon Matjon

24. Yo'q sul oilaning bir qizi Enaxon qaysi asar qahramoni?

- A) «Qutlug' qon»
- B) «Kecha va kunduz»
- C) «O'tkan kunlar»
- D) «Sarob»

25. «U bir vaqt borgani yozuvchilar majlisida kaltaklangan,

baobro' qilingan yigit edi».
Ushbu ta'rif «Sarob» romanining qaysi qahramoni haqida?

- A) Kenja B) Yoqubjon
C) Ilhom D) Ulfat

26. «Advokatlik osonmi?» dramasida *«Lo'lining eshagini sug'or, pulini o!»* maqoli kim tomonidan aytildi?

- A) Rapoil B) Lgamberdi
C) Xudoyerberdi D) Abdujabbor

27. «Sovg'a» (O'.Umarbekov)
hikoyasidagi Rahmonqul aka kim?

- A) Valining dadasi
B) Sahodan xolaning eri
C) rais D) A'llobush xolaning eri

28. «Qo'y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan. Bola ko'rмаган. Xotini bundan sakiz yil muqaddam o'zining qo'lida jon bergan». Ushbu ta'rif qaysi asar qahramoni haqida?

A) «Ot kishnagan oqshom», Ziyodulla chavandoz

- B) «Qariya», Qo'ziboy chol
C) «Qariya», Shoymardon Qudrat
D) «To'qqizinchil palata», Bahromov

29. «Iltijo» hikoyasi muallifini toping.

- A) O'limas Umarbekov
B) Shukur Xolmirzayev
C) Murod Muhammad Do'st
D) O'tkir Hoshimov

30. «Dasht-u dalalarda» (Murod Muhammad Do'st) hikoyasidagi Xoliyor kim?

- A) usta B) polvon
C) milisa D) oqsoqol

31. «Dasht-u dalalarda» (Murod Muhammad Do'st) hikoyasida polvonning xotini arazlab ketib qolganda kim undan har kuni xabar olib turar edi?

- A) qizi Chaman

- B) singlisi Adolat
C) qo'shnisi Mahfirat
D) singlisi Saltanat

32. «Torgina bu lovlida kampir yolg'iz, faqirona kun kechiradi. Qo'shniiga tushgan qizi oilasi bilan andarmon, qo'li tekkan mahaldagina kirib turadi». Ushbu parchada qaysi asar qahramoni ta'riflangan?

- A) «Ko'k eshik», Zuhra kampir
B) «Sovg'a», Shahodat xola
C) «O'ris bolaning onasi», Zebi xola
D) «Qorako'z majnun», Saodat aya

33. «Ot kishnagan oqshom» qissasidagi Sattorov kim?

- A) choixonachi B) baliqpaz
C) drujinachi D) pochtachi

34. Qaysi asarda «Ho'kizning shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi» maqoli uchraydi?

- A) «Dasht-u dalalarda»
B) «Yo Jamshid»
C) «Sovg'a»
D) «Ko'k eshik»

35. «Zaharli hayot» dramasida Mahmudxon nima uchun Maryamxonim qabriga boradi?

- A) telba bo'llib qolgani uchun
B) qabrniziyorat qilish uchun
C) uyqusirab, tush ko'rib, cho'chib uyg'onganini uchun

- D) o'zini o'dirish uchun

36. «Kecha oqshom Maryamxonim ... qurbanini edi, biz bugun insoniyat, millat qurbanini!» Parchada nuqtalar o'miga qo'yilishi kerak bo'lgan so'zni toping.

- A) jaholat B) boylikka hirs
C) muhabbat D) zu'l'm

VARIANT № 35 (III kurs litsey adabiyoti)

1. To'g'ri fikrni aniqlang.

A) Avloniyning «Biz, millat» she'ri «Maktab gulistoni» kitobiga kiritilgan

B) Avloniyning «Maktab haqinda» she'ri «Ikkinci muallim» kitobiga kiritilgan

C) Avloniyning «Xurus ila bo'tiri» hikoyasi «Birinchi muallim» kitobiga kiritilgan

D) Avloniyning «Hijron so'z» she'ri «Maktab gulistoni» kitobiga kiritilgan

2. «Xos kishilar hamma vaqt itlar oldiga tashlanadigan suyakka ijirg'anib qaraydilar. Shusababli o'zları faqir bo'lsalar-da, hech kimga hech qachon bosh egmaydilar». Ushbu fikr qaysi asarda uchraydi?

A) «Hisomiddin al-Yog'i»

B) «Mehrobdan chayon»

C) «Navoiy»

D) «Qorako'z majnun»

3. Shoyim Bo'tayevning «Hisomiddin al-Yog'i» hikoyasida Sulton Alouddin Tarmashirinning amaldorlarga otgan suyagini kim ilib olib, hammadan olqish oladi?

A) Ahmadbek B) Burg'ubek

C) Zunnunbek D) ismi aytilmagan

4. Noto'ri hukmni ko'rsating.

A) «Biroz kul» she'ri Fitrat qalamiga mansub

B) «Teyotr nadur?» maqolasi Behbudiy qalamiga mansub

C) «Vatanni suymak» hikoyati «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobiga kiritilgan

D) «Kim nimani yaxshi ko'tur?» maqolasi Cho'lpion qalamiga mansub

5. Navoiyning «Ko'zing ne balo qaro bo'lubdur» deb boshlanuvchi mashhur g'azaliga qaysi shoir muxammas bog'lagan?

A) Hamza

B) Omon Matov

C) Erkin Vohidov D) Avaz O'tar

6. «Bulbulim uchdi qo'yumda gayda mehmondir bukun,

*Bulbulim yo'qotib, ko'riglim
parishondir bukun». Ushbu minnali qaysi shoir ijodida uchraydi?*

A) Avloniy B) Hamza

C) Cho'lpion D) Avaz O'tar

7. Ikki do'st safarga chiqishadi. Ularning safarni davom ettitishi uchun daryodan kemada o'tishlariga to'g'ri kelni. Yo'lda bir kuchli to'lqin kemani ag'diini yuboradi va har ikkisi suvgaga yiqiladi. Ularni qutqarish uchun qutqaruvchilari kelganlarida birining yoniga borsa, «Men emas, avval do'stimni qutqaring», - deydi, ikkinchisi ham shunday jabob beradi. Ushbu chin do'st haqidagi hikoya qaysi asarda uchraydi?

A) «Birinchi muallim»

B) «Ikkinci muallim»

C) «Gulistoni bit-turkiy»

D) «Turkiy Guliston yoxud axloq»

8. Qaysi asar 4 parda, 8 ko'rinishli tarixiy drama?

A) «Abulfayzxon»

B) «Mirzo Ulug'bek»

C) «Muqanna»

D) «Padarkush»

9. «Olamba kishini yayratadigan narsalarning hisobi yo'q, ammolarning hammasi zaharli so'z, olovli qamchi kutgan kishining tomonidan bo'lgan iltifotga yetarmikan?» Ushbu parcha qaysi asardon olingan?

A) «O'tkan kunlar»

B) «Mehrobdan chayon»

C) «Sarob»

D) «Qariya»

10. «Muqanna» dramasida kim Gulninga: «*Iching to'la ma'no sening, ilono qiz*», – deydi?

A) Gulobod B) G'irdak

C) Fero'z D) Otash

11. «Advokatlik osonmi?» dramasining qaysi qahramoni o'zini «*Aminjon boyning nevaralarini*» deb tanishтирди?

A) Rapoil B) Egamberdi

C) Xudoyerberdi D) Xushvaqt

12. Fitratning «Abulfayxon» dramasida gi Mirzo Mahdiy kim?

A) tarixchi olim

B) shohning bosh kotibi

C) xonning inog'i

D) to'qsabo

13. «...o'lim janjalimizni bitir-di. Butun janjallarimizni o'lim bitiradir!» Fitratning «Abulfayxon» dramasida ushbu fikrlar kim tomonidan kimga aytildi?

A) Abulfayxon tomonidan Farhod otaliqqa

B) Rahimbiy tomonidan Abulfayzxonga

C) Rahimbiy tomonidan Abdumominxonga

D) Abulfayxon tomonidan Qozi Nizomga

14. Fitratning «Abulfayxon» dramasi da Rahimbiyga: «*Abdumo'min to'ra o'n besh yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima!*» – deb kim aytgan?

A) Ibrohim otaliq B) Qozi Nizom

C) Doniyolbiy D) Mir Vafo

15. «Zaharli hayot» dramasida kimga: «*Uzun bo'ylik, qora soqol, rasmiy kiyangan*», – deyta'rif berilgan?

A) Mirzo Hamdamboy

B) Abduqodirboy

C) Mahmudxon

D) eshon

16. «Sovg'a» (O'. Umarbekov) hikoyasidagi Xolposhsha kim?

A) A'lobushning qizi

B) Qumri otinning qizi

C) Valining opasi

D) Shahodat ayaning kelini

17. «*Ota o'z bolasini ming marta oq qilganda ham yuragining bir chekkasida shu bolaga atab ardoqlagan, uning kamolini ko'rishga asragan mehrining zarralari yotadi. Bu zarralar vaqtiga qo'shingiz bilan alanga olib, yana so'nadi*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) «Chinor»

B) «Ufq»

C) «Qorako'z majnun»

D) «Maymun yetaklagan odam»

18. Shukur Xolmirzayevning «Qariya» hikoyasida Qo'ziboy cholning omonat pulini olmadim deya qutulib ketganida kim cholga: «*Ota, xafa bo'lmang, o'limni o'ylamang. Siz bekor g'ovg'a ko'tardingiz, shu hassa bilan boshiga solishingiz kerak edi*», – deya tasalli beradi?

A) Qodirboy misgar

B) Mirg'oz qassob

C) G'oziboy choyxonachi

D) Shoymardon Qudrat

19. «*Bozor oralab bozorlik qildim. Noz-ne'matlar oldim. Jiydag'a boshqorong'i ayolimizga Xorazm jiydsi, o'g'llarimizga xo'rozqand, qog'ozida kuchugi bor qand, teshikkulcha oldim*». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) «Sovg'a»

B) «Ot kishnagan oqshom»

C) «Dunyoning ishlari»

D) «To'qqizinchli palata»

20. Qaysi qahramonga: «*Turkiston-da esrlardan beri endigina yetishgon millat joriyasi*», – deyta'rif berilgan?

A) Zebi

B) Maryamxonim

- C) qalam D) sabr
 4. Qaysi adib ijodida go'zal umrini yozi, bahori behuda o'tganligidan, biror ishni uddalay olmaganligidan va biror kimsani rozi qila olmaganidan afsuslangan?
 A) Usmon Azim
 B) Omon Matjon
 C) Shavkat Rahmon
 D) Azim Suyun
 5. Cho'lponning qaysi she'ri bir xil misra bilan boshlanib, bir xil misra bilan tugaydi?
 A) «Qo'zg'alish» B) «Yong'in»
 C) «Somon parcha»
 D) «Xazon»
 6. Qaysi asarda ingliz olimi Ramzeyning yer ostidagi ko'mimi gazga aylanlitrib foydalananish mumkinligini ochgani haqida so'z boradi?
 A) «Olim o'g'il»
 B) «Sarob»
 C) «Dunyoning ishlari»
 D) «Shaytanat»
 7. «Muqanna» dramasida kim: «Xotinlarni asir olgan hech qo'ymay, Mol to'plagan o'ljaga hech u to'ymay», – deya qoralangan?
 A) Jaloyir B) Qutayba
 C) Sayidbattol D) Ibn Muoz
 8. Abdulla Avloniying «Kim nimani yaxshi ko'rur?» maqolasida kimlar «To'ylikni to'yi o'tar, to'ysizni kuni o'tar» degan so'zga amal qilmay, qaysi mahallada to'y bo'lsa, dasturxonlik qilishni yaxshi ko'rilar deyiladi?
 A) mo'ysafidlar B) savdogarlar
 C) eshonlar D) onalar
 9. «Kechagina biz majlisda To'yga qaror qilgan edik. ...ning to'yi qoldi, Dushman ishga ishkak soldi». «Toshkentnoma» dostonida urush boshlangani tufayli qaysi shoimring qoldirilgan to'yi haqida so'z borgan?
- A) Lermontov B) Pushkin
 C) Navoiy D) Bobur
 10. «Yaxshilik bilan qoldirmoqning o'zi ulug' mukobobi Ushbu fikrlami Navoiy kimga aytgan?
 A) Darveshaliga
 B) Sultonmurodga
 C) Mavlono Fasihiddinga
 D) Xo'ja Afzalga
 11. Qaysi asar qahramoni: «Jumma oqshomi duoning qabul vaqtida» – deydi?
 A) Abdulla Avloniy «Advokatlik osonmi»
 B) Mahmudxo'ja Behbudiy «Padarkumih»
 C) Fitrat «Abulfayzxon»
 D) Hamza «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari»
 12. «Bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish» maqoli «Sarob romanida kim tomonidan aytilan?
 A) Kenja B) Abbasxon
 C) Salimxon D) Ulfat
 13. «Advokatlik osonmi?» dramasida advokat Davronbek kimga «aka domullo» deb murojaat etadi?
 A) Rapoilga B) Xushvaqtga
 C) Xudoberdiga D) Egamberdiga
 14. Ellari mahvdan qutqaran ilm erur, Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur.
 Ushbu misralar kimning qaysi she'ridan olingan?
 A) Avloniy «Biz, millat» she'ri
 B) Avloniy «Maktab haqinda» she'ri
 C) So'fizoda «O'qing, onalar» she'ri
 D) Fitrat «O'qitg'uvchilar yurtiga» she'ri
 15. «Dasht-u dalalarda» (Murod Muhammad Do'st) hikoyasida polvonning xotini Xadichani Nazar Maxsum kimga so'rab sovchilikka borayotgan edi?
 A) Xoliyorga
 B) Sanaqulbekka
 C) Ahmad shaytonga

D) O'rolga

16. «Sovg'a» (O'.Umarbekov)
hikoyasidagi Sobirjon kim?

A) A'llobush xolaning o'g'li

B) Shahodat ayaning o'g'li

C) Qumri otining o'g'li

D) pochtachi

17. «Bemorlarim beozor, ikkalasi
ham keksa, bosiq odamlar, kelgan
kuniyoq til topishgan, u dunyo-
bu dunyodan gaplashib, ortiqcha
oh-u nolasiz kunni kech qilishadi». Ushbu parcha qaysi asarda keltirilgan?

A) «Qariya»

B) «Qorako'z majnun»

C) «Muzqaymoq»

D) «To'qqizinch palata»

18. Xoladan hayiqmaydigan bola yo'q edi. Erkaklardek barvasta gavdali, qop-qora bu xotinning yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlaganga eshik kiyib, g'oz yurishi ham boshqa ayollarga o'xshamas, hatto qoramir siyrak mo'ylovi gacha bor edi, u qachon qarasa qulog'iqa rayhon taqib yurardi. Ushbu ta'rif qaysi asarda keltirilgan?

A) «Sovg'a» Shahodat xola

B) «Dunyoning ishlari» Zebi xola

C) «Ko'k eshil» Zuhra kampir

D) «Qorako'z majnun» Saodat aya

19. Shundayin latofat, shu og ko'krakka,

Nahot, munosibdir shu g'amgin libos,

Onang shuning uchun suyunganmidi?

Nahotki, shu sifat go'zallikka xos?

Ushbu parcha mualifi kim?

A) Hamid Olimjon

B) Mirtemir

C) Zulfiya

D) Maqsud Shayxzoda

20. «Asarni yozgan muharrirga ming so'm va o'n ming so'mlab hadiya berib, asarini mushaxxislar sotib olib, sahnaga qo'yib foyda qiladurlar». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

A) Behbudiy «Ikki emas, to'rt til lozim»

B) Behbudiy «Teyotr nadur?»

C) Avloniy «Kim nimani yaxshi ko'rur?»

D) Behbudiy «Sanoyi nafisa»

21. Umidga qarata: «Kel, jonomga berkitay seni, Hayotimga ko'rk etay seni», – deb yozgan shoir kim?

A) Ulug'bek Hamdam

B) Mirzo Kenjabek

C) Sirojiddin Sayyid

D) Xurshid Davron

22. «Advokatlik osonmi?» dramasida kim yarim soat ichida yigirma so'mga yaqin pul topadi?

A) Rapoil B) Egamberdi

C) Xudoyberdi D) Abdujabbor

23. Abdulla Avloniyning «Maktab haqinda» she'rida «islom elining suyanchig'idir» deb nimaga ta'rif beriladi?

A) maktab B) Vatan

C) ilm D) hunar

24. «O'zingda yo'q – olamda yo'q» maqoli «Sarob» romanining qaysi qahramoni nutqida uchraydi?

A) Ulfat B) Saidiy

C) Shafrin D) Salimxon

25. Fitratning «Abulfayzxon» dramasida beshinch pardasida Rahimbiy huzuriga olib kelgingan ko'zi ko'r bo'lib qolgan Ibrohim otaliq kimga qarata: «Eskilardan yolg'iz siz qolibsiz. Rahmatlik akalaringiz o'lgan ekanlar», – deydi?

A) Davlatga B) Ulfatga

C) Doniyorbiyga D) Yo'doshga

26. Fitratning «Abulfayzxon» dramasida Abulfayzxon Farhod otaliq haqida: «Kimni tuproqdan ko'tarib

kursiga chiqarsak, tezgina boshimizga chiqmoqchi bo'ladin,
– deganda unga: «*Xoqoni olam!*

Ularni yana tuproqqa qaytarmoq sizning qo'lingizdadir», – deydi?

- A) Ulfat B) Davlat
C) Qozi Nizom D) Mir Vafo

27. «*Musulmon kishida nafrat emas, muhabbat kuchliroq bo'ladi*». Ushbu fikr qaysi asarda uchraydi?

- A) Hisomiddin al-Yog'iyya
B) Qorako'z majnun
C) Ko'k eshik
D) Beozor qushning qarg'ishi

28. *Qancha baland uchsa hamki chumchuq qush, Uyasida o'rganganni o'qirmish.*

Ushbu fikr «*Muqanna*» dramasining qaysi qahramoni nutqidan olingen?

- A) Guloyin B) Gulobod
C) Otash D) Fero'z

29. «*Zaharli hayot*» dramasida Mahmudxon: «...bir qora chaqa, balki manga zahar, o'lim, aza», – deganda nimani nazarda tutadi?

- A) otasining orzu-umidini
B) ma'rifatsizlikni
C) johillikni
D) bemehrlikni

30. «*O'ris bolaning oyisi*» (O'.Hoshimov) hikoyasida Zebi xolaning urushdan qaytmagan o'g'li ...

- A) Kimsan B) O'sar
C) Vali D) Toy

31. Hamzaning «*Zaharli hayot...*» asaridagi Maryamxonim otasining kasbi ...

- A) Temirchi B) Dehqon
C) Bo'zchi D) Kosib

32. «*Zaharli hayot...*» dramasi qizlarimiz, ayollarimiz qanday nom bilan atalgan?

- A) onalarimiz B) hamshiralnimiz
C) ayollarimiz D) qizlarimiz

